

**O O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOG'LIQNI SAQLASH
VAZIRLIGI**



TOSHKENT FARMATSEVTIKA INSTITUTI

FARMAKOLOGIYA VA KLINIK FARMATSIYA KAFEDRASI

KLINIK FARMAKOLOGIYA

FANIDAN

O'QUV - USLUBIY MAJMUA

Bilim sohasi: 500000- Sog'liqni saqlash va ijtimoyi ta'minot
Ta'lim sohasi: 510000- Sog'liqni saqlash
Ta'lim yo'nalishi: 5510500-Farmatsiya (klinik farmatsiya)



Toshkent – 2020

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOG‘LIQNI SAQLASH VAZIRLIGI

TOSHKENT FARMATSEVTIKA INSTITUTI

FARMAKOLOGIYA VA KLINIK FARMATSIYA KAFEDRASI

KLINIK FARMAKOLOGIYA

FANIDAN

O'QUV - USLUBIY MAJMUA

Bilim sohasi:	500000- Sog‘liqni saqlash va ijtimoyi ta’minot
Ta’lim sohasi:	510000- Sog‘liqni saqlash
Ta’lim yo’nalishi:	5510500-Farmatsiya (klinik farmatsiya)

Toshkent – 2020

“Klinik farmakologiya” fanning o‘quv-uslubiy majmuasi O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi 2016 yil “25” avgustdagi 355-sonli buyrug‘i bilan (buyruqning 2-ilovasi) tasdiqlangan fan dasturi asosida ishlab chiqilgan.

Tuzuvchilar:

Qosimov A.SH. Farmakologiya va klinik farmatsiya kafedrası dotsenti,
t.f.n.

Taqrizchilar:

L.T. Daminova Toshkent Davlat Stomatologiya instituti 2 sonli terapevtik
yo‘nalishdagi fanlar kafedrası professori, tibbiyot fanlari
doktori

V.B Rasulova Toshkent Farmatsevtika instituti, tibbiy fanlar kafedrası
dotsenti, tibbiyot fanlari nomzodi

Fanning o‘quv uslubiy majmuasi tibbiy va biologik soha uslubiy kengashining 2020
yil “10” iyundagi 10- sonli bayoni bilan tasdiqlangan.

Soha uslubiy kengashi raisi 9/7 Fayzieva Z.T.

Toshkent farmatsevtika instituti MUK 2020 yil “7” iyuldagi 12- sonli bayoni bilan
tasdiqlangan.

Markaziy uslubiy kengash raisi [signature] Z.A. Yuldashev



Fanning o‘quv uslubiy majmuasi Toshkent farmatsevtika instituti institute
Kengashining 2020 yil “30” iyundagi 11- sonli bayoni bilan tasdiqlangan.

Kengash kotibi [signature] Haydarov V.R.

MUNDARIJA

I	OQUV MATERIALLARI	5
II	AMALIY MASHG‘ULOT MATERIALLARI	97
III	MUSTAQIL TA’LIM MAVZULARI	116
IV	GLOSSARIY	119
V	ILOVALAR - Fan dasturi - Ishchi fan dastuti - Tarqatma materiallar - Testlar - Baholash mezonlari	127 137 147 149 172
VI	ADABIYOTLAR RO‘YXATI	176

I. OQUV MATERIALLARI

MARUZA MAVZULARI

1-MAVZU. Klinik farmakologiya fani va maqsadlari. Klinik farmakologiya umumiy savollari. Dori vositalarni farmakodinamikasi va farmakokinetikasi.

Reja:

1. Klinik farmakologiya fanining qisqacha tarixi.
2. Klinik farmakologiya fanining maqsad va vazifalari.
3. Farmakodinamika tushunchasi. Farmakodinamikaning baxolash usullari.
4. Dori vositalari ta'sir mexanizmi turlari.
5. Farmakokinetikaga asosiy tushuncha berish, asosiy farmakokinetik parametrlar (so'rilish, taqsimlanish, oqsil bilan bog'lanish, eliminatsiya) va ularni klinik ahamiyati.

Kalit so'zlar: Klinik farmakologiya, farmakodinamika, farmakokinetika.

Klinik farmakologiya 20 asrning ikkinchi yarmida fan sifatida tashkil topdi. Uning yuzaga kelishida tibbiy amaliyotga katta miqdordagi dori vositalarini kirib kelishi, xamda bemor organizmiga dori vositalari ta'sir etishini barcha jihatlarini miqdoriy va sifat jihatidan baxolash uchun yagona tizimni ishlab chikish talabi turtki bo'lib xizmat kildi.

Klinik farmakologiya tashkil topishi birinchi navbatda farmakokinetikaning rivojlanishi bilan bog'liq. 20 asr boshlarida farmakokinetika mavjud emas edi. Dori vosita inson organizmida aylanib yurishini tasvirlashda matematik funksiyalardan foydalanishga xarakat qilib kurildi va ular asosida zamonaviy farmakokinetikaning bazisli konsepsiyasi ishlab chikildi. Dori vositalarini organizmdan chiqarilishini matematik tenglamalar yordamida ifodalash 1924 yilda Widmark va Tandberg tomonidan e'lon kilindi. 1931 yilda Hammelton et al. tranzitning urtacha vaqti tushunchasini kiritdilar, kaysiki birinchi moment uchun (AUMS) «konsentratsiya-vaqt» egrili ostidagi maydonning «konsentratsiya vaqt» (AUC) maydon ostidagi egrili nisbati asosida xisoblanadi. Buyrak klirensi tushunchasi 1929 yilda Moller et al., tarkalish xajmi tushunchasi esa 1934 yilda Dominguez tomonidan kiritildi.

1937 yilda e'lon kilingan makolalar zamonaviy farmakokinetika fanining asosi sifatida baxolanadi. Vitaminlarni eritma va xapdori (tabletk) kurinishidagi shakllari kiyosiy o'rganilib, 1945 yilda Oser et al. tomonidan biosinguvchanlik atamasi fanga kiritildi. Fridrix Xartmutom Dost (Dost) tomonidan 1953 yilda e'lon kilingan Der Blutsplegel («Qondagi konsentratsiya») nomli, ushbu bobga taallukli, ilk monografiyada «Farmakokinetika» atamasi paydo bo'ldi.

1956 yilda Hoeing va Schuk doza va «konsentratsiya-vaqt» egriligi ostidagi maydonning nisbati sifatida klirensini anikladilar. 1957 yilda Swintosky et fl. yarim chiqarilish davri xakida ilk kursatmalarni keltirib utdi. 1958 yilda Riegelman va Cromwell dori voitalarini rektal yuborishdan so'ng kinetikasi o'rgandilar, bir yil utgach Nelson esa dori vositalarini erish tezligini muximligi to'g'risida fikr bildirib, ularni surilish tezligini chegaralovchi omil sifatida kayd etdi. 1960 yilda Broide et al. preparatning fizik-kimyoviy xususiyatlari bilan ularni tarkalishi orasida bog'liqlik to'g'risidagi ilmiy izlaninishlarini e'lon kildilar. SHu yilda Kruger-Thiemer kimyoterapiya o'tkazish uchun farmakokinetikadan foydalanish buyicha bir kator makolalardan birinchisini e'lon kildi; u 1962 yilda Brasteleda (Germaniya) farmakokinetikaga bagishlangan birinchi simpoziumni o'tkazishni tashkilotchilaridan biri bo'ldi. Dori vositalari farmakokinetikasi va farmakodinamikasi to'g'risida tuplangan ma'lumotlar ular orasidagi o'zaro bog'liqni o'rganishga karatilgan ilk izlanishlar 1950 yilda De Jongh va Wignans va Van Germet va Duyff lar tomonidan e'lon kilindi. Dori vositalari samradorligini ilmiy asoslangan usullari asoschisi sifatida nemis vrachi Paul Martinini aytish mumkin, u 1932 yilda «Terapevtik tatkikotlar metadologiyasi» nomli monografiyani e'lon kildi va Klinik farmakologiya atamasini taklif etdi. Olim dorilarni klinik sinovdan o'tkazish usullarini bayon kilar ekan «boshlangich xolat», «platsebo», «nazorat guruxi» tushunchalariga izox berdi, xamda tekshirishlar protokoliga talablar, tanlash xajmi, dorilar

samaradorligi baxolash mezonlari, randomizatsiyaga ilk urinishlarni ishlab chikdi. Paul Martini 1933 yilda Germaniya tibbiy tekshirishlar kengashi koshida birinchi terapevtik sinovlar kumitasini tashkil kildi.

1938 yilda AKSH da FDA tashkil kilindi va dorilar qo'llanishini nazorat qilish buyicha birinchi qonun kabo'l kilindi.

1967 yilda SHveysariyalik vrach Lyusius Dettli (Dettli) tomonidan buyrak etishmovchiligi bilan kasallangan bemorlarni dorilar dozasini korreksiyalash usullari ishlab chikildi, xamda bir necha yildan so'ng u «Farmakokinetikadan klinik tibbiyotga ko'prik» nomli makolasini e'lon kildi.

Bu vaqtga kelib dorilarga javobning kengligi va turli reaksiyalar bilan namoyon bo'lishi xakida ko'pgina ma'lumotlar tuplandi. Jumladan dorilar metabolizmi genetik asoslangan patologik buzilishlari to'g'risida chikishlar kilindi. Ushbu ma'lumotlarni taxlil qilish asosida 1959 yilda nemis olmi F. Fogel «farmakogenetika» atamasini taklif kildi, 1962 yilda esa W.Kalow ning «Pharmacogenetics» nomli ilk kitobi bosmadan chikdi.

Klinik farmakologiya markazlari jaxonning kuzga kuringan institutlarida tashkil etila boshladi: CHikago, Garvard universtetlarida, Klivlend klinikasida va b.k. Klinik farmakologiyaning keyingi rivojlanishi nafakat ilmiy yunalishda, balki sanoatda xam uz kasini topa boshladi.

70 yillar oxirlarida farmakokinetika va farmakodinamika buyicha bilimlarni klinik amaliyotga joriy etish keskin usdi. Farmakokinetik ma'lumotlarni klinik amaliyotga qo'llashni kulayligini oshirish uchun matematik ifodalarga yondashuv takomillasha bordi. 1972 yilda Benet farmakokinetik modellarni ifoda etishda umumiy yondashuvni taklif etdi.

1978 yilda Gibaldi va Perrier «Pharmacokinetics» darslik kitobining birinchi nashri bosmadan chikdi, xamda bu kitob kayta nashr etildi va farmakokinetika buyicha diplomdan keyigi kurslarda undan xozirgi kunda xam foydalanib kelinmokda. Dori vositalarini ratsional dozalash uchun farmakokinetik ma'lumotlarni amaliyotga joriy etishga asoslangan terapevtik monitoring klinik amaliyotga tatbik etildi. Tor terapevtik diapozonga ega bo'lgan ko'p qo'llanadigan dorilar uchun monitoring o'tkazish buyicha tavsiyalar ishlab chiqildi. Masalan: digoksin, aminoglikozidlar, fenitoin, teofillin va boshqalar.



«Каждый больной по
различию сложения
своего требует
особого лечения.
Болезнь одна и та же.
Лечить надо не
болезнь, а больного».

Профессор
М.Я. Мудров (XVIII век)

Sobik ittifokda klinik farmakokinetikani rivojlantirishda L.E. Xolodov, V.P. YAkovlev, M.G. Glezer singari olimlar katta xissa kushdilar.

70-80 yillarda farmakogenetika buyicha izlanishlar davom ettirildi. Psixotrop dorilar ta'sirida genetik xususiyatlar borligi to'g'risida klinik ma'lumotlar takdim etildiki, ular retseptor

metabolizmi polimorfizmga asoslanganidir. (S.B. Seredin va b.k.). 80 yillarda V.G. Kukes va mualliflar dorilar metabolizmida oksidlanish va atsetillanishning anomal reaksiyalarini aniqladilar, keyinchalik jigarda metabolizmga uchratuvchi fermentlarni genetik polimorfizmini izoxlab berdilar.

70 yillar oxirlaridan boshlab farmakokinetika va farmakodinamika buyicha taxlillga populyasion yondashuv boshlanib, uning asoschisi Lyuis SHeyner (Lewis Sheiner) edi. Bu soxa dori terapevtik monitoringi rivojlanishi va dorilar klinik farmakologiya buyicha yordamchi ma'lumotlar beruvchi soxa sifatida rivojlana boshladi. 1991 yil va 1997 yillarda populyasion farmakokinetika va farmakodinamikaga bagishlangan xalkaro konferensiya, 1991 yilda esa FDA AKSHda «Populyasion farmakokinetika» buyicha sanoat uchun qo'llanmani bosmadan chiqardi.

60-80 yillarda yangi dori vositalarini klinik sinovdan o'tkazish uslublari rivojlana bordi. Insonlarga klinik tajriba o'tkazish koida va normativ xujjatlari ishlab chiqilib, uni tayyorlashda tajribadagi shaxslar xukukini ximoya qilish asos qilib olindi. SHu maksadda 1964 yilda butunjaxon tibbiyot assotsiatsiyasining Xelsinki deklaratsiyasi kabul kilindi va keyinchalik kayta kurib chikildi, xamda tuldirildi (1975, 1983, 1989 va b.k.).

1990 yilda EES tomonidan Butunjaxon soglikni saklash tashkiloti (VOZ) normativlvriga birlashtirilgan klinik amaliyot (GCR) yaxlit koidalari kabul kilindi. Dorilar xavfsizligini oshirish va sifatini davlat nazoratiga olishni kengaytirish maksadida ishlab chiqarish (GMP) va laborator nazorat (GLP) koidalari kabul kilindi.

1980 yilda klinik farmakologiya mustakil fan sifatida yuzaga keldi, xamda K.M. Lakin tomonidan tibbiyot oldiy ukuv yurtlarida ushbu fanni ukitish ma'muriy jixatdan rasmiylashtirildi. SHu vaqtdan boshlab 1-Moskva tibbiyot instituti (Mudir. V.G. Kukes), 2--Moskva tibbiyot instituti (mudir-YU.B. Belausov), Rostov tibbiyot institutida (mudir -N.N. Karkimenko), Volgograd tibbiyot instituti (mudri-V.I. Petrov), 1981 yilda Toshkentda 1-ToshMI bazasida farmakoterapiya kursi tashkil etilib (mudir. N.T. Tulaganov), keyinchalik 1982 yilda mustakil klinik farmakologiya kafedrasi tashkil topdi. Kafedra mudiri K.N. Nadjimutdinov- tajribali pedagog, tashkilotchi va uzoq yillar jigar monooksigenaza tizimini fundamental o'rganish buyicha ish olib borgan olim sifatida aytib utish lozim.

Kirish.

XXI asrga tibbiyot dori vositalarning keng kulami bilan kirib keldi. Jaxon farmatsevtik sanoati 10 mingdan ortik dorlar ishlab chiqarmokda. Bu dorilar barchasi xam samarali emas va xammasi keng ishlatilmaydi. SHunga karamay turli kasalliklarni davolash va oldini olishda xozirda shifokor ixtiyorida katta mikdordagi va xajmdagi dori vositalari mavjud.

Bu dorilar asosan XX asrda yaratilgan. 1930-40 yillarda yangi dorilarni yaratish jadal rivojlanib bordi. Bu davrni farmakologik revolyusiyaning boshlanish davri deb ataladi. Uning rivojlanishida umumiy ilmiy -texnik progressiya bilan birga, biologiya, fiziologiya, biokimyo, mikrobiologiya, kime va boshka fanlar tomonidan qo'lga kiritilgan ilmiy yangiliklar turtki bo'lib xizmat kildi.

Umuman XX asr XXI asrga ilmiy, farmakologik va dori vositalarga boy bo'lgan meros koldirdi. Ammo, ushbu merosdan samarali foydalanish xam oson emas. CHunki shifokor dori vositalari «urmonidan» shunday preparat tanlashi kerakki, u kasallik etiologiyasi, patogenezi va klinikasiga, eng muximi konkret bemorni davolashga mos kelishi kerak. bu oson emas. Dori vositalarining xar bir zamonaviy farmakologik guruxiga bir necha xil preparatalar kiradi. Garchi ular farmakodinamik xususiyatlari bilan uxshash bo'lsa xam, lekin farmakokinetikasi buyicha ancha fark kiladi. Dorilarni ratsional tavsiya etish uchun, shifokor zamonaviy farmakoterapiyaning umumiy prinsiplarini va oldida to'rgan konkret tibbiy muammoni bilishi kerak.

Xaar bir amaliyotchi shifokor u yoki bu darajada klinik farmakolog xisoblanadi. Etuk terapevt, klinik farmakologiyaning asoschilaridan biri B.E.Votchall tibbiyotning bu soxasiga «bemor tushagi yonida farmakologik fikrlash» deb ta'rif bergan edi. Dori vositalarining keng kulami orasidan ushbu bemor uchun eng kerak bo'lgan dorini tanlash uchun, shifokor ijobiy va salbiy (nojuya) tomonlarini, uxshash boshka (shu yoki boshka farmakoterapevtik gurux) dorilardan ustunligi, shu bemorga tavsiya etilayotgan boshka dorilar bilan o'zaro ta'siri, dozlash tartibi to'g'risida jiddiy fikr yuritishi zarur. SHifokorga bu muammolarni echishga klinik farmakologiya yordam berishi lozim.

Umumiy tibbiy usullarga kushimcha ravishda klinik farmakologiya maxsus usullar va asbob uskunalardan foydalanib, farmakokinetika (biosinguvchanlik, surilish, zardob oksili bilan boglanish, samara boshlanishi va tugashi, yarim chiqarilish davri va b.k.) ni, xamda o'rganilayotgan dorini xususiyatlarini ochib beruvchi boshka kursatkichlarni xar tomonlama o'rganadi.

YUqoridagi inkor etib bo'lmaydigan xolatlardan kelib chikib zamonaviy klinik farmakologiya shunga urgatadiki, bunda samarali farmakoterapiya o'tkazish uchun dori vositasiga tegishli barcha bilimlarni bemor organizmining individual xususiyatlari, uning tavsiya etilayotgan dori vositasiga reaksiyasi (ijobiy, salbiy) bilan umumlashtirib olib borishni talab etadi.

Farmakoterapiyanig ijobiy natijalari shifokorning «farmakologik fikrlashiga», uning sezgisiga va tuplagan shaxsiy tajribasiga bog'liq bo'ladi.

Klinik farmakologiya fani va vazifalari

Klinik farmakologiya mustakil tibbiy yunalish sifatida XX asrning birinchi yarmida paydo bo'ldi. Ammo zamonaviy kurinishda u utgan asrning 60 yillarida shakllana boshladi, chunki, xar bir bemor uchun dori bilan davolashga individual yondashuvsiz, xamda qo'llanayotgan dorilar samaradorligi va xavfsizligini baxolashning kulay, informativ va ishonchli usullarini amaliyotga kiritmasdan turib tibbiyotni keyingi rivojlanishi mumkin bo'lmastan koldi. Klinik amaliyotga ilgari qo'llanmagan, yangi dori vositalari samaradorligini klinik baxolashda yagona yondashuv tizimini yaratish xam dolzarb muammolardan biri bo'lib xisoblanadi, chunki XX asrning ikkinchi yarmiga kelib prinsipial jixatdan yangi, yuqori samarali DV lar guruxilarini yaratilishi va ularni tibbiyot amaliyotiga keng kirib kelishi boshlandiki, ular farmakologik faolligining to'liq ta'sir doirasini fakat klinik sharoitlardagina baxolash mumkin. Ushbu muammolarni traditsion tibbiy yunalishlar chegarasida echish imkoniyati yukligi, tibbiyot fanining yangi yunalishi-klinik farmakologiyani paydo bo'lishi va tezlik bilan rivojlanishiga sabab bo'ldi.

Xozirgi vaqtda, klinik farmakologiyaga odam organizmi bilan DV larini o'zaro ta'sir muammolarini o'rganuvchi, tibbiyot fanining bir bo'limii sifatida karalmokda.

Klinik farmakologiya-turli kasalliklar bilan kasallangan bemorlar fiziologik va patologik xolatlarida dori vositalari samaradorligi va xavfsizligi xususiyatlarini o'rganuvchi va farmakoterapiyani optimallashtirishga imkon beruvchi fandir.

Dori vositalarini turli maksadalarda tavsiya etiladi. Dori bilan davolash etiotrop, patogenetik, simptomatik, urinbosar yoki profilaktik bo'lishi mumkin.

Dori vositalarini tavsiya qilish maksadlari:

- **Etiotrop terapiya** kasallik sabablarini bartaraf qilishga yunaltirilgan davodir.
- **Patogenetik terapiya** kasallik rivojlanishi mexanizmlarini bartaraf qilish maksadiga karatilgan davodir.
- **Simptomatik terapiya** kasallikni ayrim namoyon bo'lish belgilarini kamaytirish yoki bartaraf etishga karatilgan davodir.
- **Urinbosar terapiya** tabiiy biologik faol moddalarni etishmovchiligida o'tkaziladigan davodir.
- **Profilaktik terapiya** kasallik kelib chikishi va rivojlanishini oldini olishga karatilgan davo turidir.

Konkret bemorni davolash oldidan shifokorga kuyidagi savollarga to'g'ri javob berish imkonini beradi:

- umuman ushbu bemorga dori vositasini tavsiya qilishim kerakmi;
- bemor xolatida dori vositasi orqali kanday uzgarishlarga erishmokchiman;
- kanday ma'lumotlar asosida tanlangan dori vositasi davolash oldiga kuyilgan vazifalarga mos tushishiga ishonch xosil qilishim mumkin;
- dori vositasini oldiga kuyilgan maksad amalga oshganligini kanday bilaman;
- dori vositasining zarur miqdorini kerakli joyda, kutilgan vaqtda va kerakli muddat mobaynida saklanishini ta'minlash uchun uni kanday yul bilan yuborishim kerak;

- bemorda dori vositasidan kuzatilishi mumkin bo'lgan nojuya samaralarni kandy aniklayman, baxolayman va oldini olaman;
 - dori vositasining kabul qilishni tuxtatishni bemorga tavsiya qilishni kandy aniklayman;
 - dori vositasining namoyon bo'lishi mumkin bo'lgan foydali samarasi uning zararli tasiridan ustivor ekanligiga ishonchim komilmi;
 - men tomonimdan qo'llanilayotgan terapiyaning foyda va xavf nisbatini bilamanmi.
- Fakat manna shu masalalarni echish orqali mantikan to'g'ri va samarali davolash o'tkazishga erishish mumkin bo'ladi.

Klinik farmakologiya bo'limlari:

- Dori vositalarining bemor yoki soglom kishi organizmiga ta'siri. Bu bo'lim klinik farmakologiyaning **farmakodinamika** bo'limi bo'lib, dori vositalari ta'sir mexanizmlari, ularning dozalash tamoyillari, tanlab ta'sir qilishi va boshkalarni uz ichiga oladi;
- Dori vositalarining surilishi, taksimlanishi, biotransformatsiyasi va chiqarilishi jarayonlari. Bu bo'lim klinik farmakologiyaning **farmakokinetika** bo'limidir;
- Inson organizmining dori vositalariga irsiy sezgirligi asoslarini klinik farmakologiyaning **farmakogenetika** bo'limi o'rganadi. Bunda irsiy omillarni dori vositasi farmakologik samarasini yuzaga chikishiga ta'siri o'rganiladi;
- Dori vositalari nojuya ta'sirlari;
- Turli omillarning dori vositalari farmakologik samarasiga ta'sir xususiyatlari.

Ushbu savollarni o'rganish, klinik farmakologlarga konkret DV ning farmakologik xususiyatlari xakida to'liq tasavvur paydo qilishga va u yoki bu kasallikni davolashda dorilarni eng samarali, xavfsiz prinsiplaridan kelib chikib, differensial qo'llash uchun tibbyot xodimlariga to'liq tavsiyalar berishga imkon beradi.

Klinik farmakologiyaning asosiy vazifalari:

- yangi dori vositalari klinik sinovini o'tkazish;
- kayta ishlab chikilgan dori vositalarini klinik sinovini o'tkazish;
- dori vositalarining ta'sir mexanizmlari va, yoki ularning kayta baxolash buyicha bilimlarni kengaytirish maksadida ma'lum dori vositalarini chukur klinik tekshiruvini o'tkazish;
- dori vositalarining u yoki bu kasalliklar terapiyasidagi urni va rolini o'rganish, xamda ular qo'llanishiga kursatmalarni kengaytirish yoki kayta kurib chikish;
- klinik amaliyotdan kam samarali va/yoki zaxarli dori vositalarini chiqarish;
- dori vositalarining qo'llashni yangi, samarali va xavfsizrok usul va sxemalarini o'rganish, ishlab chikish va keng klinik amaliyotga tadbik etish;
- ma'lum bo'lgan dori preparatlarining yangi dori shakllarini o'rganish, ishlab chikish va keng klinik amaliyotga tadbik etish;
- konkret bemor uchun dori vositasini tanlash;
- dori vositasining optimal yuborish usullarini tanlash;
- bemor uchun eng mos tushadigan dori shakli, uni organizmga yuborish usuli va rejimini tanlash;
- dori vositalari nojuya ta'sirotlarini oldini olish va ularni bartaraf etish;
- dori vositalari birgalikda qo'llanganda yoki ularni ovkat bilan o'zaro munosabatlari tufayli yuzaga keladigan nojuya ta'sirotlarni oldini olish;
- tibbiyot xodimlarini konkret dori vositalari klinik farmakologik xususiyatlari to'g'risidagi ma'lumotlar bilan ta'minlash.

Farmakodinamika klinik farmakologiyaning dori vositalarining (kutilgan va nojuya) samaralari majmuasi va ularning namoyon bo'lish mexanizmlarini o'rganuvchi bo'limidir.

1. Dori vositalarini ta'sir mexanizmlari

Ko'pgina DV organizmni fiziologik xususiyatlarini uzgartirish orqali davolovchi ta'sir kursatadi. Ma'lumki, turli DV ta'siri ostida organizmdagi turli tabiiy jarayonlar tezligi uzgaradi. Qo'zg'alish yoki susayish tabiiyki usha a'zo va to'qimalar faoliyatining mos ravishda kuchayishi yoki pasayishiga olib keladi. Natijada kasallik sababi bo'lgan patologik jarayonlarni organizmda kechuvi uzgaradi, xamda buzilgan funksiyalar mu'tadillashadi, kasallik simptomlarini orkaga kaytishi (regressiya) kuzatiladi.

I.Dori vositalarining ta'sir mexanizmlari:

- Maxsus retseptorlarga ta'sir qilish;
- Fermentlar faolligiga ta'sir etish;
- Xujayra membranasiga fizik – kimyoviy ta'sir qilish;
- To'g'ridan-to'g'ri (sitotoksik) ta'sir etish.

A.Maxsus retseptorlarga ta'sir qilish

Xujayra retseptorlari – makromolekulyar tuzilmalar bo'lib, ma'lum kimyoviy birikmalarga tanlangan sezgirlikka egadir. Dori vositasining retseptorlar bilan o'zaro ta'siri xujayra va butun organizm miqyosida biokimyoviy va fiziologik uzgarishlarga olib keladi, xamda farmakologik samara kurinishida namoyon bo'ladi.

Moddalar retseptorlarga ta'sir qilishiga qarab bo'linadi:

- **Agonistlar** – retseptorlarni to'g'ridan-to'g'ri qo'zg'atuvchi yoki ularni funksional faolligini oshiruvchi vositalar;
- **Antagonistlar** – maxsus agonistlar ta'siriga mo'nelik kiluvchi yoki retseptorlarni bloklovchi vositalar;
- **Bir vaqtda agonist va antagonist xususiyatiga ega bo'luvchi moddalar.** Bunda pirovord natija retseptorlarning dastlabki funksional faolliigi va moddaning agonist va antagonist xususiyatlari nisbatiga bog'liq bo'ladi.

Retseptorlarga nisbatan antononizm konkurent va nokonkurent xarakterda bo'lishi mumkin.

- Agar dori vositasi agonist modda bilan bir maxsus retseptorga nisbatan konkurent munosabatda bo'lsa, bunday antononizmga **konkurent antononizm** deb ataladi. Konkurent antononizm tufayli sodir bo'lgan retseptor blokadasini agonist moddaning (dori vositasi yoki tabiiy mediator) yuqori dozasi bilan bartaraf kilinishi mumkin.
- Agar dori vositasi maxsus retseptorga tegishli bo'lmagan, makromolekulaning boshka soxasini egallasa, bunday antononizmga **nokonkurent antononizm** deb ataladi.

Retseptorlar tabiiy mediator va antagonistlarga sezgirliklariga karab bo'linadi:

- **xolinoretseptorlar** - atsetilxolinga sezgir;
- **adrenoretseptorlar** – noradrenalinga sezgir. Adrenoretseptorlarning - α va β turlari ma'lum, ular esa uz navbatida xujayrada turli funksiyalarni bajaruvchi- α_1 va α_2 , β_1 va β_2 retseptorlardan iboratdir;
- **m- xolinoretseptorlar** - muskaringa sezgir. M-xolinoretseptorlar turli antagonistlarga sezgirligiga karab - m_1 , m_2 xolinoretseptorlarga bo'linadi;
- **n-xolinoretseptorlar** - nikotinga sezgir;
- **H₁ i N₂-retseptorlar** - gistaminga sezgir;
- **AT₁ i AT₂ retseptorlar** - angiotenzin II ga sezgir;

SHu bilan birga **dofamin, serotonin, opioid, glyukokortikoid retseptorlar** farkanadi.

Ko'pgina retseptorlar DV uchun nishon bo'lib xizmat kiladi. Bunda retseptor bilan boshlanish xususiyatlari (agonizm va antononizm) va ularni boglanish kuchi muxim bo'lib, ular ta'siri davomiyliigi va farmakologik samarani kaytarligini aniklab beradi.

SHuni e'tiborga olish lozimki, xujayra yuzasidagi retseptorlar miqdori, ularning sezuvchanliigi xama vaki xam doimiy va bir xil emas, xamda ko'pgina omillarga (to'qima jaroxati va b.k.),

jumladan DV ning uzini ta'siriga xam bog'liqdir. Agonist dorilarni uzoq vaqt qo'llaganda retseptorlarning funksional faolligi va (yoki) miqdori kamayishi mumkin, bu esa vaqt utishi bilan farmakologik samara pasayishiga olib keladi (tolerantlik). Antagonist dorilar ta'sirida retseptorlar miqdori oshishi mumkin; bu dori yuborishni darhol tuxtatgandan so'ng bekor qilish sindromi orqali namoyon bo'ladi.

2.Dori vositalarining fermentlar faolligiga ta'siri

- Ba'zi dori vositalari xujayra ichi va tashkarisidagi maxsus fermentlar faolligini oshiradi yoki pasaytiradi. Xujayra funksiyasini ta'minlashda uning universal adenilatsiklaza tizimi ustivor rol o'ynaydi. Ko'pgina dori vositalarining ta'siri aynan xujayra ichi siklik adenozinmonofosfat (sAMF) miqdorini omillovchi adenilatsiklaza yoki fosfodiesteraza fermenti faolligi bilan bog'liqdir;


- Dori vositalari fermentlarni kuchaytirishi yoki susaytirishi, ular bilan kaytar yoki kaytmas bo'lib o'zaro ta'sirotda bo'lishi mumkin. Bu esa farmakologik samarani namoyon bo'lish darajasi va davomiyligini xarakterlaydi.



3.Dori vositalarining xujayra membranasiga fizik – kimyoviy ta'sir qilishi

Dori vositalarining xujayra membranasiga fizik-kimyoviy ta'siri ionlarning membrana orqali transportini uzgartirishi xisobiga membrana elektrik potensialini uzgarishidan iboratdir. Bu esa nerv va mushak xujayralari faoliyatida muxim ahamiyat kasb etadi: sinapslar orqali nerv impulslarini utishi buziladi, xujayralar elektrik faolligi susayadi.

Antiaritmiklar, tutqanoqqa qarshi vositalar, umumiy va maxalliy anestetiklar manna shu tarzda ta'sir etadi.



4. Dori vositalarining to'g'ridan-to'g'ri (sitotoksik) ta'sir etishi

- Dori vositalari bevosita xujayraning uncha katta bo'lmagan molekulalari yoki xujayra ichi tuzilmalari bilan ta'sirotda bo'lib, xujayra xayotiy faoliyatini buzilishiga olib keladi.
- Dori vositalari ta'siri xujayra funksiyasini uzgarishi bilan bog'liq bo'lmisligi xam mumkin. *Antatsidlar ta'sirida xlorid kislotasining neytrallashuvi yoki yogli ich suruvchi dori vositalarining ta'siri bunga misol bo'la oladi.*

РИФАКСИМИН
механизм действия

Ингибирует синтез бактериальной РНК

Необратимо связываясь с бактериальной ДНК-зависимой РНК полимеразой

Prokaryote

Рифаксимин оказывает бактерицидное действие.

Gills J.C. et al. 1995
Vossen R. et al. 1992

B. Dori vositalarining tanlab ta'sir qilishi

Dori vositalarining tanlab ta'sir etishi ularning turli a'zo, to'qima va xujayralarda tanlab taqsimlanishi va to'planishi, xamda selektiv ta'sir mexanizmi orqali amalga oshadi.

Tanlab tasir etish xususiyati past bo'lgan dori vositalari

Bunday dori vositalari ko'pgina to'qima, a'zo va tizimlarga ta'sir etib ko'p sonli nojuyta ta'sirotlar keltirib chiqaradi. Xar kanday dori vositasi u yoki bu darajada keng spektrli ta'sirga ega bo'lib, kator istalgan va kutilmagan ta'sirotlar keltirib chiqarishi mumkin. U yoki bu retseptor, a'zo yoki patologik jarayonga absolyut ravishda tanlab tasir kiluvchi dori vositasi yuk.

Masalan morfin kuchli anatomik faollikka ega va narkotik analgetiklar guruxiga kiradi. SHu bilan birga u nafas olishni to'xtatadi, yo'tal refleksini pasaytiradi, uxlatuvchi ta'sir etadi, gistamin ajralishiga, qayt qilish, qabziyat, bronxospazmga sabab bo'ladi, antidiuretik ta'sir ko'rsatadi.

Tanlab tasir etish xususiyati nisbatan yuqori bo'lgan dori vositalari

Dori vositasining tanlab ta'sir etish xususiyati kancha yuqori bo'lsa, u shuncha yaxshi kabullanadi va nojuyta ta'sirotlar miqdori kam bo'ladi. Dori vositasining tanlab ta'sir kursatishi uning dozasi bog'liq. Uning dozasi kancha yuqori bo'lsa, tanlab ta'sir etishi shuncha kamrok namoyon bo'ladi.

Misol bo'lib N2 retseptorlarni uchinchi avlodi, N1 retseptorlarning uchinchi avlodi, M1-xolinoretseptorlar blokatorlari, K, Na –ATF aza blokatorlari xizmat qilishi mumkin. DV ni tanlab ta'siri ular dozalariga bog'liq bo'lib, mikdor kancha ko'p bo'lsa, tanlab ta'sir etish shuncha pasayadi. Jumladan selektiv beta adrenoblokatorlar asosan mikdorga ta'sir etadi, ammo miqdori oshirilganda bronxlar, qon tomirlar, me'da osti bezi va boshka a'zolarida joylashgan beta-2 retseptorlarga ta'sir etadi, xamda nojuyta ta'sirlar keltirib chiqaradi.

Virusga qarshi vositalarni, masalan, atsiklovirni ta'siri xam dozaga bog'liq: virus DNK polimerazasini tuxtatish miqdori inson organizmi xujayrasi DNK polimerazasiga ta'sir etish miqdoridan 3000 marta kam, shu sababli davolovchi mikdorlari zaxarli emas.

V. Dori vositalarining dozalari

Ko'pgina dori vositalarining ta'siri ko'p xollarda ular dozasi bilan aniklanadi-modaning bir marta kabul kilinadigan miqdori (bir martalik mikdor).Nafakat davolash samarasi, balki dorining bemor uchun xavfsizligi xam mikdorga bog'liqdir. Bir kator bemorlar uchun urtacha terapevtik mikdor (amaliyotda asosan ko'p ishlatiladigan mikdor) utarli emas va mikdor oshirilishi nojuyta ta'sirlarsiz kutilgan natijalarga erishishga imkon beradi. DV ga individual sezuvchanlik farmakokinetikani va farmakodinamikani uzgartiruvchi turli omillarga bog'liq: yosh, jins, tana ogirligi, MIY xolati, qon aylanishi, jigar va buyrak faoliyati, dori shakli, yuborish yuli, ovkat tarkibi va miqdori, metabolizm tezligi, boshka dorilarni birgalikda qo'llash va b.k. Agar organizmga dori vositasini terapevtik konsentratsiyasini darxol paydo qilish lozim bo'lsa, birinchi (boshlangich) mikdor keyingilaridan ko'p bo'ladi.

- **bir marotaba beriladigan doza;**
- **urtacha terapevtik doza** – amaliyotda eng ko'p qo'llaniladigan doza;
- Agar organizmda dori vositasining terapevtik konsentratsiyasiga tezkorlik bilan erishish kerak bo'lsa, dastlabki doza keyingi dozalardan katta bo'ladi. Bunday dozaga **yuklama doza** deyiladi;

Doza lotincha D xarfi bilan ifodalanadi va uning kuyidagi turlari farkanadi:

- **ushlab turuvchi doza-** qonda dori vositasining terapevtik konsentratsiyasini ushlab turuvchi doza;
- **sutkali doza** – bir sutka davomida beriladigan dori dozasi;
- **bir kursli doza** – bir kurs davolanish uchun beriladigan doza;
- **ostona (minimal ta'sir kiluvchi) dozasi** – dori vositasi farmakologik faolligini namoyon qilishi mumkin bo'lgan, minimal doza;
- **eng yuqori bir marotabali terapevtik doza** – urtacha terapevtik doza terapevtik samarasi etarli bo'lmagan xollarda qo'llaniladigan dori dozasi;
- **eng yuqori sutkali terapevtik doza** – urtacha terapevtik doza terapevtik samarasi etarli bo'lmagan xollarda sutka mobaynida qo'llaniladigan dori dozasi;

- **toksik doza** – organizm uchun xavfli bo‘lgan zaxarlanishni keltirib chiqaradigan dori dozasi;
- **samarali doza** – toksikologik tadqiqotlarda samara beruvchi dori dozasi;
- **letal doza** – letal okibatga olib keluvchi dori dozasi;

Sensibilizatsiya – organizmda dori vositasiga sezgirlikni oshishi.

Kumulyasiya - dori vositasini organizmda tuplanishi.

Kumulyasiya (organizmda tuplanish)- uzoq vaqt ta’sir etuvchi dorilarga xos bo‘lib, ular organizmdan sekin chiqariladi, masalan yurak glikozidlari.

Dori vositalari uzoq vaqt qo‘llaganda ularni tuplanishi toksik samarani rivojlanishiga olib kelishi mumkin. Dorilarni uzoq vaqt qo‘llaganda ularni tuplanib kolishi bilan bog‘liq toksik samarani oldini olish uchun dorilar miqdorini asta-sekin kamaytirish, dori kabul qilish oraligini uzaytirish yoki davolashda tanaffuslar qilib turish lozim.

Tolerantlik (o‘rganib qolish) – dori vositasining samaradorligini pasayishi.

Dori vositalariga tolerantlik:

- **nisbiy** - odatda tolerantlikning bu turi dori vositasining farmakokinetikasi uzgarganda (surilishni pasayishi, biotransformatsiya va ekskretsiya tezligini oshishi), qon plazmasida preparat miqdorini kamayishi tufayli ruy beradi;

- **absolyut** – tolerantlikning bu turi qon plazmasida preparat miqdorini kamayishi tufayli emas, balki dori vositasining, retseptor sezgirlikni pasayishi tufayli, xujayra darajasida ta’sirini uzgarishi natijasida sodir bo‘ladi.

Jumladan, bronxial-astmali bemorlarda beta 2 adrenostimulyatorlar bilan uzoq davolash bronxlar beta 2 adrenoretseptorlari sezuvchanligi va miqdorini kamayishi orqali ular ta’sirini pasayishiga olib kelishi mumkin.

Nisbiy tolerantlik bo‘lganda dori miqdorini oshirilishi lozim; absolyut tolerantlikda samaraning kuchayishiga olib kelmaydi, shu sababli dorini boshqa ta’sir mexanizmiga ega bo‘lgan vosita bilan almashtirish kerak.

Zaxarlanish (peredozirovka)

Zaxarlanish xavfi kuyidagi ikki kursatgichga bog‘liq:

- **terapevtik indeks** – LD50 ni ED50 nisbati;
- **terapevtik ta’sir kengligi** – preparatni minimal ta’sir kilduvchi konsentratsiyasi va uni zaxarli ta’sir qilishi mumkin bo‘lgan minimal konsentratsiya orasidagi interval.

Dori vositasi ko‘pgina bemorlarga ushbu miqdor chegarasida xavfsiz ekanligini terapevtik kenglik kursatib turadi. (ushbu vositaga sezuvchanligi yuqori bo‘lgan bemorlardan tashkari).

Dori vositalar nojuyta ta’sirlarini oldini olish uchun bemor organizmini xususiyatlarini xisobga olgan holda dorini kichik, lekin, terapevtik samara etarli bo‘ladigan miqdorda buyurish, uni ta’sirini va bemor kutara olishini kuzatib turish lozim.

G. Dori vositalari ta’sirini klinik baxolash

O‘tkazish muddatiga karab dori vositalari samarasini baxolash turlari:

- **taktik** – dori vositasining bevosita farmakologik samarasiga karab urnatiladigan mezonlar;
- **strategik** – farmakoterapiyaning uzoq muddatli natijalariga karab aniklanadigan klinik baxolash turi.

Dori vositasini samaradorligi, bemor kutara olishi, miqdori va davomiyligini patologik jarayon xususiyatlari, xamda uning dinamikasi aniklanadigan ob’ektiv mezonlarga bog‘liq bo‘ladi. YAngi laborator instrumental va morfologik usullarni joriy etilishi, xamda xisoblovchi texnikadan foydalanish dori vosita ta’sirini miqdor jixatdan baxolashda shifokorga keng imkoniyatlar ochib beradi.

YAngi dori vositalarini buyurishda u ushbu kasallikka kanda (etiopat, patogenetik, simptomatik) ta'sir kursatadiki, sub'ektiv va ob'ektiv simptomlar, laborator kursatichlar, funksional parametrlar dinamikasi kanda va kaysi muddatlarda uzgarishi, kachon va kanda kushimcha tekshirishlar o'tkazish to'g'risida shifokor to'liq tasavvurga ega bo'lish lozim.

Dori vositalarining ta'sirini ob'ektiv baxolash mezonlari:

Dori vositalari ta'sirini ob'ektiv baxolash mezonlari yuqori darajada kasallik xarakteriga bog'liqdir

Masalan, arterial gipertoniya AB ni ulchash eng muxim bo'lib xisoblanadi. Oxirgi vaqtlarda gipotenziv vositalar samaradorligini maxsus asboblarda yordamida sutkalik monitor o'tkazish orqali ishonchli baxolash imkoniyatlari paydo bo'ldi. SHuningdek, kuz tubi, EKG va markaziy gemodinamika kursatkichlaridagi uzgarishlarni xam kuzatib borish lozim. Siydik xaydovchilar ta'sirini o'rganishda diurez nazorat kilinadi, xamda elektrolitlarning kondagi va siydikdagi miqdori aniklanadi. YUrak etishmovchiligi va stenokardiya baxolash mezonlari etarlicha anik ishlab chikilmagan. Asoratlanmagan miokard infartida DV samarasini baxolash (ogriksizlantiruvchi vositalardan tashkari) kiyinrok.

- Farmakoterapiya ta'sirini ob'ektiv baxolashda **dori vositasining ta'siri boshlanishi kerak bo'lgan muddat** katta ahamiyatga ega; Masalan, agar q pnevmoniya bilan ogrikan bemorda tavsiya etilgan antibiotik 2-3 kun ichida tana xaroratini va upkadagi nam xirillashlarni kamaytirmasa, unda balgami bakteriologik tekshirish natijalariga asoslanib boshka antibiotik buyurish tavsiya etiladi.

- Dori vositasini bir marta yuborilganda xam uning klinik samarasini aniklash mumkin. Bunda fakatgina dori vositasiga bemor sezgirligi va u dorini kutara olishini baxolash mumkin; Jumladan, DV ilk dozasini yuborgandan so'ng yuzaga kelgan samara karam, masalan diuretiklar, dozani oshirish kerakligi aniklanadi.

- Dori vositasidan to'liq klinik samara uni qayta-qayta qo'llanganda erishiladi. Klinik samara organizmda dori vositasining statsionar konsentratsiyasi o'rnatilishiga ketadigan vaqt bilan, ta'sir mexanizmi xususiyatlari, xamda konsentratsiya va samara orasidagi munabatga qarab aniqlanadi; Masalan, kalsiy antagonistlarini gipotenziv samarasini plazma konsentratsiyasi paydo bo'lgandan so'ng, APF ingibitorlari va beta blokatorlarning gipotenziv ta'siri esa biroz uzoq vaqtdan keyin, ya'ni qon tomir tonusi regulyator mexanizmlariga ta'sir etish orqali to'liq namoyon bo'ladi.

Turli dori vositalari ta'sirini uzoq vaqt mobaynida o'rganish yuqori dolzarflik kasb etadi. Bunda dori vositalari ta'sir samarasining baxolash mezonlari sifatida davolashning uzoq muddatli natijalari olinadi:

- kasallik kechuvi va prognoziga ta'siri;
- asoratlarni rivojlanishi;
- xayot davomiyligini uzayishi;
- ulim darajasi.

D. Xayot sifati - dori vositalari ta'sirini baxolash mezonlari sifatida

Xayot sifati – xayot kechuvi uzgarishlarini aks ettiruvchi, uz ichiga jismoniy, ruhiy, ijtimoiy va ma'naviy sog-salamatlik, jumladan ijtimoiy munosabatlar va funksional kobiliyatlarni oluvchi kursatkichlar majmuasi.

Dori vositalari ta'sirini klinik baxolash yunalishlaridan biri ularni bemorlar xayoti sifatiga ta'sirini urnatishdir. Ko'p xollarda xayot sifati kursatkichlarida uncha yuqori uzgarishlar bo'lmaydi, ammo bu uzgarishlar xam terapiya natijalariga ta'sir qilishi mumkin.

Uzoq vaqt davomida doimiy davolashni talab etuvchi surunkali kasalliklarda (revmatoidli artrit, kandli diabet, bronxial astma, AG) xayot sifatini baxolash muxim bo'lib xisoblanadi.

Dori vositalarni farmakokinetikasi

Farmakokinetika klinik farmakologiya bo'limi bo'lib, organizmda dori vositalarini surilish, tarkalish, boglanish, biotransformatsiya va chiqarilish jaraenlarini o'rganadi.

Farmakokinetika-farmakologiyani nisbatan yangi bo'limi bo'lib xisoblanadi. Dori vositalarini biologik muxitlarda aniqlashning yuqori sezuvchan usullarini-gazasuyuklik xromatografiya, radioimmun, ferment-kimyoviy, xamda farmakokinetik jarayonlarni matematik modellashtirish usullarini, ishlab chikilishi va amaliyotga joriy etilishi tufayli rivojlana boshladi.

Farmakokinetik tekshirishlar analitik ximiklar, provizorlar, biologlar tomonidan o'tkaziladi, ammo ular shifokorlar uchun juda foydali bo'lishi mumkin. DV organizmdagi farmakinetik jarayonlarini umumiy sxemasi 2- rasmda keltirilgan.

U yoki bu vositani farmakokinetikasini o'rganish asosida dozalar, samarali yuborish yullari, dozalash tartibi, davolash davomiyligi aniqlanadi. DV ni biologik suyuqliklardagi mikdorini doimiy nazorat qilib turish davolash uz vatida olib borishni ta'minlaydi. Farmakokinetikaning asosiy prinsiplarini bilish, ulardan amaliyotda foydalana olish bir vaqtda bir necha dori foydalanishda, jigar va buyrak kasalliklari bilan kasallangan bemorlarni davolashda, xamda davolash samarasizligi noaniq bo'lganda yoki bemor dorini kutara olmaydigan vaqtlarda juda askotadi. YAngi dori vositalarini va ularni dori shakllarini yaratishda, xamda dorilarni eksperimental va klinik sinovlardan o'tkazishda farmakokinetik tekshirishlar zarurdir.

1. Dori vositalarini yuborish yullari

Dori vositasi ta'sir etish joyiga tushishi (masalan, yalliglanmsh uchogiga) va umuman davolash samaradorligi ularni yuborish yuliga bog'liq bo'ladi. Xamma yuborish yullari ma'lum bir ustunlik va kamchilikka ega, turli patologik jarayonlarni davolashda yuqori samaraga erishish uchun ularni bilish lozim.

Ko'pincha dorilar enteral yuboriladi.

- ichishga (per os)
- til ostiga
- bukkal
- rektal (per rectum)

Bu usulning parenteral usulga karaganda ustunligi kullashning kulayligi (tibbiyot xodimi yordami kerak emas), xamda nisbatan xavfsiz va asoratlarning yo'qligidir. Enteral yuboriladigan DV xam maxalliy (bir kator mikrobga karshi, zamburuglarga karshi) xam umumiy ta'sirga egadir.

Parenteral yuboriladigan DV me'da-ichak yulini aylanib utib organizmga etib boradi.

- vena ichiga
- arteriya ichiga
- mushak orasiga
- teri ostiga
- intratekal (endolyumbal, intraventrikulyar, korin bushligiga, plevra bushligiga, absess bushligiga va b.k.);
- peridural
- maxalliy (teriga, konyuon'yuktivaga)
- ingalyasion

Implantatsiyalovchi dozatorlar va pompalar yordamida yuboriluvchi dori shakllari xam ishlab chiqilgan.

Как устроен Нифекард XL


1 фаза: гранулы с НФ

- 0 - аморфное в-во- НФ
- 1 - в-во с активной поверхностью
- 2 - водорастворимый полимер
- 3 - целлюлоза


2 фаза: гель-матрикс

3 фаза

- Наружный слой
- Внутренний слой



Дозированное высвобождение активного вещества микросферы Оликард® 40 ретард



через 1 час
27 %

через 4 часа
70 %

через 8 часов
90 %

Ог'из орқали ichish (per os)

Ichki a'zolar kasalliklarini davolashda ichak va me'da shillik kavatlarini orqali yaxshi suriladigan dori vositalarini og'iz orqali buyurish tavsiya etiladi. Agar DV ni yuqri konsentratsiyasini MIY da xosil qilish zarurati tugilsa, unda yomon suriladigan DA ga murojaat kilinadi va sistem nojo'ya ta'sirlardan xoli bo'lgan kerakli maxalliy ta'sir olishga imkon tug'iladi.

Masalan, ichakni dekontaminatsiyasiga aminoglikozid antibiotiklarni yuborish orqali erishiladi; surilmaydigan antatsidlarni kullanishi va b.k.

Bir kator kasalliklarni og'ir kechishida, masalan, dizenteriya-DV konsentratsiyasi xam ichak bushligi va qonda yuqori bo'lishiga erishish lozim.

Ichishga erima, kaynatma, damlama, xap dori, tabletka, kapsula singari DV shakllaridan foydalaniladi. Bir kator DV larni me'da shillik kavatiga kitiklovchi ta'sirini kamaytirish

maksadida, me'da shirasi ta'siriga chidamli bo'lgan, ammo ichak ishkoiiy muxitida eriydigan plenkalarga uralgan dori shakllari ishlatiladi.

Sistem samara olishga erishishda og'iz orqali yuborishning kamchiliklari:

-terapevtik samaraning nisbatan sekin boshlanishi

-surilishning tezligi va tulikligi urtasida individual farkning katali

-surilishga ovkat va dorilarning ta'siri;

-me'da va ichak shillik kavati orqali yomon suriladigan (masalan, streptolmitsin), me'da va ichakda (insulin, oksitotsin) yoki jigar orqali utganda (garmonlar) parchalanadigan, xamda MIY kuchli kitiklovchi ta'siriga ega bo'lgan vositalarni kullay olmaslik;

-kayt kilishda, me'da-ichak yulidan kon ketganda va bemor xushsiz yotganda og'iz orqali kullash imkoni yo'qligi;

SHuni unutmashlik kerakki, bemorlar tomonidan yotgan xolda tabletka yoki kapsulani iste'mol qilganda ayniksa, peristaltika buzilgan kariyalarda, ushlanib b kolishi va yara chakirishi mumkin.

Buni oldini olish uchun tabletka va kapsulalarni ko'p mikdordagi suyuklik Bilan tavsiya etiladi. Ichishga beriladigan dorilarning ta'sir etuvchi moddasini MIY da asta-sekin ajralib, terapevtik ta'sirni uzaytiruvchi maxsus shakllari mavjud. Ular asosida maxsus texnologiyalar mavjud bo'lib, dori moddasini doimiy tezlikda uzok vaqt (slow release, extended release) ajralishini ta'minlaydi. DV ni retard shakllarini, agar bo'laklovchi chizik bo'lmasa, bo'lish kerak emas, chunki ularning xususiyati uzgaradi. Retardlashning turli texnologiyalari yordamida uzok ta'sir etuvchi vositalarning turta shakli yaratilgan.

-12 va 24 soatli ta'siriga ega bo'lgan moda va biopolimer katlamidan iborat Retard tabletkalari (slow- release, extended release) quyidagilar uchun ishlab chiqilgan: kalsiy antagonistlari(nefidipin SR, felodipin ER, diltiazem SR), teofillin, indapamid, NPVS(dillopenak), β -adronoblokatorlar nitratlar(izosarbid dinitrati, izosorbid mononitrati), pentoksifillin, xinidin(xinidin sulfat), novokainamid(prokainamid gidrokslorid), (metoprolol, oksprenelol);

-Retard kapsulalari(12 va 24 soat ta'siriga ega biopolimer qatlamli mikrogranula moddalari bilan eritiladigan) quyidagi davolash xususiyatlariga ega: *kalsiy antogonistlari(diltiazem PP, isradipin SRO, vervpamil SR), NPVS(diklofenak), β -adronoblokatorlar(propronolal);*

-Ikki fazali 12 soatli ta'sir kuchiga ega retard tabletkalari tez va sekin eruvchan moddalar fraksiyasiga ega va *nifedipin SL* bilan ko'rsatilgan.

-Oshkozon-ichak terapevtik tizimi- 24 soat ta'sir

Sublingval va bukkal

Og'iz bushligi shillik kavati keng kon aylanish tizimiga ega, shu sababali u orqali suriladigan dori vositalari kon aylanish tizimiga tez utadi va ta'sir eta boshlaydi.

DV sublingval berilganda meda shirasi ta'siriga uchramaydi va jigarni aylanib utganligi sababli biotransformatsiyalanmaydi. Odatda ko'p xollarda stenokardiya xurujini bartaraf etish uchun nitrogilitserin, gipertonik krizlarda esa nifedipin va klofilin sublingval kullaniladi

DVni tez-tez sublingval kullaganda og'iz bushligi shillik kavati ta'sirlanishi mumkin.

DV ni og'iz bushligi shillik kavati orqali yuborishni boshka kurinishi bukkal yuldir. Buning uchun maxsus dori shakllaridan foydalaniladi, ulardan biritez surilishni ta'minlasa, boshkasi ta'sir davomiyligini uzaytiradi. Misol bo'lib nitrogilitserinning bukkal shakli bo'lgan trinitrolong xizmat kiladi, u tagtay shillik kavatiga yopishtiriladigan biopolimer asosidagi moddadir.

Rektal (tugri ichak) yuborish

Tugri ichak kuyuk kon va limfa tomirlar tizimiga ega. SHu sababli ko'pgina DV (ayniksa, ionlashmagan va yogda eriyodigan birikmalar) uning shillik kavati yuzasidan yaxshi suriladi. Tugri ichak pastki kismidan suriladigan DV jigarni aylanib utib, pastki gemorraidal venalar orqali kon aylanish tizimiga utadi.

Svechalar (rektal suppazitoriyalar) va suyukliklar xukna yordamida rektal yuboriladi. DV larni bu yuborish usuli maxalliy (masalan, yarali kolitda) va tizimli samara olish uchun ishlatiladi.

Bu yulning kamchiliklariga surilish tezligining va tulikligining individual uzgarib turishi, psixologik xarakterdagi kiyinchilik va kullashning nokulayligi (ishda, sayoxat chogida va b.). kiradi.

Dorilarni rektal yuborish me'da shillik kavatini ta'sirlanishidan saklaydi. Bundan tashkari, DV og'iz orqali yuborish kiyinlashgan yoki mumkin bo'lmagan xolatlarda (kungil aynishi, kayt kilish, kizilungach spazmi yoki tutilishi) rektal yuboriladi.

Vena ichiga yuborish

DV ni vena ichiga yuborish tez samara olish, aniq dozalash, nojo'ya ta'sirlar yuzaga kelganda dori yuborishni tezda tuxtatishga, shuningdek me'da shillik kavatini ta'sirlantiruvchi va MIY dan surilmaydigan vositalarni yuborishga imkon beradi.

Kullardan tilgacha kon kelish vaqti 13+3 soniyani tashkil etadi. Ko'pgina DV uchun, shunday siklning 4-5 marta kaytarilishiga teng vaqt, dorining konda bir tekisda tarkalishi uchun etarli bo'ladi. SHunday qilib vena ichiga yuborish dorini terapevtik samarasini yuzaga chikishini ancha tezlashtiradi.

Vena ichiga DV ni yuborishda extiyot bo'lish lozim, chunki dori moddalarini vena atrofidagi tukimalarga tushishi ularni kattik ta'sirlantirishi va xatto nekroz chakirishi mumkin. Bu usuldan uzok vaqt foydalanish venoz tromboz rivojlanishiga olib kelishi mumkin. Vena ichi in'eksiyalari gepatit V va OITS yukishining asosiy yullaridan xisoblanadi.

Arteriya ichiga yuborish

Bir kator kasalliklarni (jigar, oyok-kullar, yurak) davolashda kullanadigan, tez metabolizmlanadigan yoki tukimalar bilan boglanadigan dorilar arteriya ichiga yuboriladi.

Masalan, trombolitiklarni intrakoronar yoki antibiotiklarni intrakarotid yuborish.

Bunda tizimli ta'siridan kochib, dorining faqat kerakli a'zodagi yuqri konsentratsiyasini xosil kilishga erishiladi.

SHuni esda tutish kerakki, arteriya trombozi vena tromboziga Karaganda juda jiddiy asorat bo'lib xisoblanadi.

Mushak orasiga yuborish

Dorini mushak orasiga yuborish samarani nisbatan tezrok yuzaga chikishini (eriydigan moddalar 10-30 dakika ichida suriladi) ta'minlaydi.

SHunday qilib, urtacha ta'sirlantirish xususiyatiga ega, xamda depo dorilarni yuborish mumkin bo'ladi.

Dorilarni mushak orasiga yuborish maxalliy og'riq va xatto abscess chakirishi mumkin.

In'eksiyalarni asab tugunlari yakinigga yubormaslik lozim, chunki ta'sirlantiruvchi moddalar asab tolalarini jaroxatlashi mumkin, natijada kuchli og'riq, ba'zan mushak falajlanishiga olib keladi. Ninaning qon tomiriga tasodifan tushib kolishi xavfli xisoblanadi.

Teri ostiga yuborish

Teri ostiga yuborishda dori moddalarini surilishi vena yoki arteriya ichiga yuborishga karaganda ancha sekin, tabiiyki, terapevtik samara xam shunga mos bo'ladi. Ammo, dorini yigilishi tufayli samara xam uzok saklanadi.

Periferik qon aylanish etishmovchiligida (masalan, shokda) teri ostiga yuboriladigan moddalarning surilishi xam yomonlashuvini esda saklash lozim.

Ingalyasion yuborish

DV ingalyasion yuborishda, ularning lipofilligidan kelib chikib, moddalar tez surilib xam maxalliy va tizimli ta'sir etadi.

DV ni ingalyasion yuborish surilish vaqtini tezlashtiradi, nafas tizimiga tanlab ta'sir kursatishini, xamda gazsimon va uchuvchan moddalarni yuborishni ta'minlaydi.

Ingalyasion dori vositalarini kuyidagi kurinishda yuboriladi:

-Aerozol(β -adrenomimetiklar, kortikosteroidlar, antibiotiklar);

-Gazlar (uchuvchan)onasteiklar, gazsimon dori vositalarini(narkoz uchun efir, ftoratan) yuborishni yagona yuli ingalyasion usuldir;

-Parashok(xromoglikatlar, kortikosteroidlar).

U yoki bu natijaga erishish dori vositani bronxial tizimga (bronxlar , bronxiolalar, alviolalar) utish darajasiga bog'liq. Agar dorilar bo'lakchalari alviolalarga utudigan bo'lsa, ingolyasion yuborish surilishni tezlashtiri mumkin, chunki alviola katta yuzaga ega va surilish nozik devorlar orqali amalga oshiriladi.

Masalan, nitroglicirin ingolyasion yuborishda, enteral usuldan fark qilib, bevosita qon aylanish tizimiga utadi.

DVni nafas tizimiga tanlab ta'sir etishiga erishish uchun, masalan, bronxial astmani davolash uchun, dorini asosiy kismi urta va kichik kalibrli bronxlarga tarkalishi kerak. Umumiy samarani yuzaga kelish extimolliigi umumiy qon aylanishiga tushgan mikdoriga bog'liq.

Ingalyasion yuborish uchun maxsus moslamalardan foydalaniladi:

-Gaz propellen saklaydigan dozalovchi aerzolli ingalyator;

-Nafas bilan faollashtiriladigan kuruk parashoksimon moddalar yuborish uchun ingalyator (turbuxaler);

-Nebo'layzer.

Bunda DVni kirishi dori bo'lakchalari ulchamiga, ingalyasiya texnikasi va nafas olish xajmi tezligiga bog'liq. Ko'pgina aerzoli ingalyatorlarni kullashda DVni umumiy dozasidan 23-30%gina nafas tizimiga tushadi (respirabelli fraksiya). DVning kolgan kismi og'iz bushligi va xalkumda ushlanib koladi, keyinchalik umumiy, ko'pincha nojo'ya ta'sir keltirib chiqaradi.

DV va taom orasidagi uzaro ta'sirot yul kirralidir. Ammo shu bilan birga bu munosabatni 5 turini farklash mumkin:

1. DV ni taom va xazm shiralari bilan uzaro ta'siroti.
2. Taom va xazm kilish jaraenini DV surilishiga ta'siri.
3. Taom farmakologik tartibiy kismalarining DVlari bilan uzaro farmakologik ta'siroti.
4. Ovkatlanishning DV metabolizmiga ta'siri.
5. DV ning ovkat moddalari bilan antagonizmi.

DV lari me'da ichak traktida (MIT) taom tartibiy kismalari bilan kimeviy va fizikaviy ta'sirotida bulishi mumkin. Ovkatlanish rejimi kabul kilinaetgan DV lari ta'sirotini sezilarli, ba'zida esa juda kuchli uzgartirishi mumkin. Masalan: sutli taomdan (sut.tvorog, sutli taomlar) sung kabul kilingan tetratsiklinlar kalsiy ionlari bilan kam suriladigan xelatli birikmalar xosil kiladi, xamda ularning mikrobgga karshi ta'siri susayadi. Probirka sharoitida utkazilgan izlanishlar xlorotetratsiklinni Sa ionlari bilan 52,7%, tetratsiklin va metatsiklinni 39,5% boglanish kursatadi. Tetratsiklin ichakda 2 va 3 valentlik metallar bilan surilmaydigan xelat komplekslar xam xosil kiladi. Tetratsiklinni temir surilishini kamaytirib, anemiya keltirib chikarishi ana shu ta'sirot bilan boglikdir.

Noorganik temir tetratsiklin guruxi preparatlari bilan berilganda ularning kondagi mikdori kamayishi kuzatiladi, jumladan tetratsiklini mikdori-50% ga, doksitsiklinni mikdori xatto-90%.

Ovkatdan keyin kabul kilinga Sa preparatlari me'dada taomdagi mavvel, sirka va N_2SO_3 kislotalari bilan, ichakda esa eg kislotalari bilan emon eriydigan va kam suriladigan chukma xosil kiladi. SHuning uchun Sa li preparatlar ovkatdan 30 min. oldin kabul kilish tavsiya kilinadi.

Dorivor usimliklarda uchraydigan kupgina amiloidlar (papaverin, atropin gruppasi, kodein va boshkalar) choy va mevalarda uchraydigan tanin bilan kiyin eriydigan va uz navbatida surilmaydigan birikmalar xosil kiladi. SHuning uchun bu preparatlarni choy eki meva sharbatlari bilan ichish man kilinadi. Tarkibida oltingugurt saklaydigan ozik maxsulotlari (tuxum) sulfanilamidlar bilan metgemoglobin xosil kiladi.

Kupgina DV larining strukturasi, dissotsiatsiya darajasi va surilishiga me'da.HCl (xlorid kislotasi) ingichga ichakning me'da osti bezi shirasi va ichak bezlari shirasi chikarilgandan sung buladigan ishkoriy muxiti, xamda xazm shirasi fermentlari turli ta'sir kursatadi.

Eritromitsin, linkomitsin kislotaga sezgir bulib, me'dada uning kislotaviy shirasi ta'sirida tez parchalanadi va mikrobgga karshi ta'siri yukoladi.

Kislota muxitida oleandomitsin va sikloserin xam kisman parchalanadi. Safro egda eruvchan DV vositalarning eruvchanligini oshiradi, ya'ni grizeofulvin, veroshpiron, spironolakton, ba'zi antigelmint vositalar. Natijada ularning surilishi tezlashadi. Bu dori vositalari ovkatdan sung kabul kilinishi maksadga muvofikdir, chunki taom kabul kilinishi saproni chikishini kuchaytiradi. SHu bilan bir katorda sapro ba'zi DV bilan emon eruvchi va suriluvchi komplekslar xam xosil kilishi mumkin. Bularga neomitsin, polimiksin, nistatin kabi preparatlar kiradi. SHuning uchun bu preparatlarni ovkatdan oldin kabul kilinishi tavsiya kilinadi.

DV ni taom xazm shirasi bilan uzaro ta'siroti xususiyatlari tugrisidagi bilimlar va ularni tugri interval orasida kullashga rioya kilish. DV larini parchalanib ketishidan asraydi xamda ogiz orkali berilganda maksimal surilish va farmakologik faolligini ta'minlaydi.

Taom va xazm jaraenining dv surilishiga ta'siri.

Agar DV ogiz bushligini shillik kavatida surilsa (sublingval, bukkal va boshka yullar), unda DV ni ogiz bushligida tulik surilguncha ushlab turish kerak (validol, nitroglitserin, trinitrong, korinfar va boshkalar). Achchik moddalar sok ajralishini stimulyasiya kiladi, shuning uchun ularni DV dan oldin beriladi, ogizda biroz vakt ushlab turish tavsiya kilinadi, chunki bu ta'm bilish retseptorlarini kuzgatadi.

Oshkozonda DV surilishi chegaralangan. Surilishni asosiy joyi ingichka ichakni yukori kismi xisoblanadi. DV ni surilishiga kator fiziologik faktorlar ta'sir kiladi: oshkozondan evakuatsiya tezligi, ichak peristaltikasi, oshkozon va ichak RN muxitini uzgarishi, surilish vaktida uzini maksimal axamiyati, kon aylanishi, shillik kavat axvoli va boshkalar.

Masalan, ovkat penitsilinlar, tetratsiklinlar, sefalosporinlarni oshkozon ichak traktida surilishini kamaytiradi. SHuning uchun ovkatdan 1 soat oldin buyuriladi. CHunki, och koringa va ovkatdan oldin oshkozon muxiti neytralga yakin buladi, bu vaktida kislota sharoitiga turgun bulmagan vosita buyurish maksadga muvofikdir. Ovkatdan 1 soat oldin kabul kilingan DV oshkozondan evakuatsiya kilinadi va ichakda ovkat kelguncha va oshkozon sekretsiyasi ajralguncha suriladi. DV si ovkatlanish orasida xam yaxshi surilishi mumkin (ovkatdan 2 soat oldin yoki 1-1,5 soat ovkatdan keyin).

Oshkozonda va ichakda DV ovkatning oksillari bilan xam boglanishi mumkin. Masalan: aspirin 50% oksillar bilan boglanadi, bu esa uning surilishini 2 marotaba kamaytiradi. Aspirinni ovkatdan 30 minut oldin ichish kerak. Oshkozonni shillik kavatini ta'sirlanishini kamaytirish uchun tabletvani maydalab, yarim stakan suv, ishkoriy suyuklik yoki kraxmalli suyuklik bilan ichish zarur. SHuni aytish joizki, ovkat DV larini surilishini kuchaytirishi xam mumkin. Masalan: egda eriydigan vositalar ovkatdan keyin yaxshi suriladi, safro ta'siri ostida (grizeofulvin, nitrofurantoin, metronidazol va boshkalar), riboflavinni surilishi ovkatdan keyin kabul kilinganda 2 baravar oshadi.

Agarda ovkatda oksil mikdori kup bulsa, sulfanilamidlar yukori darajada ular bilan boglanadi, ayrim yurak glikozidlari, bevosita antikogulyantlarni surilishi susayadi.

Masalan: sulfodemetoksin 40-60 minut ovkatdan oldin ichilsa tez va tulik suriladi, ovkatdan keyin kabul kilinganga nisbatan.

Bunga yana kupgina misollar keltirish mumkin, lekin yukoridagi misollardan kelib chikadiki, ovkat xazm bulishi DV ni surilish tezligiga va tulikligiga xar xil ta'sir kursatadi. SHuning uchun DV ni ovkat bilan kabul kilish tavsiyalariga e'tibor berish kerak.

Ovkatni farmokologik aktiv kismlarini DV bilan farmokologik uzaro ta'siri.

Ovkat maxsulotlari tarkibidagi farmokologik aktiv moddalar DV larni terapevtik effektini uzgartirishi mumkin. Ovkat maxsulotlari vitamin K ga boy bulsa (shpinat, salat, ok karam) ular bevosita antikogulyantlarni ta'sirini ancha susaytiradi, antogonizm natijasida.

Ovkat tarkibida kup ishkoriy ekvivalentlar saklasa (sut, sut maxsulotlari ,sabzavot-mevalar) kislotali DV ni ta'sirini susaytirib , organizmdan tez chikib ketishiga sabab buladi.(Aspirin, butadion, fenobarbital). Aksincha, ovkat kislotali ekvivalentlarga boy bulsa, kislotali DV lar ta'siri ortadi.

Spirtni ichimliklar DV larni effektiga manfiy ta'sir kiladi. U gistaminni, uxlatuvchi DV, aminazin, trankvilizator va ayrim neyroleptiklarni ta'sirini kuchaytiradi, barbituratlarni toksik ta'sirini 50% ga oshiradi, tavegilni ta'sirini uzgartiradi, furozolidon, metronidazol kabul kilaetgan bemorlarda kungil aynish, kusish, umumiy axvolini yomonlashishiga (antabus effekti) olib keladi.

SHuning uchun DV lar spirtni ichimliklar bilan birga kabul kilish man e'tiladi, chunki bu bemor organizmiga xavf tugdiradi.

Ovkatni DV lar metabolizmiga ta'siri.

Organizmdagi DV ni biotransformatsiya jarayoniga ovkatlanish xarakteri, aynan oksillarni mikdori va sifati ta'sir kiladi.

Birinchiidan, ovkat metabolizmi tuzilishi barcha komponentlarini tiklash uchun asosiy ta'minlovchisidir.

Ikkinchiidan, kupgina ozika moddalar va ularni metabolitlari xuddi DV laridaka transport va bir xil fermentlar ta'sirida fermentativ uzgarishga uchraydi.

Uchinchiidan, ovkatlanish buzilishida DV metabolizmi susayadi.

Masalan: distrofik bolalarda antipirin, teofillin, levomitsetinni yarim chikarilash davri oshadi, metabolizmni intensivligini susayishi natijasida.

Bizning kafedrada utkazilgan ilmiy ishlar natijasi shuni kursatdiki, och kolgan paytda jigardagi DV ni metabolizlovchi aktiv fermentlar miqdori kamayadi, DV larni biotrasformatsiyasi sekinlashadi va bu uz navbatida jigarda metabolizmga uchraydigan DV larni ta'sirini oshiradi va toksik ta'sirga olib keladi. Ovkatdagi yog va vitamin miqdorlari katta ahamiyatga ega. Masalan: A, S, V gurux vitaminlari defitsiti DV larni jigardagi metabolizmini keskin susaytiradi.

SHunday kilib, DV larni kullaganda, nafakat ovkatlanish rejimiga balki tarkibiga xam katta ahamiyat berish kerak.

Ovkatlanish moddalarini DV larga nisbatan antoganizmi.

DV uz navbatida organizmga zarur bulgan ovkat moddalarini surilishini, metabolizmini susaytirishi mumkin. Goxida distrofik va endogen etishmovchilik sindromiga olib kelishi mumkin.

Masalan: uzak vakt surgi dori kabul kilinishi gipokaliemiya, kalsimiya va oksil etishmovchiligiga olib kelishi mumkin. Ioniazid - vitamin V6 etishmovchiligiga olib keladi, natijada markaziy va periferik nerv sistemasi shikastlanadi. SHuning uchun izoniazid kabul kilgan bemorlarga kushimcha 100-400mg vitamin V6 va nikotin kislota tavsiya etiladi.

Ichishga beriladigan kontratseptivlar vitamin V1, V6, V12, askorbin kislota va folat kislotalarni surilishini kamaytiradi. SHuning uchun, depressiyani kamatirish uchun oral kontratseptivlar kabul kelaetgan aellarga folat kislota, vitamin V6 (20-25 mg\kuniga. 4 xafta ichida) kushimcha ichish tavsiya etiladi.

A\b uzak vakt kullanilganda, ovkat maxsulotlariga antagonizm bilan kechganda, kushimcha V gurux vitaminlarini, vitamin RR va folat kislotalarni kullash lozim.

Pastda DV bilan ovkatni fiziologik ta'sirini va DV bilan ovkatni surilish jarayoniga ta'sirini jadvallari kursatilgan.

Amaliy mashgulotlarda sizlar metodik kullanmalar bilan tanishib chikishingiz mumkin, u erda turli DV ga tegishli konkret ma'lumotlar berilgan, shuningdek aloxida preparatlarniki xam.

Masalan:

- ishtaxani stimulyasiya kiluvchi moddalar (achchik, podorojnik soki va boshk.) ovkatdan 30 minut oldin buyuriladi

- oshkozon sekretsiyasi etishmovchiligida urinbosar terapiya moddalari (solyan kislotalari, abomin, tabiiy oshkozon soki va boshk.) ovkat vaktida kabul kilish maksadga muvofik

- ut xaydovchi moddalar, allaxoldan tashkari(xolagon, xolasas, ut xaydovchi utlar yigindisi, makajuxori popugi) ovkatdan 30 minut oldin kabul kilinadi. Ular ovkatdan oldin un ikki barmokli ichakka tushib, ut ajralishini kuchaytiradi.

- antatsid, urab oluvchi preparatlarni ovkatdan 30 minut oldin berish tavsiya kilinadi

- tuzli bushashtiruvchilar (magneziya sulfat, karlovarovski tuzi) ni ta'siriga tez erishish uchun ertalab naxorga beriladi, usimlik bushashtiruvchilarini (reven, krushina bargi, senna) uykudan oldin kabul kilsa buladi

- kalsiy preparati ovkatdan 30 minut oldin

- oshkozon shillik kavatini ta'sirlovchi mineral tarkibga ega preparatlar, kaliy tuzlari (KSL, asparkam), natriy yodit, brom, temir ovkatdan keyin buyuriladi

Ikkilanish xollarida, agarda DV ni kachon kabul kilish tugrisida anik ma'lumot bulmasa-ovkatdan 30-40 minut oldin suyuqlik va suspenziya yoki tabletkani maydalangan xolida buyurish tavsiya kilinadi.

Oshkozon va ichaklarni shillik kavatini ta'sirlanishini oldini olish uchun, ba'zi bir DV lar ovkatdan oldin kabul kilinganda tabletkani maydalab, uni 1\3 va 1\2 stakan xajmidagi suv yoki sut, kraxmal shilligi bilan ichish tavsiya kilinadi.

Indometatsin, difenin, butadion, GKS, trixopol, temir tuzlarini, rezerpinni sut bilan ichish mumkin.

Aspirin va SA DV larni oshkozonga kursatadigan NTni kamaytirish uchun ularni bikarbonat natriy yoki ishkoriy ma'danli suvlar bilan ichish tavsiya etiladi.

Nazorat savollari:

- 1.DV uzaro ta'siri.
- 2.DV nojuya ta'sir turlari.
- 3.DV xayot sifatiga ta'sir kilish omillari.
- 4.Farmakokinetika tushunchasi. DV chikib ketish yullari va ularni axamiyati.
- 5.Sinergizm turlari

Foydalanilgan adabiyotlar

- 1.Mavlyanov I.R., Kats P.S., Maxkamova R.K. Klinik farmakologiya. Toshkent. 2012
2. Mamatov YU. Klinik farmakologiya, Toshkent, 1995.
3. Belousov YU.B. Klinicheskaya farmakologiya i farmakoterapiya, M., 1997; 2000.
4. Kukes V.G Klinicheskaya farmakologiya, M., 1999, 2012

3-MAVZU. Dori vositalarining nojo'ya ta'sirlari. Allergik nojo'ya ta'sirlar.

Reja:

- 1.Nojo'ya ta'sirotlar monitoringi
- 2.Nojo'ya ta'sirotlar klassifikatsiyasi
- 3.A tipidagi reaksiyalar
- 4.B tipidagi reaksiyalar
5. S tipidagi reaksiyalar
6. D tipidagi reaksiyalar
7. Nojo'ya ta'sirotlar aniqlanganda beriladigan tavsiyalar
8. Nojo'ya ta'sirotlarni testlash usullari

Kalit so'zlar: Nojo'ya ta'sir, Allergiya, dori allergiyasi, Doriga turgunlik

DVNT ni turli mualliflar turlicha talqin qilishadi: birlari juda tor, boshqalari juda keng. DANT-bu funksional va organik o'zgarishlarning barcha ko'rinishi bo'lib, davolash vazifalariga javob bermaydi va dorini bekor qilishni, dozadini kamaytirishni yoki korreksiyasini talab etadi, degan fikrni eng to'g'ri deb aytish mumkin.

VOZ ta'rifiga ko'ra - DVNT yoki dori vositalari tomonidan chaqiriladigan noxush reaksiyalar – bu kasalliklarni davolash yoki oldini olish uchun tavsiya etiladigan DV dozalarini qo'llaganda kelib chiqadigan nojo'ya ta'sirlardir. Dori bilan davolash nojo'ya oqibatlariga ta'rif berishda tibbiy adabiyotlarda turli atamalar uchraydi: «dorilar nojo'ya ta'siri», «dorilar nojo'ya samaralari», «dori kasalligi», «medikamentoz patologiya», «dori idisinkraziyasi», «dori asorati» va b.q. Ammo, ko'pgina mualliflarning (I.S.Chekman, V.G. Kukes va b.k.) fikricha farmakoterapiyaning barcha noxush oqibatlarini birlashtirish uchun eng kerakli tushuncha- «Dori vositalarining nojo'ya ta'siri» atamasidir.


Dori-assotsirlagan, dori-ta'sirida kelib chiqqan yoki yatrogen kasalliklar dori vositalari nojo'ya ta'sirlarini kursatuvchi sinonimlar bo'lib hisoblanadi.

Nojo'ya ta'sirlarni monitoringi

Klinik amaliyotga ko'p sonli, yuqori aktivlikka va tanlab ta'sir etishga ega bo'lgan, DV kirib kelishi farmakoterapiya samaradorligini oshirishga salmoqli hissa qo'shib, millionlab insonlarni sog'ayishi va hayotini saqlab qolishga imkon berdi.

Ammo, DV keltiradigan ijobiy samara bilan birga, ular qo'llaganda bemor hayoti uchun xavfli va jiddiy nojuya ta'sirlar kelib chiqishi aniqlandi. SHu sababli I.P. Zamotaev fikricha, zamonaviy dori terapiyasi sharoitlarida «konservativ» davolashni hamma vaqt ham oqlab bo'lmaydi, chunki u ham, jarrohlik amaliyoti singari, xavfsiz emas.

YUqori aktivlikka ega DV keng tarqalishi, ularni farmakologik jihatlarini to'liq o'rganmasdan turib tavsiya etilishi, ko'p qo'llanishi, o'z-o'zini davolashni keng tarqalishi natijasida dori bilan davolash klinik tibbiyotning xavfli yo'nalishlaridan biriga aylanib qolishiga olib keldi. Bu holat dori vositalari nojo'ya ta'sirlari monitoringini o'tkazish lozimligini talab eta boshladi.



DV nojo'ya ta'sirlari hisobga olish va statistikasi qiyin muammolardan biridir, chunki ko'pgina reaksiyalar aniqlanmay koladi va yoki dori vositalari nojo'ya ta'sirlari monitoringini o'tkazish markaziga shifokorlar tomonidan xabar berilmaydi. Bunday markazlar ko'pgina davlatlarda tashkil etilgan va bunday ma'lumotlar qayd etiladi va hisobga olib boriladi. Regional markazlar ishini Milliy markazlar muvofiqlashtirib turib, DV nojo'ya ta'sirlari to'g'risida ma'lumotlar bazasini yaratadi. VOZ tavsiyasiga ko'ra DV kam uchraydigan nojo'ya ta'sirlarini qayd etish bo'yicha SHvetsiyada DV nojo'ya ta'sirini monitoring qiluvchi Birlashgan markaz tashkil qilindi, bu markaz shifokorlarni hisobotlarini tahlil qiliadi va ko'p millatli ma'lumotlar bazasini yig'adi.

DV ro'yxatga olinguncha o'tkaziladigan klinik tekshirishlar dori vositalari nojo'ya ta'sirlari to'g'risida ma'lumot beruvchi asosiy manba bo'lib hisoblanadi. Ammo, klinik tekshirishlarda qatnashadigan bemorlar soni chegaralangan (bir necha ming) va bunday hollarda dorini qabul qilish davomiyligi uzoq emas (bemorlar DV bir yil va undan up vaqt qabul qiladilar).

SHu saali og'ir nojo'ya ta'sirlar DV ro'yxatga olingandan so'ng-postmarketing davridan keyin aniqlanadi. Bu 1:10000 -50000 chastotatada yuzaga keladigan, kam uchraydigan nojo'ya ta'sirlarga taalluqlidir. Bunday reaksiyalar shifokorlarning javoblariga asoslanib qayd etiladi. Lekin ko'pgina davlat va regionlarda shifokorlarning tashabbusi juda past- nojo'ya ta'silar haqida 10% kam hollarda xabar beriladi.

Dorilar nojo'ya ta'sirlarining keng uchrashi yangi kasallikka va o'limga sabab bo'lib, davolash narxini ko'tarilishiga olib keladi.

AQSHda 1966-1996 yillarda 39ta klinik sinovlar meta-taxlillar qilinganda, shifoxonaga yotkazilgan bemorlarda dorilarga og'ir nojo'ya ta'sirlar 6,7%, umumiy nojo'ya ta'sirlar esa 15,1% ni tashkil etgan.

Barcha shgospitalizatsiya kilinganlarning 25% ga yakini dorili kasallanish bilan bog'liq.AQSHda odatdagi 700-o'rinli shifoxonada bunday yatrogen asoratlarni davolashga har yili 5,6 mln dollar sarflanmoqda. AQSHda dorili-kasallik va o'lim bilan bog'liq chiqimlar yiliga 76 mlrd dollarni tashkil etadi (18-jadval).

2.Nojo‘ya ta’sirlar tasnifi

DV nojo‘ya ta’sirlari monitoringi davlat yoki regional darajalari markazlarining to‘liq to‘rini tashkil kilishga qaramasdan, yatrogen kasalliklarni aniqlash bilan bog‘liq qiyinchiliklar bartaraf etilganicha yo‘q.

1976 yilda Vere dorilarga nojo‘ya ta’sirlar rivojlanishiga moyillikni birlamchi kasalliklar tomonidan niqoblanishi va nojo‘ya ta’sirlarni o‘z vaqtida aniqlanmay qolishini 5 ta sababini aytib o‘tgan edi.

Nojuya ta’sirotlarni uz vaktida aniklashni kiyinlashtiruvchi 5 sabab:

1. Nojuya ta’sirotlarni tusatdan paydo bulishi va juda gayri-oddiy kurinishda namoyon bulishi, ularni bemor tomonidan xavfsiz deb extimol kilingan dori vositasi tufayli sodir bulganligini aniqlash imkoninini kiyinlashtiradi.
2. Dori vositasi tufayli kuzatiladigan buzilishlar tabiiy kasallik kurinshida namoyon bulishi.
3. Nojuya ta’sirotlarni dori kabul kilingandan sung ancha muddatdan sung namoyon bulishi.
4. Dori vositalarining asosiy kasalliklarni avjlantirishi yoki ularga sezgirligi yukori shaxslarda buzilishlarni chakirishi mumkinligi.
5. Kasallikni klinik namoyon bulishining murakkabligi tufayli nojuya ta’sirotlar e’tibordan chetta kolishi mumkin.

Masalan, o‘rta yoshdagi ayollarda interstitsial sistit keng tarqalgan kasalliklardan biri bo‘lib, uning etiologiyasi aniqlanmagan, davolash esa etarli samara bermaydi. Biroq, 1991 yildan boshlab, YAQNDV-tiapropafen kislotasi qabul qilish bilan bog‘liq, og‘ir sistitlar rivojlanayotganligi to‘g‘risida ma‘lumotlar yig‘ila boshladi. Ular orasida jarroxlik amaliyotini, hatto total sistektomiyani talab etadigan shakllari paydo bo‘ldi. 1994 yilda Angliyadagi DV xavfsizligi qo‘mitasi tiaprofen kislotasi bilan bog‘liq 69 ta sistit va 32 ta siydik yo‘lining boshqa jarohatlari to‘g‘risidagi ma‘lumotlarni oldi; jumladan boshqa YAQNDV nisbatan bunday ma‘lumotlar faqat 8 tani tashkil etdi. Bunday nojo‘ya ta’sirlarni yuzaga kelish vaqti turlicha. Ko‘rsatilgan patologiyaning etiologiyasini aniqlashda qiyinchiliklar paydo bo‘ldi, tabiiyki, agar bu yatrogen kasallik ekanligi aniqlansa edi, uning regressiyasi uchun preparatni bekor qilish kifoya qilar edi. Lekin, sistit borligiga qaramasdan ko‘pgina bemorlar tiaprofen qabul qilishda davom etmoqdalar.

YATrogen kasalliklarni kech ko‘rinishlari tashxis qo‘yishda qiyinchiliklar tug‘diradi.

Masalan, uroantiseptik sifatida qabul qilinadigan nitrofurantoinlar qabul qilish o‘pka fibroziga, metildofa bilan davolangandan keyin 9 yil o‘tgach autoimmun gemolitik anemiya rivojlanishi va b.q.

SHuning uchun DV qabul qilinayotgan davr mobaynida shifokordan e’tiborni talab etadi. DV qabul qilish bilan nojo‘ya ta’sir orasidagi bog‘liqlikni aniqlash qiyinchilik tug‘diradi.

Masalan, homiladorlik vaqtida esterogen qabul qilgan ayollardan tug‘ilgan qizlarda qin adenokarsinomasi rivojlanishini mustaqil o‘sgan o‘sma jarayonidan farqlash qiyin.

YATrogen kasallik belgilari kasallikni o‘zini belgilari bilan o‘xshash bo‘lishi mumkin, ularni davolash uchun, ayniqsa klinik belgilar yaqqol rivojlangan bo‘lsa, DV qo‘llanadi.

Masalan, nukliozidlar analogi fialuridin virusli gepatit V bilan og‘rigan bemorlarda jigar funksiyasini buzishi mumkin. SHu sabablijigar funksiyasi buzilishining kuchayishi gepatitning progressiyasi bilan ham, preparatning gepatoksikligi bilan ham bog‘liq bo‘lishi mumkin. Bundan tashqari, preparat bekor qilinganda ham uning oqsillarni hujayra ichidagi metabolizmida ishtiroki saqlanadi, hamda pirovard natijani yomonlashuviga olib kelishi mumkin. DV nojo‘ya ta’sirini aniqlashda o‘tkazilayotgan davo ham g‘diri mumkin.

Masalan, kortikosteroidlar va antigistamin vositalar yatrogen asorat rivojlanishiga sezilarli ta’sir ko‘rsatishi va uni aniqlashga etarlicha yotarlicha qarshilik ko‘rsatishi mumkin.

DV nojo‘ya ta’sirining to‘rtta turi farqlanadi (19-jadval).

-A tur-har qanday organizmda dori vositasining farmakologik aktivligi bilan bog‘liq, oldindan aytish mumkin bo‘lgan, ko‘p uchraydigan reaksiya.

-V-tur- faqatgina sezuvchanligi yuqori bo‘lgan kishilarda uchraydigan, oldindan aytib bo‘lmaydigan, kam uchraydigan reaksiya.

- S tur-uzoq terapiya bilan bog‘liq reaksiya (doriga bog‘liq).
- D tur- DV ning kanserogen, mutagen va teratogen samaralari.

A tipidagi reaksiyalar

DV barcha nojo‘ya ta’sirlarining 80% A-turdagi reaksiyaga kiradi. Ko‘pgina DV nojo‘ya ta’sirlari yaxshi ma’lum va ular adabiyotlarda yoritilgan.

Kupgina xollarda preparat terapevtik dozalarda kullanganda va uning farmakologik xususiyatlariga boglik mukarrar bulgan nojuya ta’sirotlar uchraydi.

Masalan, tritsiklik antidepressantlar yoki xlorpromazin nafaqat MNS ga ta’sir etadi, balki og‘iz qurishi va ko‘zning ikkita ko‘rishiga olib keladi.

Ba’zan preparat nojo‘ya ta’siri foydali bo‘lishi ham mumkin. Bronxlarni kengaytiruvchi vosita sifatida qo‘llanadigan izoprenalin yurakka stimulyasiyalovchi ta’sir ko‘rsatadi, taxikardiya va aritmiya chaqiradi. Preparatning bu samarasidan yurak asistoliyasida foydalanish mumkin. Doza oshirilganda preparat nojo‘ya ta’siri kelib chiqish xavfi oshadi.

YAngi DV yoki ma’lum vositalar unumlarini yaratishda ularning selektiv ta’sirini oshirishga harakat qilinadi.

Masalan, salbutamol o‘pka betta-2 retseptorlarini ustun qo‘zg‘atadi va yurak beta -1 retseptorlariga sezilarli ta’sir ko‘rsatmaydi.

Prednizolon va kortizon bir xil yallig‘lanishga qarshi ta’sirga ega, birinchi preparat organizmda natriyni saqlab qoladi.

DV preparatnojo‘ya ta’siri asosiy kasallik xarakteriga bog‘liq.

Steroidli arterial gipertenziya ko‘pincha, buyrak jarohatlanishi bilan kechadigan sistem qizil volchankada uchraydi. Biriktiruvuchi to‘qima diffuz kasalliklarida glyukokortikoidlarni nojo‘ya ta’siri asosiy kasallikka o‘xshash bo‘lishi mumkin (masalan, psixozlar, osteoartroz, miokardiodistrofiya, AG), bu differensial diagnostikani qiynlashtiradi.

Dori vositasining dozasini oshirib yuborilishi bilan boglik bulgan zaxarlanish.

YUkori dozalarda kupgina preparatlar zaxarlanishga olib keladi.

Masalan, penitsillinni yuqori dozalarda, ayniqsa, buyrak etishmovchiligi bo‘lgan bemorlarda parenteral qo‘llash (200 mln TB ortiq), uyquchanlik, hushning buzilishi, tutqanoq xurujlarini rivojlanishiga olib keladi. Bu kaliy ko‘p yuborilishi yoki giponatremiya bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin.

DV zaharliligini baholashda terapevtik ta’sir kengligi yoki terapevtik kenglik (terapevtik oyna) aniqlanadi.

Katta terapevtik kenglikka ega bo‘lgan vositalar, ularni terapevtik dozalarda qo‘llaganda kam hollarda asoratlar chaqirishi mumkin. Terapevtik kenglik kichik bo‘lganda zaharli ta’sirdan qochish qiyin, masalan, aminoglikozidlar.

Aminoglikozidlar uzoq qo‘llanganda 26% bemorda buyrak jarohatlanishiga sabab buladi, bu jarayon odatda tez orqaga qaytadi. Bu bproximal kanalchalarda preparatning sezilarldi yig‘ilishi bilan bog‘likdir. Davo boshlangandan keyin darhol buyrak kanalchalari, ayniqsa, nefronning distal qismi, fermentlarining ajralishi natijasida fermenturiya yuzaga keladi. Proteinuriya va silindruriya paydo bo‘lgach konsentratsion funktsiya pasayadi. Buyrakning o‘tkir nekrozi kam uchraydi, ammo, qonda qisqa muddatda kreatinin miqdorining oshishi kuzatilishi mumkin. Aminoglikozidlarning nefrotoksikligi dozaga bog‘liq bo‘lib, sutkada bir marta buyurilganda bu holat kamayadi.

Aminoglikozidlarning nefrotoksiklik xususiyati siklosporin, sisplatin, furosemid ta’sirida oshadi, bu preparat chiqarilishi buzilishi bilan xavfli hisoblanib, bu guruh vositalari uchun xos bo‘lgan ototoksiklikni kuchayishiga sabab bo‘ladi.

Aminoglikozidlar ototoksiklik xususiyati eshitish pasayishi bilan kechadi. Bu ichki quloq limfasida antibiotiklarni yig‘ilishi oqibatida eshitish nervi va vestibulyar apparatning disfunktsiyasi natijasida yuzaga keladi. Odatda ototoksiklik qonda preparatning yuqori konsentratsiyasida, ba’zan esa tobramitsinni bir marta yuborish natijasida ham eshitishning pasayishi kuzatilishi mumkin.

Bunga sabab koxlear va vestibulyar sezuvchan hujayralarining destruksiya kuchayishi oqibatida rivojlanadi. Aminoglikozidlar takroriy davolash karlika olib keladi.

Ba'zi DVning toksik ta'siri deyarli hamma vaqt kuzatiladi.

Sitostatiklar nafaqat o'sma hujayralari o'sishi pasaytiradi, balki barcha tez bo'linadigan hujayralarni jarohatlaydi va suyak ko'migi funksiyasini buzadi.

Ikkinchi darajali nojo'ya ta'sir -DV farmakodinamikasi bilan bog'liq nojo'ya ta'sirlardir.

Ular selektivlik yoki tanlab ta'sir ko'rsatish xususiyati mavjud bo'lmagan preparatlarga xosdir.

Masalan, izadrin nafaqat bronxlar silliq mushaklaridagi beta-2 adrenoretseptorlarini, balki yurak ni qo'zg'atadi, aritmiya rivojlanishiga sabab bo'ladi. Bu holatda izadrinning aritmogen ta'siri ikkinchi darajali nojo'ya samara hisoblanadi. Nosteroid yallig'lanishga qarshi vositalar me'da shilliq qavatida E guruh prostaglandinlari sintezini buzishi oqibatida utslserogen ta'sir ko'rinishidagi ikkinchi darajali nojo'ya samarani namoyon qiladi. I –avlod antigistamin vositalarning sedativ ta'siri ularning GEB dan o'tishi najasida rivojlanadi.

Ikkinchi darajali nojuya samaralar – ular dori vositasining farmakodinamikasi bilan boglik bulgan mukarrar nojuya samaralardir.

Ikkilamchi nojuya samaralar. YUkori faollikka ega bulgan anitibiotiklar va boshka mikrobg karshi vositalar ta'sirida superinfeksiya, disbakterioz va kandidamikozga olib keladigan organizm normal bakterial florasining uzgarishlar kurinishidagi dori vositalari asoratlari. Bunday asoratlar kuprok upka va ichakda kuzatiladi.

Kandidoz odatda tetratsiklin bilan davolaganda kuzatiladi. Surunkali o'pka kaslliklarini uzoq vaqt atibiotiklar bilan davolashda stafilakokli infeksiya rivojlanishiga olib keladi. Glyukokortikoidlar va immunodepressantlar immunitetni pasaytirishi oqibatida infksion kasalliklar rivojlanish xavfi oshadi. Buyrak transplantatsiyasidan keyin immunodepressantlar bilan uzoq vaqt davolash sitomegalovirus va zamburug'li infeksiyalar asoratiga sabab bo'lib, letal holatga olib keladi.

Dori vositalarining uzaro ta'siri bilan boglik zaxarlanishlar.

Ular kuprok farmakokinetik uzaro ta'sirlar tufayli ruy beradigan dori vositalari nojuya samaralari.

Teofillin odatdagi dozalarda buyurilganda davolashga eriromitsin qo'shilganda teofillinni jigar metabolizmi ingibirlanishi natijasida zaharlanish kuzatilishi mumkin.

B tipidagi reaksiyalar

B tipidagi reaksiyalar dorini ko'tara olmaslikdan tashqari, dori dozasi va uning farmakologik faolligi bilan bog'liq bo'lmagan nojo'ya ta'sirotlardir. Ular negizida organizmning individual xususiyatlari – allergiya yoki irsiyat bilan bog'liq bo'lgan ferment tizimlaridagi o'zgarishlar yotadi. Bu tipdagi reaksiyalarning o'ziga xosligi – ularni oldindan ko'ra bilmaslikdir. Odatda bu reaksiyalar dori vositalari registratsiyasidan oldin qayt qilinmaydi va ular keng amaliyotda qo'llanish davrida aniqlanadi.

Dorini ko'tara olmaslik – dori vositalarining farmakologik xususiyatlari bilan bog'liq va ular terapevtik, subterapevtik dozalarda qo'llanganda namoyon bo'ladigan nojuya samaralardir.

Idiosinkraziya - dori vositasining farmakologik faolligi bilan tushuntirib bo'lmaydigan, ularga xos bo'lmagan reaksiya.

Idiosinkraziya-atamasi ostida ba'zi dori vositalariga nisbatan genetik asosdagi patologik reaksiya tushuniladi. Bu reaksiya bemorda ma'lum preparatga nisbatan sezgirlikni keskin oshishi xos bo'lib, odatdagidan kuchliroq og'riq va yoki davomli samara bilan kechadi. Idiosinkraziya asosida organizmdagi ferment tizimining irsiy etishmovchiligi yotadi. Ular allergik reaksiyalarga qaraganda kam uchraydi. Idisinkraziyaga ko'plab misollar kelitirish mumkin.

Glyukoza-6-fosfatdegidrogenaza (G-6-FGD) etishmovchiligi bo'lgan bemorlarni sulfanilamidlar yoki primaxin bilan davolash gemolitik anemiyaga olib keladi, ε-aminolevulin

kislota sintezini barbitutratlar yordamida induksiyasi kuyaaytirilganda jigar porfiriya xuruji rivojlanadi.

Narkotiklar ta'sirida xavfli gipertermiya yuzaga kelishini ham shu turdagi reaksiyalarga kiritish mumkin.

Metgemoglobinreduktaza etishmovchiligida nitratlar buyurish metgemoglobinemiya olib keladi. Patologik gemoglobinlar mavjudligi holatida nitratlar qo'llansa va fenatsetinning dezapkirilishi pasayganda ham shunga o'xshash samaralar rivojlanishi mumkin.

Gipoksantin-guanin-fosforiboksiltransferaza etishmovchiligida allapurinol purinlarni buyrak orqali ekskretsiyasini kuchaytiradi, ba'zan toshlar hosil o'lishiga sabab bo'ladi.

2-9 kunlik chaqaloqlarni levomitsetin davolash Greya ko'rinishidagi sindrom asoratlari rivojlanishiga olib kelishi mumkin: meteorizm, direya, qayt qilish, sianoz va qon aylanishini buzilishi oqibatida o'lim kuzatiladi. Bu holat glyukuroniltransferaza etishmovchiligi bilan bog'liqdir. SHu sababli chaqaloqlarni levomitsetin bilan davolash ehtiyotkorlikni talab etadi.

YUkori sezgirlik reaksiyalari yoki allergik reaksiyalar

YUkori sezgirlik reaksiyalari yoki allergik reaksiyalar - immunologik mexanizmlar bilan bog'liq bulgan reaksiyalar.

ba'zan allergik reaksiyalarni idiosinkraziya sifatida baholaydilar, chunki ularni oldindan aytib bo'lmaydi va dozaga bog'liq emas. Ammo, allergik reaksiyalar idiosinkraziyadan immun tizim bilan bog'liqligi bilan farq qiladi.

YUkori sezgirlik reaksiyalari kelib chikish mexanizmiga karab *doriga spetsefik antitelalar* va *doriga spetsefik T-limfotsitlar* bilan amalga oshadigan turlarga bulinadi. Ko'pgina dori vositalari kuchsiz antigenlik xususiyatiga ega, biroq yuborilgan juda ko'p DV ga nisbatan allergik reaksiyalar kuzatiladi.

Bunday reaksiyalar tavsiya qilingan preparat:

- kimyoviy gapten bo'lib, oqsillar bilan bog'lanib antitela hosil qilsa;
- ba'zi to'qima oqsillari xususiyatini o'zgartirib, autoimmun reaksiyalar chaqirsa;
- to'qima oqsillari bilan chalkash ta'sirlanadigan antitelalar hosil bo'lishiga olib kelsa ruy beradi.

YUqori sezgirlik reaksiyalarining quyidagi turlari farqlanadi:

Tezkor yuqori sezgirlik reaksiyalari yoki anafilaksiyalar (1-tip);

Sitotoksik reaksiyalar (2-tip);

Immun kompleksli reaksiyalar (3-tip) ;

Sekinlashgan yuqori sezgirlik reaksiyalari (4-tip).



**СИНДРОМ
СТИВЕНСА-
ДЖОНСОНА**
(эпидермальный
некролиз) при
применении
карбамазепина
ассоциирован с
полиморфизмом
HLA-B*1502

Квинке шиши (бемор А, 56 ёш)



Келганда



Даводан сунг

Анафилактик reaksiyalar – IgE- antitela hosil bo'lishi, mastotsitlar degranulyasiyasi va gistamin, serotonin, leykotrienlar hamda boshqa mediatorlarninig chiqishi bilan bog'liq bo'lgan tezkor yuqori sezgirlik reaksiyalaridir.

Ko'pincha bunday reaksiyalarni antibiotiklar, sulfanilamidlar, YAQNSDV va b.q. chaqiradi.

Анафилактик shok, eshak ema, bronxospazm, kon'yuktivit, teri toshmalari kurinishida namoyon buladi.

Ўткир алергодерматит (бемор х. 47 ёш)



Стивен Джонсон синдроми (бемор С., 47 ёш)



Ситотоксик ва ситолитик reaksiyalar IgG va IgM antitelalar hosil bo'lishi hamda komplement reaksiyalari bilan bog'liq reaksiyalardir.

Ular sulfanilamidlar, pirazon unumlari, fenotiazin, barbituratlar va b.q. tomonidan chaqirilishi mumkin.

Immun kompleksli reaksiyalar xujayra immunitetini buzilishi va IgG saklovchi immun komplekslarni xosil bulishi bilan bogliq reaksiyalardir.

Sekinlashgan yukori sezgirlik reaksiyalari – kechiktirilgan allergik reaksiyalardir; zardob kasalligi, kontaktli dermatitlar va boshkalar kurinishida namoyon buladi.

Ko'rinishlari- gemolitik anemiya, granulotsitopeniya, trombositpeniya

Immun komplekslar reaksiyalari- hujayra immuniteti buzilishi va IgG saqllovchi immun komplekslari hosil bo'lishi bilan bog'liq.

Turli to'qimalar jarohatlanishi (artrit, nefrit, vaskulit, miokardit, gepatit va b.k.) bilan kechadi.

Bunday turdagi allergik reaksiyalar- bir qator DV qabul qilishdan keyin volchankasimon-sindrom rivojlanishi bilan namoyon bo'ladi.

Masalan, gidrolazin, novokainamid va b.q.

Uning asosida preparat yoki uning metabolitlari ta'sirida antinuklear antitelalar hosil bo'lishi yotadi. Dorili volchankaning xususiyati kam hollarda buyraklarni jarohatlanishidir.

Sekin turdagi yuqori sezuvchanlik reaksiyalari- kuchikkan allergik reaksiyalar; zardob kasaligi, kontaktli dermatitlar va b.k. Lar ko'rinishida namoyon bo'ladi.

Immunologik nojo'ya reaksiyalar rivojlanishi ko'pincha DV kimyoviy strukturasi bilan boq.Kichik molekulyar massali preparatlar organizmda immun mexanizmlar javobini aktivlashtirishga qodir emaslar, lekin yuqori molekulyar moddalar bilan kovalent bog'lar hosil qilsa yuqori sezgirli reaksiyalarni chaqirishi mumkin. DV aktiv metabolitlarni yuzaga keltiruvchi metabolizmga uchrashi yoki yuqori molekulyar moddalar bilan kovalent bog' hosil qilishi oqibatida, nuklein kislotalari bilan o'zaro ta'sirlanish va gen hosil bo'lishini buzilishi natijasida sitotoksik va genotoksik reaksiyalar rivojlanishi mumkin. (9-rasm).

Masalan, sulfanilamidlar reaktiv metabolitlar hosil qilishi mumkin, ular esa makrobirikmalar bilan kovalent bog' hosil qilishi natijasida sitotoksik va immun reaksiyalar yuzaga kelishiga sabab bo'ladi.

Psevdoallergik reaksiyalar – immunologik mexanizmga ega bo'lmagan, klinik jihatdan allergik reaksiyalarni eslatuvchi nojo'ya reaksiyalar. Ular bevosita va bilvosita dori vositalari ta'sirida semiz hujayralardan gistamin yoki serotonin kabi endogen biologik faol moddalarni ajralib chiqishi bilan bog'liqdir. Psevdoallergik reaksiyalar 1-turdagi (anafilaktoid) allergik reaksiyalarni gamoyon qilishi mumkin

Masalan, atsetilsalitsil kislotasi va boshqa nosteroid yallig'lanishga qarshi vositalar bilan davolashda; vankomitsin, anesteziyalovchi vositalar, rentgenkontrast vositalar vena ichiga yuborilganda.

Psevdoallergik reaksiyalar 2-turdagi (sitotoksik) reaksiyalarni namoyon qilishi va gemoliz chaqirishi mumkin.

Masalan, malyariyaga qarshi preparatlar, sulfanilamidlar qullaganda.

Psevdoallergik reaksiyalar 3 – turini (immun kompleksli reaksiyalar)-ba'zi preparatlar namoyon qilishi mumkin.

Masalan, pnevmonit chaqiruvchi nitrofurantoin; volchankasimon sindrom chaqiruvchi novokainamid.

S tipidagi reaksiyalar

Doriga bog'lanib qolish – dori vositasining qabul qilishni to'xtatish bilan bog'liq bo'lgan simptomlarni (abstinent sindrom) yo'qtish uchun, uni qayta qabul qilish ehtiyoji bilan kuzatiladigan holat.

Dori vositasiga bog'lanib qolish jismoniy bo'lishi, abstinent sindromi rivojlanadigan yoki ruhiy ko'rinishda bo'lishi mumkin. Doriga bog'lanib qolish qabul qilinayotgan dori vositasiga organizmning o'zgargan reaktivligi bilan xarakterlanadi va dori vositasi samarasining modifikatsiyasi, preparatga tolerantlikni rivojlanishi bilan namoyon bo'ladi. Bu uning qabul qilish dozasini oshirishni taqozo qiladi.

Doriga bog'lanib qolish variantlari:

- toksikomaniyalar – psixoaktiv (psixomimetik) preparatlarni qabul qilishga o'rganib qolish;
- narkomaniyalar – narkotiklar guruhiga kiritilgan dori vositalariga (narkotiklar, barbituratlar, efedrin xosilalari) o'rganib qolish.

D tipidagi reaksiyalar

Kanserogen ta'sirlar – dori vositalarining xavfli usmalar kelib chikishiga olib keladigan nojuya samaralari.

Dori qabul qilish bilan o'sma rivojlanishi o'rtasidagi uzoq vaqt ular orasida o'zaro bog'lik borligini aniqlashga qiyinchilik tug'diradi.

Esteragenlar qabul qilish natijasida endometriya raki, siklofosfamid ta'sirida esa siydik pufagi raki rivojlanishi aniqlangan.

Mutagen samaralar – dori vositalarining irsiy buzilishlarga va kasalliklarga (gen, xromosoma va genom mutatsiyalari) olib keladigan nojuyta ta'sirlari.

Teratogen samaralar – dori vositalarining xromosoma, gen va boshqa irsiy uzgartirishlar tufayli xomilaga va kattalar reproduktiv a'zolariga tugridan tugri zaxarli ta'siri.

Teratogen DV bevosita embriotoksik ta'siri etishi yoki oqsil sintezini buzishi oqibatida embriopatiyalar, fitopatiyalar rivojlanishi mumkin.

Bu guruhga sitotoksik ta'sir etuvchi preparatlar kiradi: o'maga qarshi, tutqanoqqa qarshi vositalar, sitostatiklar, ba'zi antibiotiklar va zamburug'ga qarshi vositalar, garmonlar.

Ko'pgina davlatlarda preparatlar teratogenligi darajasidan kelib chiqib

ularni guruhlarga bo'lish ma'muriyat tomonidan qabul qilingan. Jumladan, FDA homilaga preparat ta'siri kategoriyalarini quyidagilarga ajratadi.

Dori vositalarining xomilaga ta'siri kategoriyalari:

A kategoriyasi – teratogen ta'siri klinik va eksperiment sharoitlarda aniqlanmagan preparatlar (ammo o'tkazilgan izlanishlar teratogen xavfni butkul istisno etish imkonini bermaydi).

B kategoriyasi – eksperimentda teratogen ta'siri kuzatilmagan, ammo bu masala bo'yicha klinik ma'lumotlar yo'q bo'lgan preparatlar.

S kategoriyasi – eksperimentda homilaga yaxshi ta'sir ko'rsatmaydigan, ammo adekvat nazoratga ega bo'lmagan preparatlar.

D kategoriyasi - teratogen ta'sirga ega, ammo qo'llash zarurligi homila shikastlanish xavfidan yuqori bo'lgan preparatlar; bu preparatlar hayotiy ko'rsatmalar bo'yicha tavsiya qilinadi; dorini qabul qilgan ayol homila uchun oqibatlar to'g'risida axborotga ega bo'lishi kerak.

X kategoriyasi – eksperiment va klinikda teratogen ta'siri isbotlangan preparatlar, ularni homiladorlikda qo'llash man qilinadi.

Nojo'ya ta'sirlar aniqlangan xolatlarda tavsiyalar

Agar DV nojo'ya ta'siri isbotlangan, lekin shu preparatni yana buyurish zarurati tug'ilsa, quyidagi taktika va strategiyaga amal qilish lozim.

Bemordan surash jarayonida ilgari dorilarga reaksiyalar kuzatilganligini, ular xarakterini aniqlash kerak; reaksiya davolashning qaysi fazasida yuzaga kelganligi, reaksiya rivojlanganda qanday DV qanaqa dozalarda qabul qilinganligi, bemor ularni ilgari qanday o'tkazganligi, DV bekor qilingach reaksiya to'xtaganmi yoki yo'qmi singari holatlarni aniqlash kerak.

Agar bemor monoterapiya qilgan bo'lsa, reaksiya va DV orasidagi bog'liqlikni aniqlash qiyinchilik tug'dirmaydi. Ammo boshqa davolash mavjud bo'lsa, nojo'ya ta'sir chaqirgan preparatni differentsiatsiyalashda qiyinchiliklar paydo bo'lishi mumkin. Reaksiya boshlanish vaqti ham ahamiyatga ega. Jumladan, agar bemor uzoq yillar preparatni qabul qilib yurgan bo'lsa reaksiya rivojlanish ehtimolligi kamayadi.

Agar bemor ilgari ushbu dorini yoki kimyoviy strukturasi o'xshash bo'lgan preparatni qabul qilmagan bo'lsa yuqori sezuvchanlik reaksiyalari odatda preparatni birinchi qabul qilishdan so'ng rivojlanmaydi, chunki doriga bog'liq IgE –antitelalar darhol paydo bo'lmaydi. Ilk rivojlangan reaksiya immun mexanizmlar bilan bog'liq bo'lmagan, psevdoadlergiik bo'lishi mumkin.

Masalan, vankomitsin, radiokonstrast moddalar, asab-mushak o'tkazuvchilari blokatorlari qo'llashda.

Reaksiya rivojlanish fazasidan kelib chiqib nojo'ya ta'sirni tekshirish usullari tanlanadi. Nojo'ya ta'sirlarni aniqlashda anamnez va tibbiy hujjatlar ma'lumotlari, fizikal va laborator-instrumental tekshirish natijalari o'rganiladi.

A-turdagi reaksiyalar

A-turdagi reaksiyalarni diagnostikasi (toksikligi, ikkinchi yoki ikkinchi darajali samaralar) odatda qiyinchilik tug'dirmaydi, ularni oldindan bilish mumkin, chunki DV farmakologik ta'siri natijalari hisoblanadi. Asosiy taktika DV kichik dozalaridan foydalanishga qaratilgan; ammo bu samaralar subterapevtik dozalar qullaganda rivojlagsa, boshqa alternativ dorilardan foydalanishga to'g'ri keladi.

Dorilar o'zaro ta'siri natijasida nojo'ya ta'sir rivojlansa, bu dorini qayta buyurishda dozani yoki mavjud terapiyani korrektsiyalashni talab etadi.

B-turdagi reaksiyalar

B-turdagi reaksiyalarda, ayniqsa dorini ko'tara olmaslik yuzaga kelganda, agar reaksiya og'ir kechmagan bo'lsa, DV qayta buyurish mumkin.

Idiosinkraziya holati esa dori vositasini takroriy buyurish masalani hal qilishda katta ehtiyotkorlikni talab etadi. Reaksiya og'irligi taktikani belgilab beradi. Agar reaksiya og'ir kechgan bo'lsa, dorini qayta buyurmaslik maqsadga muvofiq. Reaksiya og'ir bo'lmasa qo'zg'atuvchi test o'tkazish va uning natijalari manfiy bo'lsa preparatni qayta buyurish mumkin. Ba'zan platsebo samarani inkor qilish va idiosinkraziya mavjudligini isbotlash uchun platsebo-test o'tkaziladi.

YUqori sezuvchan reaksiyalarda barcha mumkin bo'lgan tekshirish usullaridan foydalanish kerak. Manfiy natijalar etarli deb hisoblansa DV qayta buyurish mumkin, boshqa hollarda esa ko'riladigan naf va anafilaksiya rivojlanish xavfi solishtiriladi va ushbu dorini tavsiya etmaslik maqsadga muvofiq.

Nojo'ya ta'sirotlarni aniqlash usullari

A'zolarni maxsus jarohatlanishi bilan bog'liq u yoki bu reaksiyalarni diagnostikasida laborator-instrumental tekshirishlar yordam beradi (jigar testlari, qoldiq azot, qon shaklli elementlari, siydik tahlili, o'pka rentgengrafiyasi va b.q.).

Dori vositalarining nojo'ya ta'sirotlarini tasdiqlovchi unchalik ko'p bo'lmagan testlar mavjud. Ularga reaksiyalar kelib chiqishida immunopatologik mexanizmlar ishtirokini tasdiqlovchi immunologik va biokimyoviy markerlar kiradi.

Biokimyoviy markerlar

Biokimyoviy markerga triptaza kiradi. U semiz xujayra granulalari saqlaydigan proteazadir. Uning ikki formasi bor: α va β . Konda α -triptaza konsentratsiyasining oshishi semiz hujayralar miqdorini o'sishi va β -triptaza konsentratsiyasining oshishi esa semiz hujayralar faolligini ortishi to'g'risida dalolat beradi. Bu esa anafilaktik va anafilaktoid reaksiyalarda kuzatiladi.

SHunday qilib, immunologik mexanizmlar (insulin, penitsillin) yoki noimmunologik (opiatlar, mushak relaksantlari) yordamida semiz hujayralarni qo'zg'atuvchi DV β -triptaza konsentratsiyasini ortishiga sabab bo'ladi.

Triptaza T $\frac{1}{2}$ 2 soatga yaqin bo'lib, tez parchalanish xususiyatiga ega bo'lgan gistamindan oldin triptazin konsentratsiyasini aniqlash amaliy ahamiyat kasb etadi.

Triptazin konsentratsiyasini anafilaktik reaksiyada keyin ilk 1-2 soat aniqlash maqsadga muvofiq. Uning normal darajasi 1mkg/l; konsentratsiyaning bu darajadan oshishi semiz hujayralar aktivlashganligidan dalolat beradi; 5 mkg/l oshishi semiz hujayralar orqali yuzaga kelgan anafilaktik reaksiyalar uchun xosdir. SHu bilan birga anafilaktik reaksiya vaqtida gemodinamik buzilishlar bo'lmaganda β -triptaza darajasi normal holda bo'lishi mumkin.

Immunologik markerlar

Immunologik testlarga anafilaktik va anafilaktiksimon reaksiyalarni aniqlashga yordam beradigan radioallergosorbent va gistaminni ajralishi bilan bog'liq test kiradi.

Gistaminni ajralishi va bazofillar degranulyasiyasi testlari IgE bilan bog'liq anafilaktoid reaksiyalarini diagnostikasida, ya'ni anafilaktoid reaksiyalari aynan IgE bilan bog'liq bo'lganda, radioallergosorbent testidan ustunlik qiladi.

Komplementni tekshirish- komplementni aktivlanishiga olib keluvchi doriga bog'liq immun komplekslarni aniqlash imkon beradi.

Yadroga qarshi antitelalarni tekshirish doriga bog'liq volchankani aniqlashga yordam beradi. Ammo hatto organizmda mavjud bo'lgan doriga bog'liq antitelalar ham kasallik sababi DV bilan bog'liqligini isbotlay olmaydi.

Teri ichi va skarifikatsion testlar- doriga bog'liq IgE-antitelalari hosil bo'lishi orqali paydo bo'ladigan tez kechuvchi allergik reaksiyalarni diagnostikasida qullanadi.

Bunday reaksiyalarni chaqirishi mumkin: Polipeptid tabiatli DV, multivalentli yoki yuqori molekulyar (dori globulinlari, insulin, streptokinaza); ba'zi kichik molekulali antititiklar.

Musbat natija doriga bog'liq IgE-antitelalari ishtirokini ko'rsatadi; manfiy esa –DV va uning metabolitlari immunologiyasi haqida ma'lumotlar yo'qligi bilan bog'liq bo'lishi yoki mazkur usul bilan ularni aniqlash imkoni bo'lmasligi oqibati bo'lishi mumkin.

Teri ichi testlari sezuvchan bo'lmasligi, nospetsifik va hatto hayot uchun xavfli bo'lishi mumkin.

Penitsillinga teri ichi testi o'tkazishda o'lim holati kuzatilganligi to'g'risida ma'lumotlar bor.

Ilgari kontakt dermatitlarini diagnostikasida teri usti testlari qo'llangan. Ularni ba'zi doriga bog'liq reaksiyalarini rivojlanishida T-limfotsitlar roli borligini isbotlashini hisobga olib, tez yoki sekin turdagi dorili yuqori sezuvchanlik ko'rinishlari bo'lgan teri toshmalarini diagnostikasida bu testlarni keng qo'llash mumkin.

in vitro testlari antititiklarga doriga bog'liq IgE antitelalari aniqlash uchun qullanadi, lekin ular teri testiga ganda pastroq sezuvchanlikka ega. Bu testlar antititiklarga individual sezuvchanlik borligini aniqlash uchun ishlatiladi. Dorili yuqori sezuvchanlikning IgE ga bog'liq bo'lmagan reaksiyalarini diagnostikasi yanada chegaralangan. Bu antigenli determinant reaksiyalarni rivojlanish mexanizmi haqidagi bilimlarni etarli emasligi bilan bog'liq bo'ladib Ma'lumki, doriga bog'liq IgG-AT va IgM antitelalar trombositopeniyalar, gemolitik anemiyalar yoki neytropeniyalar rivojlanishiga olib kelishi mumkin.

Teri testlariga qaraganda preparatni nojo'ya ta'sirini aniqlash uchun dori vositasi bilan testlar o'tkazish yanada xavflidir. Agar dori vositasi ushbu kasallikni davolashda yagona va unga ekvivalent o'rindosh preparat bo'lmasagina, bu testlarni o'tkazish mumkin.

Masalan, podagrani davolashda allapurinol.

Bazofillar degranulyasiyasi, passiv gemagglutinatsiya, limfotsitlar transformatsiyasi, limfotsitlar/ makrofaglar migratsiyasi ingibirlanishi, singari kabi testlar juda yuqori sezuvchanlikka ega va manfiy javob olingan taqdirda ham yatrogen reaksiya borlini inkor etmaydi.

Gistologik usullar. Yatrogen reaksiyalarni tasdiqlashda biopsiyaga olingan materialni gistologik tekshirish yagona haqqoniy usul bo'lib hisoblanadi.

Masalan, ko-amoksiklavni qo'llash yatrogen gepatit rivojlanishiga olib kelishi mumkin.; preparat 1983 yildan buyon ishlatilib kelinsa ham, bunday xabarlar faqatgina 1991 yildan kelib tusha boshladi. Bu holat reaksiya kechikishi bilan bog'liq va 70% hollarda kurs davolash tugagandan so'ng rivojlanadi (maksimal 6 haftadan keyin). Ammo gistologik tekshirishlar yordamida ko-amoksiklav ta'sirida gepatit rivojlanganlini aniqlashga erishildi.

Dori vositalari nojuya ta'sirotlari klassifikatsiyasi

Ta'sir mexanizmiga karab:

Farmakodinamik

Toksik

Allergik

Farmakogenetik

Dori kabul kilishni tusatdan bekor kilish bilan boglik bulgan

Mutagen, teratogen va embriotoksik

Doriga chidamlilik

Klinik kechuviga karab:

Fatal (Layel sindromi, anafilaktik shok).

Ogir darajadagi (bronxial astma, xalkumni allergik shishmasi).

Urtacha ogir (Kvinke shishmasi, eshak ema).

Engil darajadagi (bemorlar tomonidan sub'ektiv «yomon axvol» kurinishida namoyon buladigan va korreksiya kilishni takazo kiladigan nojuya ta'sirotlar).

Kasallik kechuviga ta'sir kilmaydigan va korreksiyanı takazo kilmaydigan nojuya ta'sirotlar.

Tezkor tipdagi allergik reaksiyalar

Tizimli namoyon bulish belgilari:

Anafilaktik shok

Utkir eshak ema va Kvinke shishmasi

Zardob kasalligi va zardobsimon reaksiya

Dori bornxial astmasi va allergik rinosinusopatiya (atopik turi)

Asosiy kasallikni avjlanishi (bronxial astma, allergik rinit, eshak ema va Kvinke shishmasi, atopik dermatit)

Agronulotsitoz, purpura, orttirilgan gemolitik anemiya

Maxalliy reaksiyalar: Artyus – Saxarov fenomeni

Sekinlashgan tipdagi allergik reaksiyalar

Tizimli namoyon bulish belgilari:

Generalizatsiyalashgan, tarkalgan dermatitlar

Zambrugsimon reaksiyalar (eritemavezikulyar dermatitlar)

Giperergik itpdagi asoratlar (vaskulitlar, eritrodermiyalar, Layel sindromi - bullez eksfoliativ gemorragik dermatit, Stivens – Djons sindromi va boshkalar)

Asosiy kasallikni avjlanishi (kollagenozlar, ekzemaning ba'zi turlari, neyrodermitlar)

Nazorat savollari:

1. Nojuya ta'sir nima. Idiosinkroziya.

2. Allergologik anamzem egish paytida nimaga axamiyat beriladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mavlyanov I.R., Kats P.S., Maxkamova R.K. Klinik farmakologiya. Toshkent. 2012

2. Mamatov YU. Klinik farmakologiya, Toshkent, 1995.

3. Belousov YU.B. Klinicheskaya farmakologiya i farmakoterapiya, M., 1997; 2000.

4. Kukes V.G. Klinicheskaya farmakologiya, M., 1999, 2012

4-MAVZU. Xomiladorlik va emizikli davrda dori vositalarining klinik farmakologiyasi.

Reja:

1. Xomiladorlik davrlarida ona-xomila-yuldosh tizimining xolati.

2. Xomiladorlarga dori vositalari tavsiya kilinganda e'tiborga olish kerak bulgan omillar.

3. Dori vositalarining xomilaga kursatadigan nojuya ta'sirlari buyicha tasnifi.

4. Dori vositalarining xomilaga kursatadigan nojuya ta'sir turlari.

5. Xomiladorlik davrida dori vositalari FK sining uzgarishi. Xomiladorlarda DV ning kulanilishining uziga xos tamoyillari.

6. Emizikli ayollar dori vositalarini kabul kilganda bolada rivojlanadigan NT lar.

Kalit so'zlar: ksenobiotiklar, Xomiladorlik, Emizikli ayollar, Mutagen ta'sir, Embriotoksik, Teratogen, blastopatiyalar, embriopatiyalar, fetopatiyalar

Farmakoterapii nuqtai nazaridan xomiladorlik maxsus hayot fazasi bo'lib, hayotning boshqa barcha qisman va umumiy fazalaridan farq qiladi.

Klinik farmakologiya inson organizmi va kimyoviy vositalar, xamda xomila va embrion rivojlanishi jarayonlari orasidagi o'zaro ta'sirni o'rganadi. Insonni urab turuvchi tevarak-atrofdagi kimyoviy vositalar (ksenobiotiklar) orasida dori vositalari urin oshib bormokda. Ularning inson organizmiga farmakologik ta'sirdan toksik samaraga utishi va shu yul bilan mikdor va sifat kursatkichlarining tartib bilan uzgarishini kursatadi. CHaqaloqlarda, dori vositalari ta'sirida, yuzaga keladigan kupgina tragedik xolatlarga javoban tibbiyot xodimlari fatal davrda dori vositalari qo'llash bilan bog'liq xavfli muakmmoga jiddiy e'tibor Bera boshladilar. Xomiladorlarni davolashda kulaniladigan DVni xavfsizligi muammosi bilan barcha soxa shifokorlari tuknashadilar, chunki, ona-yuldash-xomila tizimi yagona biologik, farmakodinamik va farmakokinetik tizimi bulib faoliyat kiladi.

Xech bir DVni uning embriotoksik va teratoogen xususiyatlarini eksperimental ravishda urganmasdan turib klinikalarga foydalanishiga berilmaydi, birok, shunga karamasdan barcha tugma majruxliklarning 5% ularning xisobiga kiradi. Xozirgi vaktida taxminan 60-80% xomiladorlar (ularning 280% uzlaricha davolanadi) DV kabul kiladilar (antibiotiklar, analgetiklvr,uxlatuvchi DV, sedativ, antatsid, antigistamin, balgam kuchiruvchi DV, vitaminlar, temir preparatalari va xakazo). I uchoylikda xomiladorlar kupincha kayt kilishga karshi DV, II uchoylikda antibiotiklar va siydik xaydovchi DVdan keng foydalanadilar. Ba'zi xollarda poliprogmaziya sababli majruxlikning "ayibdorini" aniklash kiyin buladi (bir xomilador ayol xomiladorlik davrida urtacha 3-4 xil DV kabul kiladi). Bu muammoning kiyinligi shundan iboratki, DV jinsiy xujayralarning shakllanishi va faoliyatiga ta'sir kilishi bilan bir katorda, xomiladorlikning kup tabakali jarayoniga xam ta'sir kursatadi.

Embrion va xomila rivojlanishining farmakologik yunalishi orasidagi o'zaro ta'sir muammolarini urganish xali boshlangich boskichlarida turibdi. Bunda paydo buladigan etik va tulik sistematik tekshirish utkazishdagi kupgin uslubiy muammolar xomiladorlikni ilk boskichlarida taxlillar utkazishga moneliklar tugdiradi. Umuman rivojlanish biologik omillari rivojlanish muddatiga bog'liq bulib, turli tipdagi reaksiar bilan xarakterlanadi, masalan:

- moddalarni surilishi va eleminatsisi jarayonlarining morfologik va funksional xususitlari
- Biologik kamolotga erishganlik darajasi bilan dori vositalarni va boshka moddalarni metabolizmga uchratish xususiti
- Xomiladorlik bilan bog'liq bulgan xolda ona organizm iva xomila orasidagi o'zaro ta'sirni xisobga olib rivojlanishning bu xususitlarini tushunish va talkin eta bilish lozim.

2. Homiladorlikda farmakoterapiya samaradorligi va xavfsizligiga ta'sir qiluvchi omillar.

Homiladorga dori vositasi qo'llashni rejalashtirgan shifokorga quyidagi omillarni hisobga olishni tavsiya qilinadi:

1. Hech qanday dori vositasini (mahalliy qo'llash uchun ham) homila uchun mutlaq xavfsiz deb hisoblash kerak emas, chunki platsentar barer 250-500 D molekulyar massaga ega bo'lgan dori vositalarini engil o'tkazadi. YOg'da eruvchanlik va ionlanish darajasiga qarab 500-1000 D molekulyar masaga ega preparatlar platsenta orqali qiyin o'tadi. Molekulyar massasi 1000 D dan yuqori bo'lgan preparatlar esa - juda yomon o'tadi. Platsenta o'tkazuvchanligi homiladorlikning 32-35 haftasigacha ortib boradi. Stress holat va gestozlar platsenta o'tkazuvchanligini oshirishi mumkin.
2. Qo'llanayotgan dori vositasidan kutilgan potensial samara (homilador uchun ham, homila uchun ham), uning potensial xavfi yoki nojo'ya ta'sirlaridan yuqori bo'lishi kerak.
3. Dori vositasining farmakodinamik samarasi homilador va homilada bir xil bo'lmasligi va farq qilishi mumkin.
4. Ba'zi dori vositalari embrion va homilaga ma'lum muddatdan so'ng salbiy ta'sirini namoyon qilishi mumkin.

5. Dori vositalarining farmakokinetikasini homilador ayollarda o'zgarishi ularning bir marotabali dozasi, qabul qilish intervallari va organizmga yuborish yo'llarini korreksiya qilish kerakligini ko'rsatadi.

6. Homilada dori vositalarining ta'sir davomiyligi, ularning inaktivatsiya va chiqarilish tezligining past ekanligi tufayli, homilador ayollarga nisbatan uzoqdir.

7. Dori vositasining platsenta orqali o'tishi va homilaga ta'sir etishida quyidagi kritik omillar rol o'ynaydi:

- preparatning fizik– kimyoviy xossalari;
- preparatning platsenta orqali o'tish tezligi va homila organizmga o'tadigan miqdori;
- ta'sir qilish davomiyligi;
- dori vositasining homila to'qimalarida taqsimlanish tasnifi;
- dori vositasi ta'sir etish vaqtida platsenta va homilaning rivojlanish bosqichlari;
- preparatlarning kombinatsiyada qo'llash samaralari.

8. Bola ko'rish yoshidagi ayollarda qat'iy ko'rsatmalar va ishonchli kontratsepsiyasiz teratogen yoki embriotoksik ta'sirga ega bo'lgan dori vositalarini qo'llash kerak emas.

3. Homiladorlikda dori vositalarining nojo'ya ta'sirotlari klassifikatsiyasi.

Dori vositalarining homilaga salbiy ta'sir turlari:

DV xomilaga salbiy ta'sir turining quyidagi turlari mavjud.

➤ **Mutagen ta'sir** – somatik va jinsiy hujayralarda gen mutatsiyalari va xromosoma abberatsiyalarini rivojlanishi.

➤ **Embriotoksik ta'sir** – homiladorlikning dastlabki 75 kunida embrionning o'lishi.

➤ **Teratogen ta'sir** – turli anomaliyalarni kelib chiqishi. Teratogen ta'sirning quyidagi guruhlari farqlanadi:

❖ **blastopatiyalar** – homiladorlikning dastlabki 15 kunida kuzatiladigan anomaliyalar (anensefaliya);

❖ **embriopatiyalar** – homiladorlikning dastlabki 15-75 kunida kuzatiladigan anomaliyalar (yurak poroklari, mikrotsefaliya, katarakta, tug'ma karlik).

❖ **fetopatiyalar** – homiladorlikning 75 kundan so'ng kuzatiladigan homila rivojidagi anomaliyalar.

Embriotoksik va teratogen ta'sir xavfi bo'yicha dori vositalari quyidagi guruhlarga bo'linadi:

➤ **YUqori xavf darajasiga ega bo'lgan dori vositalari.** Bu dori vositalari qo'llanganda homiladorlik to'xtatilishi kerak:

1. Sitostatiklar (metotreksat, vinkristin, ftoruratsil, siklofosfamid).
2. Zamburug' va o'smaga qarshi antibiotiklar (aktinomitsin, rubomitsin).
3. Immunodepressantlar (azatioprin, imuran). Ular jinsiy hujayralarga ham ta'sir etadilar. YUkoridagi dorilarni ta'siri erkaklarda 3 oygacha va ayollarda 6-12 oygacha saklanadi.

YUqoridagi preparatlar ta'siri erkaklarda 3 oy va ayollarda 6-12 oy mobaynida saqlanadi.

➤ **Ancha xavf darajasiga ega bo'lgan dori vositalari.** Ularni homiladorlikning dastlabki 3-10 haftasida qo'llash embrionni o'limiga yoki o'z-o'zidan tushishiga olib kelishi mumkin:

1. Antibiotiklar (aminoglikozidlar, tetratsiklinlar, rifampitsinlar).
2. Antiprotozoy preparatlar – aminoxinolin hosilalari, xinin preparatlari.
3. Titrab-qaqshashga qarshi preparatlar (fenitoin, karbamazepin).
4. Parkensonga qarshi preparatlar.
5. Litiy tuzlari.
6. GKS.
7. NSYAK dori vositalari.
8. Og'iz orqali beriladigan gipoglikemik preparatlar.
9. Etil spirti
10. Bilvosita ta'sir qiluvchi antikoagulyantlar.
11. Antitireoid preparatlar (merkazolil, yodidlar).

➤ **O‘rtacha xavf darajasiga ega bo‘lgan dori vositalari:**

1. Mikrobg qarshi sulfanilamid preparatlari.
2. Metronidazol.
3. TAD.
4. Trankvilizatorlar.
5. Jinsiy gormonlar (estrogenlar).

Farmakokinetikaning embrion va xomilaning rivojlanish jarayonlari bilan bog‘liqligi.

Klinik aspekt va katta yoshdagi insonlarga xos bulgan kuyidagi xolatlar: embrional davr, fetal va perinatal davrlar muxim urin tutadi.

Dori vositalarining ijobiy va salbiy samaralari orasidagi farklar konkret biologik tizimda rivojlanadigan vaktga, ‘ni uzgaradigan shart-sharoitlarga bog‘liq, ammo u yoki bu dori vositasining asosiy aspetklari organizm rivolanishining barcha boskichlarida uzgarmasdan koladi. Dori vositasining tarkalishi, yigilishi va eleminatsiyasi jarayonlariga tegishli bulgan xususiyatlari organizm rivojlanishi boskichlariga bog‘liq emas.

Olib o‘tish (o‘tkazuvchanlik)/absorbsiya

Xomidadorlikning barcha davrlarida xomilaga dori vositalari utib turadi, lekin xomila rivojlanishining turli davrlarida dori vositasining olib o‘tilish tezligi va darajasi uzgarib turadi. Kuppina vositalarning xomilaga utishi asosan oddiy diffuziya yuli bilan amalga oshiriladi, ammo olib utilishning boshka murakkab shakllari mavjud bulishi mumkin.

Platsenta orqali olib o‘tish mexanizmi

Dori vositalarini platsenta orqali olib o‘tilish jarayonini boshka biologik membranalar, ya’ni gematoensefalik tusik va ichak devori orkali utishini urganishda kullanadigan usullar orkali tasavvur kilish lozim. Kiska kilib aytadigan bulsae, xomiladaorlikning turli boskichlarida turli moddalarni olib utilishi bir xil bulishi mumkin emas. Xomiladorlikda olib utilish jarayoni xomilaning xar bir moddaga bulgan talabi buyicha boshkarilishi kerak.

Platsenta orqali olib o‘tish mexanizmi

- ❖ Oddiy diffuziya
- ❖ Engillashgan diffuziya
- ❖ Faol transport
- ❖ Pinotsitoz
- ❖ Membranalar teshigi orqali o‘tish

Diffuziya - moddalarning konsentratsiyasi yuqori bo‘lgan muhitdan past bo‘lgan muhitga passiv ravishda o‘tishi. SHunday kilib, vorsinkalaroar bushlikdagi kandaydir moda konsentratsiyasining oshishi, uning xomilaga utishi tezligini oshirsa, konsentratsiyaning kamaymshm esa utish iezligini pasaytiradi. Xudi shunday xomila konida kandaydir moddaning kamayishi ona konidan olib utish tezligini oshishiga sabab buladi. SHunnigdek, platsentar tusikning xomila tomonida kandaydir moddaning kupayishi onadan platsenta orkali utish tezligini pasaytiradi. Suv, elektrolitlar, nafas gazlari va kuppina dori vositalari platsentar membranadan oddiy diffuziya yuli orkali utadi. Ammo utish tezligiga platsentar membrana kalinligi ta’sir kursatadi, bunda membrananing nozik joylari moda almashinuvi uchun kuprok ishtirok etadi. Kandli moddalar, masalan, glyukoza, uning fizik-kimyoviy xususitidan kelib chikib, kutilganiga karaganda platsentadan yukori tezlikda utadi. Platsentar membranadan olib utishning bu turi «engillashgan diffuziya» bulib, bu platsentada moddalar utishiga yordam beruvchi maxsus tizim mavjudligini kursatadi.

Faol transport

Faol transport – moddalarning bunday o‘tish usulida, ular maxsus transport vositasi ishtirokida platsenta orqali o‘tadi. Bunday olib utishda nafakat molekula ulchami, balki olib utuvchi moddaning ishtirok etishi asosiy urin egalaydi. Bu xolat vorsinkalararo bushlikka kelib

tushgan molekulargina platsentadan uta olishini kursatadi; aminokislotalar, suvda eriydigan vitaminlar va immunoglobulinlar platsentadan shu yul bilan uta oldi.

Pinotsitoz

Pinotsitoz – moddalar o'tishining bu turida ona plazmasi tomchilari sinsitiya mikrovorsinkalari orqali shimiladi. Elektron-mikroskopik tekshirishlarda mikropinotsitik pufakchalar odatda sinsitiyning bevosita orkasida joylashganligi aniklanadi va ular pufakchali tuzilmalar bulib, oksillarni tanlab btish uchun xizmat kiladi. SHunday kilib, katta molekulalar, oksillar, viruslar, antitelalar platsentadan shu yul bilan utadi.

Membranalar teshigi orqali o'tish.

Lipid membranasi teshiklarning mavjudligi, ushbu membrananing o'tkazuvchanligini aniqlovchi muhim omildir. Platsentar membranalar teshigi, me'da-ichak va gematoensefalik tusik membranalar teshiklari singari bir diametriga 10 A (1nm) ega va ular orkali fakat molekulyar massasi 100 dan kichik bulgan molekulalar uta oladi.

Dori vositalarini platsentar membrana orkali utishiga ta'sir etuvchi omillar

Xomiladorlikning birinchi trimestrida deyarli barcha dori vositalari ona konidan embrionga utadi. Xomila xujayralari xudi ona xujayralari singari ta'strga uchraydi, lekin tez usayotgan xomilaning xujayra strukturalari ona xujayralariga karaganda farmakologik ta'sirga juda sezgir buladi. SHunday kilib, xomiladorlikning erta boskichlarida kullanadigan dori vositalari xomilani osonlik bilan jaroxatlashi mumkin. Fakat xomiladorlikning ikkinchi trimestrida xomilaga utayotgan ma'lum bir moddalarni tanlash funksiyasini boshlaydi va xomila xujayrasi organogenezi oxiriga kelib stabil funksiyani bajara boshlaydi.

Diaplaysentar o'tkazuvchanlik

Hamma biologik membranalar kabi platsentar membrana ham lipofil (gidrofob) moddalar uchun o'tkazuvchandir. Ammo, gidrofil moddalar ham platsenta orqali o'tishi mumkinligini e'tiborga olsak, platsenta mutlaq lipid membrana emas ekanligini anglash mumkin. Gidrofil molekular suv bilan to'lgan teshiklar orqali o'tishi tufayli lipid barerni chetlab o'tadi. Gematoensefalik barerdan farqli platsentadagi teshiklar miqdori juda ko'p bo'lganligi uchun, u orqali gidrofil moddalar gidrofob moddalar kabi tez o'tishi mumkin. SHuning uchun platsentar membranani ifodalash uchun **«lipid-teshikli membrana»** termini qo'llaniladi.

Modda almashinuvida ishtirok etadigan organ sifatida platsenta ma'lum funksiyalarni bajaradi va uning vazifasi tugrikdan keyingi davrda buyraklarga, upkaga, me'da-ichak yuliga va jigarga utadi. ammo, moddalarni faol transporti jarayonida molekulyar darajada kanaka uzgarishlar kelib chikishi ayni vaktida etarlicha aniklanmagan. Moddalarni platsentaning almashuv yuzasidan diaplaysentar olib utish platsentar membrananing xam fiziologik xam patologik xolatlarda faol funksiyasi xisoblanadi. U turli moddalarni olib utishda selektiv nazoratni amalga oshiradi. agar moda strukturasini uzgarmagan bulsa, xar kandy modda onadan xomilaga utishi mumkin. Agar bu xolat kuzatilsa, bunday moddalar uchun platsentaning utkazuvchanligi axamiyatga ega bulmaydi, xamda uning mikdori muxim bulmaydi. Moddalar diaplaysentar transportining mikdoriy xarakteristikasi juda chegaralangan, ammo bu jarayonning sifatiy xususiyatlari tugrisida ma'lumotlarga egamiz.

Homila qobig'i va paraplaysentar o'tkazuvchanlik

Homila qobig'i homilani silliq xorion va amniyondan hosil bo'lgan ikki qavatli qop kabi o'rab turadi. Homila qobig'i homila suyuqligi va homila uchun na faqat «konteyner» bo'lib xizmat qiladi, balki moddalarning passiv va faol almashuvida ishtirok etuvchi o'ziga xos membrana hamdir.

Moddalarning platsenta orqali onadan bolaga va, aksincha, boladan onaga o'tishida diaplaysentar o'tkazuvchanlikka qo'shimcha **paraplaysentar o'tkazuvchanlik** ham mavjuddir. Moddalar absorbsiyasida homila qobig'i ko'rinishidagi barer bilan birgalikda ovqat xazm qilish

trakti, o'pka va homila terisi (**transmembranali, xorioamniyal yoki amniotik yo'l** deb tavsiflanadigan) ham ishtirok etadi. Ichak va buyraklar ekskretsiya jarayonida ishtirok etadi

Moddalarning bunday transport usuli, moddalarni olib utishning xudi diaplasentalar yuli singari, nafakat ona va xomila konini, balki konganok suvi va xomila siydigini xam kamrab oladi.

Kupgina tekshirishlar shuni kursatdiki, platsentadan utish tezligi u yoki bu moddani ionlashmagan shakliga, yogda eruvchanligiga, molekula ulchamiga va kon rN muxitiga bog'liq ekan

YOgda eruvchanlik platsentadan moddalar utishida muxim omillardan biri bulib xisoblanadi. YOgda eruvchan moddalar platsentadan xomila koniga osonlik bilan utadi, chunki dori molekulari platsentalar membranadan ionlashmagan shaklda

utadi, shuningdek ba'zi yogda eriydigan moddalar (masalan, antipirin, tiopental) platsentadan juda tezlik bilan utishi mumkin.

Ikkinchi tomondan yogda erimaydigan moddalar membranadan sekinlik utadi. Suksinokolin, a-tubokurarin va geparin singari yogda erimaydigan birikmalar yukori ionlashgan moddalar bulib ular platsentadan sekin utadi. Platsentalar membrana orkali utish tezligiga elektrik zaryadlar xam ta'sir etadi. Bu membranalar Na^+ , K^+ , Cl^- ionlari uchun utkazuvchan, lekin bu ionlar suv, siydik molekulari va boshka kichik ulchamli molekularlarga karaganda membranadan sekin utadi.

Umuman kichik molekularli moddalar .kuri molekularli moddalarga Karaganda oson va tezrok utadi. Kupgina dori vositalari 250 dan to 500 gacha molekulyar ogirlikka ega, shu sababli ular platsentadan oson utadi. Molekulyar ogirliqi 700-1000 dan yukori bulgan moddalar, oksillar va peptidlar membranadan sekin utadi. Bularga kushimcha sifatida platsentalar kon aylanishni ona yoki xomila ta'sirida uzgarishi xam moddalarni platsentadan utishiga muxim ta'sir kursatadi.

Onaning sistem kasalliklari, ya'ni kandli diabet, preeklampsiya va boshkalar singari kasalliklar tufayli platsentadagi patologik uzgarishlar platsentani utkazuvchanligini oshiradi. Bachadon kiskarishi, xomila yoki ona xolatining uzgarishi, anesteziya yoki kindikni bosilishi tufayli kon aylanishi uzgarishi okibatida moddalarni platsentadan utishi kanday uzgarishi noma'lumdir.

Xozirgi vaktida, ogir eklampsiya sababli kon xajmining kamayishi bachadon-platsentalar kon aylanish etishmovchiligi bilan kechishi isbotlangan. Me'rida kechayotgan xomiladorlik vaktida ona kon omiri angiotenzinga nisbatan pasaygan buladi. Ma'lumki, diastolik bosimni 20 mm.sim. ust. oshirish uchun xomilador ayolga xomilador bulmagan ayolga Karaganda angiotenzinni 2 marta kuprok mikdorda yuborish kerak buladi. SHuningdek, angiotenzinga nisbatan reaksiyani pasayishi kisman prostaglandin sintezi bilan bog'liq buladi. bundan tashkari preeklampsiya kon omirlarni angiotenzinga sezgirligini xudi xomilador bulmagan ayollarniki singari xolatga olib kelishi aniklandi. Normal platsentalar prostaglandin E_2 ni sintezlashi lozim, u esa uz navbatida xomilani kon bilan ta'minlashda va platsentalar kon aylanishda boshkarishda ishtirok etadi. Xomiladorlikda angiotenzin II ga sezuvchanlikni pasayishi prostaglandin E_2 kon tomirlar sezuvchanligini pasaytirishi bilan bog'liq bulishi mumkin.

Masalan, xomiladorlikning ilk boskichlarida yuzaga keladigan takroriy kayt kilishlar okibatida metabolik uzgarishlar rivojlanadi va ular farmakokinetikaning buzilishiga olib keladi. Bunday xolatlarda dori vositalari fakat parenteral yuboish lozim buladi.

Xaar bir vena ichiga yuborishdan sung dori vositasining onadan xomilaga utish yullaridagi konsentratsiyasi orasida katta farqlar kuzatiladi. Buning okibatida esa yuborilgan dori vositasining konsentratsiyasi xomilada juda yukori buladi; shunga uxshash, xomiladorlar toksikozi uchun xos bulgan (shish, proteinuriya, gipertenziya) xolatlarda dori vositalarini xomilaga utishi tezlashadi.

Kichik molekulyar uzgarishlar xam diaplasentalar utkazuvchanlik jarayonida anik uzgarishlarga olib keladi. Diffuziya xajmi kupgina uzgaruvchan kursatkichlar funksiyasiga bog'liq buladi. Xomiladan onaga moddalarni utkazish xususiyati interstitsial bushlik va vorsinkalar xajmiga bog'liq buladi. Dori vositasi ta'siri

Dori vosiatlari farmakokinetikasida dia- va paraplasental utkazuvchanlikning urni

Dori vosiatlari farmakokinetikasida dia- va paraplasental utkazuvchanlikning urni klinik farmakologik tadkikotlarning eng muxim yunalishlaridan biri – transplatsentalar (dia- va

parapratsental) kinetika uz rivojlanishining dastlabki boskichlarida turibdi. Xomila – platsenta – ona kompleksida ikkita asosiy farmakokinetik jarayon xal kiluvchi axamiyatga ega .

1. diaplatsentar utkazuvchanlik
2. paraplatsentar utkazuvchanlik

ularni birgalikda muxokama kilish lozim, chunki ular funksiyasi ajralmasdir. Xomila – platsenta – ona kompleksida kompelsidagi farmakinetik xususiyatlar xomiladorda xam mavjud. Xomiladorlar kon zardobida moddalar konsentratsiyasining pastligi ularni tarkalish xajmi oshishi va klirensni kupayishi bilan bog‘liq. Tugrik vaktidagi ayollarda xam tarkalish xajmi oshganligi kuzatiladi, lekin klirens pasayganligi natijasida u yoki bu dori vositasining eliminatsiyasi kamayadi.

Kogonok suvlari dori vositalari uchun ajoyib xovuz xisoblanadi; aytish mumkinki xomila ularni uzok vakt davomida yutadi. Xomila oldida turgan boshka farmakokinetik vazifalarga dori vositasini almashuv yuzalariga utkazish (vektor funksiyasi) va xomila organizmida faollashadigan ferment tizimlari orkali bajariladigan metabolik funksiya. Ammo shuni aytish kerakki, xomilada dori vositalarining metabolizmi juda past. Masalan, gematoensefarik tusik fakat postnatal davrga kelibgina uzini tulik funksiyasiga erishadi. Tugrikkacha va tugrik vaktida xomila bilan birga kogonok suvlar xam ona organizmining muxim kompartmenti xisoblanadi. Ushbu kompartmentlardan dia- va paraplatsentar utkazuvchanlik diffuziya konunlariga mos ravishda kechadi va moddaning molekulyar massasi, yogda eruvchanligi, konsentratsiya gradientiga bog‘liq buladi. Tarkalish bushliklari va oltita kompartmentdan tashkari yana xomiladorlik davrini xam xisobga olish kerak. YUkoridagi oltita kompartment dia- va paraplatsentar utkazuvchanlik xamda metabolik jarayonlar orkali bir-biri bilan bog‘liq. Konsentratsiya gradienti va yogda eruvchanlik kanchalik yukori bulsa xamda molekulyar massa kanchalik kichik bulsa unda bu dori vositasini ona va xomila organizmida bir xil konsentratsiyada tarkalishiga shunchalik tezrok erishiladi. Odatda u yoki bu dori vositasining konsentratsiyasi xomila zardobida ona kon zardobidagi konsentratsiyaning 50-80% ni tashkil etadi. Buni xomilada suvni nisbatan kuprokligi va yoglarning nisbatan kamrokligi bilan tushuntirish va xomila zardobida oksil konsentratsiyasini pastligi xamda uni boglash xususiyatini pastligi bilan bog‘liqdir. Xomilada dori vositalarining konsentratsiyasining ona koni zardobidagi konsentratsiyadan oshib ketishi fakat eliminatsiya fazasida kuzatiladi, ayniksa yogi juda kam eriydigan dori vositalari uchun xos bulib, ular sekin diffuziyalanish xususiyatiga ega. Bir dori vositasini diaplatsentar va paraplatsentar utkazish jarayoni boshka dori vositasidagi xuddi shu jarayondan fark kiladi, lekin u yoki bu moddaning fizik yoki ximik xususiyatlari asosiy rol uynaydi, paraplatsentar va diaplatsentar utkazuvchanlik farma kinetika uchun dori vositalarini (kuchli analgetiklar va bk) yuborish yuli xam muxim axamiyatga ega.

Masalan, xomiladorda xomiladorlikning ilk boskichida rivojlanadigan va metabolik uzgarishlarga olib keladigan takroriy kayd kilishlar natijasida farmakokinetika buzilishi mumkin. Imkon kadar bu xolat kelib chikishining oldini olish zarur va mabodo rivojlanadigan bulsa dori vositalarini fakat parinteral yuborish mumkin.

Dori vositalarni platsentadan utishi metabolizmi .

Bir kator dori vositalari platsentadan metadolizmga uchragandan sung, yaxni platsentada uzgarishga uchrab engiil utadigan maxsulotlarga aylanib xomilaga utadi.

Masalan, glyukoza ona kornidan platsentaga utgach fosforlanadi va xomila koniga utishdan oldin fruktozaga aylanadi. (Ayvonio) xayvonlarda dori vositalarining ta’sir davomiyligi ularning metabolizmi va ekskretsiyasi bilan chegaralanadi.

Masalan: odam va kemiruvchilar platsentasi bir xil gemokoreal turga kiradi, ammo kemiruvchilar platsentasi androgenlarni aromatik katorga utkazmaydi. Odamlarda esa ularga teskari ravishda androgenlar tezlik bilan aromatlanadi. Inson platsentasida dori vositalar metabolizmi xuddi jigardagi kabi 4 xil yunalishda uzgarishga uchraydi: oksidlanish, kaytarilish, kan’yukatsiya va gidroliz. SHundan kelib chikib platsenta dori vositalarni biotraneformatsiyasini amalga oshiradigan muxim a’zoldan biri bulishi mumkin. YA’ni dori vositalari va yot moddalarni kimyoviy strukturasini katalizlovchi uzgarishlar chikarishi mumkin. SHu sababli platsenta xomilani xayoti

uchun xavf tugdiruvchi yot organik moddalardan ximoya kiluvchi oxirgi biyokimyoviy birikma xisoblanadi.

Boshkacha kilib aytganda, platsenta dori vositalari va boshka kiyoviy moddalarning biosintezini va degidratatsiyasida ishtirok etuvchi faol fermentlar tizimiga ega.

Xomilada steroid garmonlarni platsentadan utish vaktida metabolik uzgarishi va ular transportining sekinlashuvi kuzatiladi.

Ikkinchi tomondan ona va xomila orasida dori vositalarni ikki tomonlama ushish gidrolitik fermentlar faolligiga nisbatan boglanish xususiyati ancha kam.

Embrion va xomila orasida ksenobiotiklarni platsentalar utkazishga nisbatan fakat mikdoriy farqlar mavjud. Xomiladorlik vakti oshishi bilan platsentalar almashinuvi xisobiga absorbsiya imkoniyati kengayadi. Dori vositalari takroriy yuborilganda xamma a'zolaridagi ularning konsentratsiyasi ona konidagi konsentratsiyaga teng buladi yoki undan yukori bulishi mumkin.

Embrional rivojlanishning ilk boskichlari (zigota, blastatsist) tugrisidagi ma'lumotlar juda kam xamda ular xayvonlarda bajarilgan tajribalar asosida xulosa kilingan.

Blastatsistga kimyoviy moddalar endometrik orkali utishi mumkin. Ma'lum bir dori vositalari masalan, Barbitall va Tolbutsimit blastatsistdagi RN yukori bulgan suyuqlik mavjudligi uchun kuyonlar blastatsieti implantatsiyasidan oldin blastatsistda tuplanadi. Xomiladorlikning 2-3 trillistirida embrionga dori vositasining utish tezligi tezlashadi. Masalan, tiopentalni ona korniga yuborilgandan bir necha dakikadan keyin inson embrion tukimalarida aniklanadi va uning konsentratsiyasi ona kornidagi konsentratsiyaga nisbatan xomilada 30-40%ni tashkil kildi. Kupgina dori vositalari uchun ona koniga nisbatan xomila tukimalaridagi konsentratsiya pastligi xosdir.

Fital davrida, ya'ni xomiladorlikning 60 kunidan tugrikkacha bulgan davrida morfologik va funksional jarayonlarda kup sonli uzgarishlar kelib chikadi. Dori vositalari samarasiga nisbatan embrional davriga karaganada bu davr diagnostik va terapevtik choralari anchagina anikrok urganilgan. Ona va xomila urtasidagi ksenobiotiklar almashinuvi asosan platsenta orkali amalga oshiriladi. Bundan tashkari dori vositalari xomila terisi yoki yutilgan koganok suvi bilan me'da ichak yuli orkali dori vositalari absorbsiyalanadi.

Perinatal davr tugrik vaktida boshlanib bola xayotining birinchi oyida tugaydi. Bu boskichni asoslash uchun odatda kullanadigan atamalardan farqlash uchun uning eng kechki oxirgi chegarasi etilish jarayonini tulik kamrab olish uchun kabul kilingan. Umuman, bu boskichda ona va xomila orasidagi almashinuv jarayoni rivojlanishning ilk davrlari singari kechadi, ammo xomila tugilish jarayonida almashinuv kisman pasayadi. Xomiladorlik davriga karama-karshi dori vositalari chaqaloqlarga bevosita yuboriladi. Neonatal davrda yutilgan dori vositalarining absorbsiyasi katta odamlardagi xuddi shu dori vositalarining absorbsiyasidan biroz fark kiladi; Bu erda asosiy omillar bulib me'da shirasining gipoxlorgidriyasi va dori vositasining me'da ichak yulidan sekin utishi xos. Rivojlanishning bu boskichida nisbatan katta yoshdagi bolalar bilan solishtirganda ichaklarda absorbsiya jarayoni uzgargan bulishi mumkin. Bir kator penitsillinlarning biosinguvchanligi oshadi, rifampitsin va fenobarbital biosinguvchanligi esa kamayadi. Ammo, digoksin, bir kator sulbfonamidlar va trimetoprim esa katta yoshdagi bolalardagi kabi tezlikda suriladi.

Ona suti orkali dori vositalarini utish mikdori terapevtik dozaga karaganda ancha kichik, ammo xuddi shu yul bilan sensibilizatsiya kelib chikishini oldini olib bulmaydi. Dori vositalarining yukori konsentratsiyasini laktatsiyaning erta fazalarida aniklash mumkin. Teri orkali absorbsiya, ayniksa chaqaloqlarda va chala tugilgan bolalarda yukori bulishi mumkin.

Tarkalishi

Dori vositalarini tarkalish jarayoni xomila rivojlanayotgan davr ichida tarkalish bushliklari va konkret dori vositasini xususiyatlari bilan korrelatsiyalanadi. Odatda, xomiladorlikning ilk boskichlarida, kech boskichlarga karaganda dori vositalari keng tarkalish tendensiyasiga ega. Nishon-a'zoga ta'sir etishi lozim bulgan dori vositalari katta yoshdagi kishilardagi kabi tarkalish xuususiyatini namoyon kiladi.

Masalan, antitireod vositalar kalkonsimon bezda tuplanadi; fenotiazin esa melanin saklovchi tukimalarda; progesteron buyrak usti bezida, gipofizda, urugdonlarda, kalkonsimon va ayrisimon bezlarda; tetratsiklinlar skeletda tuplanadi.

Embrion tukimalarida xujayradan tashkari suyuklik miqdorining yukori bulganligi sababli benzilpenitsillinlar manna shu bushlikda kuprok aniklanadi. Bir kator dori vositalarining embrion va ona tukimalarida tarkalish darajasi bir xil ekanligini eksperimentda isbot kilingan. Katta odamlarga teskari ravishda, xomilaning chikaruv a'zolarida –buyraklar, siydik pufagi, ut pufagi va ichaklarda dori vositalari tuplanmaydi.

Fetal davrning turli boskichlarida dori vositalarini tarkalish su'rati moddalar transporti mexanizmi va tarkalish bushliklarining uzgarishiga karab uzgaradi.

Masalan, xomiladorlikning 3-oyidan to 9-oyigacha bachadon-platsentar kon aylanish 10 martagacha ortadi.

Bundan tashkari bu davr ichida xomila tanasi strukturasi katta uzgarishlarni boshdan kechiradi.

Bundan tashkari, xomiladorlikning 20 xaftalarida xomila tanasidagi suyuklik 93% dan 40 xaftaga kelib 72% gacha kamayadi; xuddi davrda lipidlar miqdori 0,3% dan 1% gacha, oksil miqdori esa 0,4% dan 9% gacha oshadi. Butun fetal davr ichida kon zardobida oksillarni transporti 1-2g% dan 5 g% gacha oshadi. Ammo, xomila zardobi oksillarining dori vositalarini boglash xususiyati ona zardobiga karaganda, ba'zi dori vositalari uchun ancha past.

Perinatal davrda xomila va chaqaloqlarda dori vositalarini tarkalish darajasi bir xil buladi.

Nisbatan katta yoshdagi bolalar bilan solishtirganda tukimalardagi suyuklik miqdori kuprok va lipidlar miqdori ancha kamrok buladi. SHu sababli yogda eriydigan dori vositalarining (masalan, narkotiklar) tarkalish xajmi pasaygan, shu vaktga suvda eriydigan dori vositalarini (salitsilatlar, atropin) tarkalish xajmi oshgan buladi.

Masalan, ampitsillinning chaqaloqlarda nisbiy tarkalish xajmi 0,59 ml/g ni kattalarda esa 0,28 ml/g ni tashkil etadi.

CHaqaloqlarda xomiladagi kabi faol transport jarayonlari pasaygan, oksillarni boglash xususiyati kichik va yoki fiziologik moddalar (bilirubin, yog kislotalari) bilan chegaralangan va ba'zi membranalar tula etilmagan buladi.

Tuplanish xususiyati ayniksa lipofil moddalar uchun oshib boradi. Odatda, dori vositalari xomila jigarida eng kup tuplanadi.

Xomilaning kon aylanish tizimida 60-85% kon kindik venasidan darvoza vena si orkali jigarga keladi va 15-40% ga yakin kon venos yullari orkali jigarga bevosita keladi. Tukimalar tarkibida yuzaga keladigan uzgarishlarga va xomilada kon aylanishini rivojlanishiga mos ravishda bir kator a'zolar ayniksa, jigarning dori vositalarini yutish xususiyati oshadi. Xomila jigaridagi bu moddalar konsentratsiyasi ona konidagi konsentratsiyadan yukori bulishi mumkin, ammo juda kam xollarda ona jigaridagi ularning konsentratsiyasi darajasiga etadi. Xomila jigari turli metallarni tuplash xususiyatiga ega: Ag, Cu, Zn, Mn, Cr, Co. xomiladorlik davri uzayishi bilan 20-xaftadan boshlab, Cu va Zn konsentratsiyasi katta yoshdagi odamlarga karaganda xomilada yukori. SHunday kilib, xomilada jigar ekzogen moddalarni asosiy yigilish joyi xisoblanadi va u boshka a'zolarga nisbatan ximoya kilish funksiyasini bajaradi. Ammo, xozirgi davrgacha yigilgan moddalarni barchasi metabolizmga uchrashi yoki uchramasligi anik emas. Xayvonlarda bir kator muxim dori vositalari masalan, fenilgidantoin, tarkalishi tugrisida kupgina ajoyib makolalar berildi, biroq insonlarda bunday tekshirishlar juda kam utkazilgan.

Xomila a'zolari rivojlanishi va etilishi darajasi bilan, ya'ni xomila ona kornida rivojlanishi davrining oshishi bilan dori vositalarining tarkalishi xam uzgaradi.

Masalan, radiaktiv progesteronni mushak ichiga in'eksiya kilanganidan keyin 6 oylik xomila tukimasida tarkalishi xuddi kindik venasi orkali yuborilgandagi kurinishga ega. Ushbu dorini xomila tukimasi tomonidan yutilishining oshishi bilan bog'liq bulib uning asosida maxsus kiyoviy uxshashlik yoki metabolizm xususiyatlari yotadi. 12-16 xaftali xomilada S - diazepam tarkalishini urganish shuni kursatdiki, onaga bu dorini yuborgandan 1 soat utgach, xomilaning barcha tukimalarida tarkalishi eng yukori nuktaga chikishi aniklandi. Bu vaktga diazepam konsentratsiyasi

konga nisbatan me'da-ichak yulida kuprok bulgan. Dorini bosh miyaga utishi kechikkan, ammo 6 soatdan sung dori konsentratsiyasi bu a'zoda konga karaganda yukori bulgan. Xomila rivojlanish davrining oshishi bilan, unda metabolizm uzgarishi ta'sirida dori vositalarining tarkalish sur'ati uzgarishi mumkin.

Masalan, 31 xaftali xomilada N – dimetildiazepam bir kator a'zolarida diazepam konsentratsiyasi bilan solishtirganda, ancha yukori bulishi aniklandi. Dori vositalarining tarkalishiga kon aylanish tizimadan tashkari xomila rivojlanishining turli davrlarida membrana utkazuvchanligi turli darajalari xam ta'sir kursatadi. Kupgina dori vositalarini MNSga ta'sirini xisobga olib, xomila gematoensefalik tusigi kup marta tekshirilgan va kuyidagi asosiy natijalar olingan:

- Kon/Serebrospinal suyuklik tusikning yukori utkazuvchanligi;
- moddalarning faol transportining turli mexanizmlari;
- kapilyarlar utkazuvchanligi, kon aylanishi va miya korinchalaridagi va bosh miyadagi serebrospinal suyuklik xajmi nisbatining uzgarishi..

Konlarda gematoegsenfarik tusik tulik rivojlanmagan shshu sababli xomiladorlik vaktida dori vositasini bosh miyadagi va serebrospinal suyuklikdagi konsentratsiyasi kon plazmasidagi konsentratsiya darajasiga etishi mumkin. Bir kator olimlarning fikricha xomiladorlikning 7 va 8-xaftalari oraligida ichki va tashki serebrospinal suyuklik almashinuvi kuzatiladi. SHunday kilib, ekzogen moddalarni bosh miya kapilyarlaridan xujayradan tashkari suyuklikka utishidan tashkari moddalar kuz pardasi kon tomiri, ependima va piagiall membranalar orkali kushimcha yullar bilan utadi.

Silga karshi r – aminosaltsil kislotaning tarkalishi xomiladorlik davriga bog'liq bulishi aniklangan. Xoimladorlikning ilk davrlarida bu dori asab trubkalari devorida joylashadi, lekin xomiladorlikning kechki boskichlarida u MNS da aniklanmaydi. Solitsil kislotani bosh miyaga utish tezligini pasayishi xomiladorlikning 10-20 xaftalarida kuzatiladi.

Metabolizm

Insonlar va kupgina xayvonlarda dori vositalari xamda boshka kimyoviy moddalar jigarda metabolizmga uchraydi. Xomiladorlik davrida platsentani metabolizmda ishtirokidan tashkari, moddalarni jigardan tashkari metabolizlanishi unchalik axamiyatga ega emas. Jigar asosiy rivojlanish boskichlari embrional va fetal davrning ilk boskichlarida buladi, biroq dori metabolizlaydigan fermentlar etilishi esa postnatal davrda kuzatiladi. Xomilada dori vositalarini metabolizlaydigan fermentlar xomiladorlikning 6 – xaftasidan boshlab paydo buladi, marfologik etuk gepatotsitlar 12 – xaftadan keyin aniklanadi. Bundan tashkari labarator xayvonlardan farkli ravishda xomilada xattoki xomialdorlikning ilk davrida kiyoviy moddalarni jumladan, dori vositalarini oksidlanishiga nisbatan yukori metabolik faollik mavjudligi isbot kilingan.

Xomila organizmida 8- xaftada 3,4- benzopiren va anilin gidroksidlanishi va 8-12 xaftalar oraligida bu jarayonning yanada tezlashuvi kuzatiladi. Xomilada N- demetillanish jarayonining rivojlanishi xam xuddi shunday kurinishga ega.

Bir fazalar reaksiyalari orasida metabolik xususiyat va rivojlanish boskichlari urtasida anik korrelyasiya mavjudligi gidrolizda aniklandi.

Xomiladorlikning birinchi trinestirida estirazalar faolligini bir necha substratlar yordamida namoyish kilish mumkin. Atsetilsolitsil (ASK) kislota gidrolizida xomiladorlik davri va fermentlar orasiad korrelyasiya mavjudligi aniklandi. ASK gidrolizini xomiladorlikning 6- xaftasidan kuzatish mumkin.

Ikkinchi faza reaksiyalari uchun xam xomila rivojlanishi davri va fermentlar faolligi orasida bog'liqlik bor. Ammo bu reaksiyalarni sistematik tekshirishlar kam utkazilgan. Xomila organizmida dori vositalarining metabolizmda biotransformatsiyaning bu turi muxim urin egallamasligi mumkin. Xomila rivojlanishi davri va substrat uzgarishi bilan glyukronil transferaza faolligi darajasi orasidagi o'zaro ta'sir juda uzgaruvchan. Xomila jigarida glyukronifaza faolligi yukori emas. Xomila rivojlanishining 3- va 7- oylari orasidagi davrda o- va r- aminofinolni boglanishiga nisbatan xomila jigar faol emasligi aniklangan.

Laborator xayvonlarda olingan natijalardan farkli ravishda inson xomilami glitsinni boglash xususiyatiga ega, u turli a'zolarida turli substratlarga nisbatan kuzatiladi. Xomila jigari va buyrak usti bezi sulfatni boglashi aniklangan.

Katta yoshdagi odamlarga karaganda perenatal davrda dori vositalarini metabolizlaydigan bir kator fermentlarning faolligi past buladi. Bu xammavakt xam nisbiy yoki absolyut ferment etishmovchiligi bilan bog'liq emas.

2- faza reaksiyalariga uchraydigan dori vositalarini yarim chikarilish vakti chaqaloqlarda uzaygan bulishi mumkin. Ayniksa, N demetillanishga uchraydigan petidil, amidopiril, diazepamlar singari moddalar uchun xos.

Gidroksillash xususiyati tugrikdan keyin kiska davr ichida etarli buladi(difenilgidantoin va korbamazepin).

Mikrosomadan tashkarida joylashgan fermentlar orasida xam perenatal davrda etilish jarayoni kuzatiladi: masalan, etanol metabolizmi fatal davrdan postfatal davrgacha oshadi.

Odamlarda va ba'zi bir xayvonlarda dori vositalarini metabolizlaydigan bir kator fermentlar, ayniksa II faza reaksiyalarida ishtirok etadigan fermentlar postnatal davrda tulik etiladi. Tulik etilishi uchun keak buladigan vakt turli fermentlar uchun turlicha buladi. II faza reaksiyalaridan eng kup, chaqaloqlar sarikligida uchraydigan, glyukuronidatsiya reaksiyasi urganilgan. Xomila jigari xususiyati bir kator substratlar uchun glyukuronidatsiyalashga etarli emas, lekin u tugrkdan bir necha hafta yoki oy utgach tulik etiladi.

Boshka muxim –glatation bilan boglanish reaksiyani urganish shuni kursatdiki, uning faolligi xomila rivojlanishi davri yoki postnatal yoshga bog'liq buladi. Salitsilatni glitsin bilan boglanishi postnatal davrda xam pasaygan buladi.

Ekskretsiya

Fetal va postnatal davrlarda buyraklar funksional xolatining, ayniksa faol buyrak jarayonlari uchun, pastligi ularni katta yoshdagi odamlar buyraklarining funksiyasidan farkanishiga olib keladi. Xomiladorlikning 3 oyidan boshlab buyrak funksiyasini kurish mumkin. Buyrak funksiyasi turli davrlarda uzining tulik xususiyatiga erishadi.

Xomilada buyraklarning kon bilan kam ta'minlanishi bois ulara filtratsiya tezligi va faol kanalchalar sekretiysi yukori emas. Uzining funksional xolatini asta-sekin oshirib, xomila buyraklari ksenobiotiklar va ularning metabolitlarini ekskretiysalashi mumkin buladi. Postnatal davrdan farkli ravishda fetal davrda yot moddalarni ekstrarenal ekskretiya kilinishini xam e'tiborga olish lozim. Taxmin kilinishicha ksenobiotiklarni xomila upkasi orkali ekskretiya kilish mavjud (donador pnevmotsistlar). Xomiladagi paraplastentar ekskretiyaning bunday turining biologik axamiyati xali urganilmagan. Aytish mumkinki, xomilada ichki xomila-amnionli sirkulyasiya mavjud bulib, u xomila tomonidan kotonok suvini yutilishi orkali kayta xomila organizmiga yot moddalar tushishi jarayoniga ta'sir kursatadi.

Postnatal davrda buyraklar ekskretor funksiyasi rivojlanishiga nisbatan kupgina ma'lumotlar olingan. Buyrak funksiyasini tekshirishdan tashkari dori vositalarini metabolizmi yullarini urganish xam muxim. Eliminatsiya jarayonlarini xar tomonlama urganib dori vositalari yarim chikarilishi davrlari orasidagi farklarni tushuntirish xam muxim.

Bir kator sulfonamidlar (sulfisoksazol, sulfisomid) yarim chikarilish davri kattalarga karaganda chaqaloqlarda bir necha marta yukori. Boshka sulfonamidlar (sulfadimitoksin) yarim chikarilish davri chaqaloqlarda xam katta yoshdagi bolalarga teng bulgan kursatkichga ega. Bu buyrak diffuziyasi va reabsorbsiyasi jarayonlariga kushimcha ravishda boshka ekstrarenal omillarning eliminatsiya jarayoniga ishtirokini kursatadi.

Xomiladorlikning ushbu davri uchun ogirliigi kichik bulgan xomilada va xuddi shunday chaqaloqlarda penitsillin, tetratsiklin, gentamitsin va sefaliksinlarning, katta yoshdagi bolalarga karaganda yarim chikarilish davri yukori. Ampitsilin mushak orasiga yuborilgandan keyin postnatal davrning birinchi 2 haftasida yarim chikarilish davri yukori buladi, lekin bu davrning 2-4 davrlarida keskin kamayadi va postnatal xayotning birinchi oyidan keyin boshka uzgarishlarga uchramaydi. Kanamitsin, neomatsin va streptomitsinlar uchun xam xuddi shunday uzgarishlar aniklandi.

Rediffuzer kamayishi natijasida fenobarbital va liditaksin ekskretsiyasi sezilarli uzgaradi. Bolalarda bu dorilar kattalarga karaganda tezrok chikadilar.

BA'ZI GURUX DV ning XOMILA VA YANGI TUGILGAN CHAQALOQLARGA KURSATADIGAN TA'SIRLARI.

Kayta kilishga karshi va /yoki sedativ ta'sirga ega DV. . 2 80% xomiladorlarda paydo buluvchi eng birinchi belgilardan biri-kungil aynishi va kayt kilishi, ayniksa ertalab. Bu belgilar odatda xomiladorlikning 2-4-xaftasidan boshlanib, 12-14 xaftalarda yukoladi (kupincha uz xolicha).

Taxminan 20% xomiladorlarni xomiladorlikning oxirigacha kungil aynishi va kayt kilish bezovta kiladi. Odatda bu xolatlar DV yordamida davolashni talab kilmaydi. Agarda kayt kilish natijasida kuchli degidratatsiya, tana ogirligining kamayishi,metabolik atsidoz rivojlanishi kabi xolatlar kuzatilsa, u xolda farmakoterapiya utkazish maksadga muvofik buladi. MNS va MIY ning organik kasalliklari yukligi aniklangandan sung vitamin V 6 (50-100 mg/sut)kupincha pipolfen, diprazin (10-25 mg/sut)bilan birgalikda buyuriladi,metoklopramid (10 mg m/o yoki 5 mg v/i xar 6 soatda), yoki bromoprid buyuriladi, ular yuldoshdan sekin utib, tez metabolizlanadi. Metoklopramid va bromopridni asosan kuchli kayt kilishlarda va albatta xomiladorlikning kechki boskichlarida beriladi.

Antigipertenziv DV-onada KBni oshishi xomilaning fetoplatsentar kon aylanishini uzgartirib salbiy ta'sir kursatadi. Miotrop spazmolitiklar (dibazol, papazol,no-shpa,papaverin gidroxlorid)xomilaga salbiy ta'sir kursatmaydi. Magneziya sulfat xomilada yigilib, MNSni sundirishi mumkin.

Gidralazin (apressin)-taxikardiya, stenokardiya,kayt kilishini chakiradi. Xomilaga nojuya ta'sir kursatmaydi.

Rezerpin,raunatin-xomilaning usishini sekinlashtiradi. Agarda ayol tugishga yakin rezerpin kabul kilgan bulsa, u xolda u xomilaning organizmiga tushib, MAO metabolizmiga sarf kiladi,natijada gistaminni inaktivatsiyasi ushlanib kolib, rinoreya, bronxoreyalar rivojlanadi.

Alfa-adrenoretseptorlarning agonisti metildopa (dopegit,aldomet) MNS retseptorlariga ta'sir etadi. Xomila preparatni yigishi mumkin,natijada MNS kuzgaluvchanligi pasayishi mumkin. Xatarli asoratlariga autoimmun gemolitik kamkonlik, jigar jaroxatlanishi (uzok kullanganda)kiradi.

Klonidin (klofelin,gemiton,katapressan) xomilaga nisbatan metildopaga uxshash ta'sir kursatadi. Betta-adrenoblokatorlar buyrak kon okimi va koptokchalar filtratsiyasini kamayishini chakiradi (nadololdan tashkari).Adrenomimetiklarni bachadon mushaklariga kursatadigan ushlab turuvchi ta'sirini yukotib, vaktidan oldin tugishlarga, bola tushishiga olib keladi. Betta-adrenoblokatorlar bachadon-yuldosh kon okimini yomonlashtirib,xomila rivojlanishini sekinlashuvi,gipotrofiya,xamda tugish jarayonini bushashtirishga olib keladi. Bundan tashkari,xomilada bradikardiya,nafas olishining sunishi,gipoglikemiya, sariklik rivojlanishi mumkin. Betta-blokator kabul kilgan ayollarga tugish vaktida maxalliy anesteziya kilish mumkin emas,chunki arterial gipotoniya rivojlanishi xavfi bor. Korincha usti taxikardiyasida anaprillin va pindolol buyuriladi. Kalsiy antagonistlarini xomiladorlik davrida berish mumkin emas, sabab-yurak faoliyati keskin buziladi.

Ganglioblokatorlar (benzogleksoniy, pentamin,...) kupincha promedol va pipolfen bilan kombinatsiyada ishlatiladi. Birok,ularni extiyotkorlik bilan qo'llash lozim, chunki bachadon-yuldosh kon aylanishining buzulishi xollari kuzatiladi. Xomilani gipoksiya natijasida nobud bulish xolatlari xam aniklangan.Ona va xomilada ichak utkazuvchanligini dinamik buzilishi rivojlanishi xavfi xam mavjud.

Nitroglitserin fetoplatsentar kon okimini yaxshilaydi, xomilaning kon bosimini tushirmaydi. Odatda tugish vaktida v/ichiga yuboriladi. YUrak glikozidlari yuldoshdan oson utadi, xomilaning konida xam, xuddi onadagidek konsentratsiya xosil kiladi.YAngi tugilgan chaqaloqlarning yuragi yurak glikozidlariga rezistent buladi. Digitoksin yordamida xomiladagi aritmiyalar davolanadi.

Diuretiklar oddiy dozada yurak etishmovchiligini davolaganda xatarli emas. Nisbatan xavfsiz furosemid ammo uzok vakt 2 mg/kg dozada kullansa,buyrak kalsifikatsiyasini chakiradi,

buni davolash uchun xlortiazid kullanadi. Kullanganda xavf tugdiradigan diuretiklarga kiradi: atsetozalamid, bumetanid, gidroxlortiazid, etakrin kislota.

Antibakterial DV xomila uchun xavfsiz bulib penitsillin va sefalosporinlar xisoblanadi. Penitsillin yuldoshdan oson utib, xomilaning organ va tukimalariga tez singiydi, shu sababli penitsillinni xomilaning bachadon ichidagi infeksiyasini davolashda kullaniladi. Penitsillin teratogen ta'sir kursatmaydi. Ampitsillin yuldoshda, amniotik suyuklikda yukori konsentratsiyada yigilishi mumkin. Xomilaga kirib, asosan uning upkasi va buyragida yigiladi. teratogen va embriotoksik ta'sir kursatmaydi, urta terapevtik dozalarda buyurish lozim. Xomiladorlikning oxirida kullanganda chaqaloqlarning sarikligini kuchaytirishi mumkin.

Sefalosporinlar turli farmakokinetik kursatkichlarga ega. Sefalosporinlar vitamin K almashinuvini pasayishi natijasida gipoproteinemiya va kon ketish xavfini oshishiga olib kelishi mumkin. Sefalosporinlar teratogen ta'sir kursatmaydi. Buyrak faolligi pasaygan xollarda urtacha sutkalik dozalarini korreksiyalash talab kilinadi.

Tetratsiklinlar xomiladorlikning kechki muddatlarida katta dozalarda berilganda xomila jigarining keskin sarik distrofiyasini chakiradi. Xomiladorlikning oxirlarida xatto kichik dozalarda tetratsiklin berilsa, bola tishlarini sarik rangga buyalib kolishi, ularning gipoplaziyasi, xamda skelet suyagi rivojlanishini sekinlashuvi kuzatiladi. SHuni e'tiborga olish lozimki, tetratsiklinlarni xomilador ayollar va 12 yoshgacha bulgan bolalarga berish mumkin emas.

Aminoglikozidlar. Streptomitsin yuldoshdan tez utib, neyrotoksik (shu jumladan, ototoksik) ta'sir kursatishi, skelet suyaklari tuzilishini turli buzulishlariga olib kelishi mumkin. Gentamitsin va kanamitsinni fakat xayotiy kursatmalarga asosan beriladi.

Levometsitin xomila organizmidan sekin chikariladi va teratogen ta'sir kursatadi: chaqaloqlarda kam konlik chakiradi, "kul rang" sindromi rivojlanadi: kukarish, tutkalok va nobud bulish.

Makrolidlar, eritromitsin yuldoshdan kam darajada utadi (10-12%). Kuchli teratogen ta'sirlari kuzatilmagan, gepatotoksik ta'sir kursatadi. Oleandomitsin xomilaning limfa tukimalarini rivojlanishini buzadi va natijada immunitetni shakllanishini buzishi mumkin. Klindamitsin (Diplatsin S) platsentar tusikdan utadi, xomiladorlikda kursatadigan ta'sirlari xakida ma'lumotlar yuk, extiyotkorlik bilan beriladi.

Sulfanilamidlar. 2xomiladorlik davrida kabul kilish mumkin emas, chunki ular teratogen ta'sir kursatishlari mumkin, xomiladorlikning oxirida esa, sariklikni kuchaytirib, bilirubinli ensefalopatiya xavfini oshiradi. Ayniksa, ta'siri uzaytirilgan va kombinatsiyalangan sulfanilamidlar xatarli xisoblanadi (sulfadimetoksin, sulfalen, baktrim, biseptol).

Nitrofurani (furadonin, furagin, furazolidon) yuldoshdan oson utib, xomila atrofidagi suyuklikda yigiladi. Xomilada gemoliz chakirishi mumkin. Xomiladorlikning oxirida qo'llash maksadga muvofik emas. Trixopol embriotoksik ta'sir kursatadi (I uch oylikda), II va III oyliklarda fakat xayotiy kursatmalar asosida beriladi. Bir kunlik davolash usullarini utkazish mumkin emas, chunki bu xollarda ayol, xomila konida yukori konsentratsiyalar xosil buladi.

Silga karshi DV xomilada kuchli jaroxatlar chakiradi. Xomiladorlikning I uch oylikda tubazid, izoniazid kullanilsa, xomila rivojlanishida kupol nuksonlar rivojlanadi (anensefaliya, yurak nuksonlari, gidrotsefaliya, siydik pufagini ektopiyasi, anal teshigining bitib ketishi, gipospadiya, umurtkalarning bitmasligi, maymoklik). Bu preparatlar gemiplegiya, psixomotor rivojlanishini sekinlashuvi, tutkalokli sindromlarni chakiradilar. Keyinchalik usmalar rivojlanishi mumkin.

Glyukokortikosteroidlar buyurilganda xomiladorlikning muddatiga, davolash davomiyligi va preparatni dozasiga axamiyat berish kerak. Prednizalon va boshka GKS uzok vakt kabul kilinganda biriktiruvchi tukimalar rivojlanishining nuksonlari va xomilaning rivojlanishini tuxtab kolishini chakiradi (sutkasiga 10 mg prednizolon kabul kilinganda xomilaning rivojlanishi sekinlashadi). Xomiladorlikning oxirgi uch oyligida uzok kullanilsa, chaqaloqlarda gipoglikemiya, buyrak usti bezi krizlari kuzatilishi mumkin. Oxirgi vaktlarda, vaktdan oldin tugilishi xavfi bor ayollarga prednizalon berilyapti, bu xollarda preparat chala tugilgan chaqaloqlarda respirator distress sindromini kamaytiradi. Buyurish mumkin bulgan prednizalon dozasi 10-15 mg.

YAlliglanishga karshi DV. SHamollashlarda, bosh ogriklarida ayollar kupincha atsetilsalitsil kislota kabul kiladilar. Xomiladorlikni boshlarida bu preparat kabul kilinsa (xatto, xaftasiga 1 marta), xomilaga nojuya ta'sir kursatadi. Salitsilatlarining nojuya ta'sirlari kuyidagilar: embriotoksik ta'sir, xomilaning rezorbsiyalanishi, teratogen ta'sir tugilgandan keyin yurak-kon tomir nuksonlari kurinadi (chap korincha gipoplaziyasi, korinchalar orasi tusigining nuksoni, upka gipertenziyasini chakiruvchi arterial okimining vaktidan oldin bitishi), diafragmal gr̃ajalar, xomilaning usish tezligiga ta'siri natijasida tugma gipotrofiyalar rivojlanishi mumkin.

SHunga uxshash ta'sirini boshka yalliglanishga karshi DV xam kursatadi: indometatsin, ibuprofen, voltaren, flufenam kislota, naproksen. YAlliglanishga karshi DVni xomiladorlikni oxirgi muddatlarida kabul kilinsa, shu jumladan aspirinni, trombositlar faoliyatiga ta'siri natijasida xomilada kon ketishi mumkin. SHu sabablarga asosan yalliglanishga karshi DVni xomiladorlik davrida kabul kilish maksadga muvofik emas.

Antikoagulyantlar. Xomiladorlik davrida xavotirsiz fakat geparinni ishlatish mumkin. U yuldosh orkali yaxshi utmaydi va protamin-sulfat yordamida oson neytrallanadi. Bu preparat buyurilganda kattik tibbiy nazorat darkor xomiladorlik davrida geparin kabul kilgan ayollarga tugish vaktida epidural anesteziya kilish kat'iyon man kilinadi.

Bilvosita antikoagulyantlar yuldosh orkali utadi va xomilada onaga nisbatan kon ivishini kuprok pasaytiradi (chunki xomilaning barcha organ faoliyati yaxshi etilmagan buladi), natijada kon ketishlar, bola tushishi, xomilaning nobud bulishi kabi asoratlar rivojlanishi mumkin. Xomiladorlikning I uch oyligida bilvosita antikoagulyantlar embriotoksik, teratogen ta'sir kursatadi (burun gipoplaziyasi, kulning kalta bulishi, kuzni atrofiyasi, katarakta, suyak rivojlanishining nuksonlari).

Gipoglikemik preparatlar. Xomiladorlik davrida insulinga bog'liq bemorlar nazorat ostida bulishlari lozim. Bunday bemorlarda xomiladorlikning I uch oyligida insulinga bulgan talab odatda kamayadi va II, III uch oyliklarda ortib ketadi.

Sulfanilamidli kandpasaytiruvchi DV perinatal ulim sonini oshirib, teratogen ta'sir kursatadilar (mikroftalmiya, anoftalmiya, katarakta, anesefaliya). Maninil yangi tugilgan chaqaloqlarda uzok davom etuvchi gipoglikemiya va giperinsulinizmni sababi bulib, ulim sonini oshishiga olib keladi. Glyurenorm-anik ma'lumotlar yuk, shu sababli bu DVni xomiladorlik davrida berish maksadga muvofik emas.

Xomiladorlarga kand pasaytiruvchi DV berish zarur bulganda, insulin buyurish lozim, chunki bu preparat yuldoshdan deyarli utmaydi.

Bronxial astmani davolashda kullandigan DV. Nisbatan xavfsizlarga kiradi: aminofillin, beklametazon, ipratropium bromid, kromolin, terbutalin. Kullanganda xavf tugdiradgan DVga albuterol, izoproterenol, metoproterenol kiradi.

Vitaminlar. Gipo-va gipervitaminozlar xomila rivojlanishining buzulishiga olib kelishi mumkin. Vitamin V2 ning etishmasligi kattik tanglayning bitmasligiga, vitamin A-etishmasligi-kattik tanglayning bitmasligi va anensefaliyaga (katta dozalarda teratogen ta'sir kursatadi), foliy kislota etishmasligi-yurak-kon tomir tizimi, kurish organlarining nuksonlariga (mikro-va anoftalmiya, katarakta), vitamin Sning etishmasligi (va uning mikdorini ortib ketishi) xomilaning tushishiga, kapilyarlar singuvchanligini keskin oshib ketishi va tukimalarning nafas olishini yomonlashuviga sabab buladi. Gipervitaminoz E-embrion rivojlanishining buzilishiga va kupincha uning nobud bulishiga olib keladi. Tugilgan bolalarda esa miya, kuz va skelet suyaklarining nuksonlari kuzatiladi.

Gormonal preparatlar. Ayollar xomiladorlikning 8-17 xaftalarida dietilbestrol kabul kilishlari natijasida tugilgan kiz bolalarda, och rang xujayrali adenokarsinomasi, xamda ayollar jinsiy organlarining anatomik va funksional nuksonlari, ya'ni bachadon buyinchasida kundalang burmalar, T-simon bachadon, bachadon gipoplaziyasi, tuxumdonlar disfunksiyasi rivojlanish xavfi ortadi. Estrogen va progestinlarni xomiladorlikning birinchi oylarida berish mumkin emas, chunki ugil bolalarda psevdogermafroditizm rivojlanishining buzilishi xavfi bor. Gormonal kontratseptiv moddalarning teratogen ta'siri VACTERL sindromi kurinishida kechadi (vertebral, anal, kardial, traxeal, ezofagal, renal nuksonlar va oyok-kullar tuzilishining nuksonlari).

Maxalliy anesteziyalovchi narkotik analgetiklar. Tugish vaktida narkotik analgetiklardan asosan promedol (trimeperidin) kullaniladi. Bu preparatlar xam ogrik koldiruvchi, xam spazmolitik ta'sir kursatib, bachadon buyinchasini ochilishiga yordam beradi. Promedol va petidin ona va xomila uchun bexatar bulib, birok, patologik xomiladorlikda, tugish vaktidagi asfiksiyalarda, chala tugilishlarda xomila va yangi tugilgan chaqaloqlarda nafas olishni sundirishi mumkin. Bu ta'sirni bartaraf kilishi uchun narkotik analgetiklarning antagonisti-nalorfin kullaniladi.

Maxalliy anestetik moddalarni xomilaga etib borishi darajasi paratservikal anesteziyada yukori, peridural va spinal anesteziyada kamrok buladi. Akusherlik soxasida kupincha ksikain, lidokain, trimekain, kamrok novokain ishlatiladi.

Ingalyasion va noingalyasion umumiy anesteziya moddalari yuldoshdan oson utib, xomilaning MNS ga salbiy ta'sir kursatadi. Bu preparatlar kullanganda ularni dozasi, yuborish intervali va tugish vakti oraligini e'tiborda tutish lozim.

Tugish faoliyatini stimullovchi preparatlar. Oksitotsin-kattik dard chakirishi mumkin, natijada fetoplotsentar kon aylanishi buzilib, xomila gipoksiyasini chakiradi. Bundan tashkari, chaqaloqlar konida bilirubin mikdorini oshirishi mumkin. Pituitrin-kayta kuyilganda, ayniksa xomiladorlikning kechki toksikozlarida yurak faoliyati va KB pasaytirishi, koronar kon okimini buzulishiga olib kelishi mumkin. Fetoplotsentar kon okimini pasayishi gipoksiyaga olib keladi, xomilaning nobud bulishi xam mumkin.

Enzaprostni minimal dozalarda buyuriladi. Prostoglandinlarning kullanishi natijasida rivojlanadigan asoratlar asosan yurak kasalliklari, gipertoniya kasalligi, kandli diabet, epilepsiya, glaukoma bilan ogrigan ayollarda kuprok uchraydi. Preparatni bachadon ichiga yuborilganda xomila nobud buladi. Prostoglandinlarni vena ichiga va transbukkal kullanganda Ularning xomilaga kursatadigan ta'sirlari kursatilmagan.

EMIZIKLIK AYOLLARDA KLINIK FARMAKOLOGIYANING UZIGA XOS XUSUSIYATLARI.

Emizikli ayollar kabul kiladigan DVning kuplari sut bilan ajraladi. Ona sutida uzok vakt ta'sir etadigan DV, ayniksa, tor terapevtik diapazondagi preparatlar bolaga nojuya ta'sir kursatishi mumkin. Ba'zi DV sut ajralishini kamaytirishi yoki umuman tuxtatib kuyishi mumkin, tabiiyki, bu maksadga muvofik emas.

ONA-YULDOSH-XOMILA TIZIMIDAGI DORI VOSITALARNING FARMAKOKINETIKASI.

DV xomilaga yuldosh orkali ona konidan kelib tushadi. Kelib tushgan moddaning mikdori preparatni ona konidagi konsentratsiyasiga va yuldoshning xolatiga bog'liq, xomilador ayol organizmidagi onkotik bosimni umumiy, gemodinamik xususiyatlari DVni tarkalishiga ta'sir etishi mumkin, masalan, xomiladorlikning oxirgi uch oyligida, kachonki albumin konsentratsiyasi kamayganda. Xomiladorlarning buyrak faoliyatining buzilishi DVning chikarilishini buzilishiga olib keladi. Xomiladorlikning oxirgi muddatlarida preparatlarning chikarilishiga tana xolati xam ta'sir kursatadi. Xomiladorlik DVning metabolizmini uzgarishiga olib keladi. Progesteron va pregnandiol oxirgi uch oylikda glyukuoniltransferazani bloklab, DV i kon'yugatsiyasi jarayonini pasaytiradi. Ularning oksidlanishi xam pasayadi, sulfatlanish esa, aksincha, ortadi. Xomilador ayollarda DV metabolizmining uzgarishi jigar gemodinamikasi bilan xam bog'liq. Oxirgi uch oylikda aylanayotgan kon xajmi va yurak zarb xajmi ortadi, birok jigardagi kon okimi uzgarmaydi.

Xomiladorlar toksikozida xujayra tashkarisidagi kenglikda suyuklikni ushlanib kolishi natijasida DVning tarkalishi uzgaradi. Koptokchalar filtratsiyasining kamayishi, jigardagi metabolizmni buzilishi ularning farmakokinetikasini uzgartiradi, ya'ni yarim chikarilish davri uzayadi.

DVning platsentadan singib utishi preparatlarning fizikaviy-kimyoviy kursatkichlariga, platsentaning morfologik va funksional xolatiga, platsentar kon okimiga bog'liq. Platsentaning begona moddalarni utkazmasligi nisbiydir: konsentratsiya ortib ketganda, xoxlagan moddalar xam kisman xomilaga uta oladi. Xomilaning yoshi ortishi sari uning organizmidagi

suvning mikdori asosan, xujayra tashkarisidagi suyuqlik xajmini kamayishi xisobiga pasayadi. Xomiladagi yog mikdori yogda eruvchan DVning tarkalishiga ta'sir qiladi (m-n, diazepam). YOgning xomilada yigilishi asosan xomiladorlikning oxirgi uch oyligida kechadi.

Xomiladagi kon aylanishni uziga xosligi DV ta'sirida buzilishi xavfini oshiradi. DV platsentadan, utib kindik venasiga tushadi. Konning kup kismi kindik venasidan (60-80%) darvoza venasi orkali jigarga tushadi, biroq 20-40% kindikdagi kon okimi shunt orkali pastki kovak venaga kelib tushadi. SHuning uchun, DVning platsenta orkali utgan bir kismi jigardan utmay yurak va miyaga etib boradi. Gipoksiya xolatlarida miyadagi kon okimi ortishi mumkin. Xomila konining tarkibi xam DVni tarkalishida axamiyatga ega buladi, masalan, xomilaning koni ona koniga karaganda kuprok trixloretilenni biriktira olishi mumkin, chunki uning tarkibida katta mikdorda fetal eritrotsitlar mavjud.

DVning metabolizmi jarayoniga ximoya mexanizmi sifatida karash mumkin, bu mexanizm yordamida ularning akkumulyasiya va intoksikatsiyasini oldi olinadi. Agarda xosil bulayotgan metabolitlar zaxarli bulsa, u xolda ular uzidan-uzi rivojlanayotgan organizmga parchalovchi ta'sir kursatadi.

Ba'zi fermentlar mikdorini kamligi yoki yukligi natijasida DV metabolizmi xomilada kattalarga nisbatan sekinroq kechadi.

Jigar kattalarda DV metabolizmining markazi bulib xisoblanadi, xomilada esa bu vazifani buyrak usti bezlari bajaradi. Xomilaning buyrak usti bezidagi sitoxrom R450 konsentratsiyasi jigarga nisbatan yukori. Biroq sitoxrom R 450, sitoxromning izofermentlari bir vaktida etilmaydi, bu esa bir guruxga taallukli turli preparatlarni oksidlanishi xususiyatiga turlicha ta'sir qilishiga sabab buladi. Platsentaning okidlanishi xususiyati xam past va u xomiladorlikning muddatiga karab uzgaradi.

Xomilaning almashinuvi moddalarining kupchiligi uchun, xamda DV uchun asosiy chikarilish organi bulib yuldos xisoblanadi. Ularni yuldos orkali chikarilishini aniklovchi asosiy omil-ularning yogda eruvchanligidir. Axamiyati buyicha ikkinchi chikarilish organi bulib buyrak xisoblanadi. Xomiladorlikning oxiriga kelib siydik xosil bulish tezligi 15-20 ml/s ni tashkil etadi. Siydikda amniotik suyuqlikka nisbatan 2-5 marta kup mochevina kreatinin va siydik kislotasi bor. Xomila buyragidagi DV ekskretsiyasi ulardagi faol kanalcha tarnsportini shakllanishi va etilishi bilan bog'liq.

Amniotik suyuqlikka tushuvchi DVni xomila yutib yuborishi va ichakda reabsorbsiyalanishi mumkin. Bunda xomila yutib yuborgan DVning mikdori yutilgan amniotik suyuqlik xajmiga bog'liq buladi, xomiladorlikning oxiriga kelib bu kursatkich 5-70 ml/s ni tashkil etadi. Ba'zi preparatlar shu sababli xomila organizmida kayta aylanishi mumkin, natijada, xomilaga bulgan ta'sir vakti uzayadi va toksik ta'sir kursatish xavfi ortadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mavlyanov I.R., Kats P.S., Maxkamova R.K. Klinik farmakologiya. Toshkent. 2012
2. Mamatov YU. Klinik farmakologiya, Toshkent, 1995.
3. Belousov YU.B. Klinicheskaya farmakologiya i farmakoterapiya, M., 1997; 2000.
4. Kukes V.G. Klinicheskaya farmakologiya, M., 1999, 2012

5-MAVZU. Dori vositalarining klinik farmakologiyasining yoshga bog'liqligi.

Reja:

1. YOsh bolalarda dori vositalari klinik farmakologiyasining uziga xosligi.
2. YAngi tugilgan chakaloklarda dori vositalari farmakodinamika va farmakokinetikasining uziga xosligi.
3. Kariyalarda klinik farmakologiyaning uziga xos xususiyatlari va ularda farmakoterapiya utkazishni muammolari.

Kalit so'zlar: Kariya, yosh bola, chaqaloq

DV ta'siriga kator ichki va tashki omillar, undan tashkari yana bemorning yoshi xam ta'sir kilishi tugrisida biz gaplashgan edik. Keksa bemorlarda, kariyalarda, bolalarda, asosan yangi tugilgan chakaloklarda FK nukta nazaridan DV larga reaksiya individual farkanishi yukoridir. Klinik farmakologiyani asosiy vazifalaridan biri bu yanada samarali davolash usullarini topish, jumladan, bemorlarni kuyidagi guruxlarida-kari yoshdagi va yangi tugilganlarda va ilk yoshdagi bolalik davrida dori vositalarini klinik farmakologiya xususiyatlaridan boshlaymiz.

BOLALARDA DVni KF

Bola xayotida bir necha boskichlar ajratiladi, bu davrda DVni FD va FK si farkanadi:

1.Antenatal

2.Intranatal

3.Neonatal (4 xaftagacha)

4.1 yoshgacha

5.1 yoshdan 3 yoshgacha

6.5 yoshdan keyin asosiy klinik - farmakalogik parametrlar kattalardan kam fark kiladi.

YAngi tugilganlarda DV ni FK xususiyatlari kuyidagilar:

1. Katta yoshdagi bolalarga karaganda DV MIY da surilishi nisbatan sekin kechadi, surilish mikdori uzgarmasa xam, shuning uchun tezkor xolatlarda DV larini v/iga yuborish maksadga muvofik.

2. YOgda eruvchi preparatlar, yaxshi vaskulirizatsiyalangan teri orkali oson suriladi. Masalan, gormonal surtmalar, tozalov poroshoklar.

3. YAngi tugilganlarda kon plazmasidagi oksil mikdori kattalarga karaganda kamrok, bu oksillar bilan intensiv boglanuvchi DV larini erkin fraksiyalarini oshishiga olib keladi. Bundan tashkari, bular bilirubin oksili bilan boglanishlaridan chikarib yuborishi mumkin.

4. Metgemoglobin oson xosil buladi va eritrotsitlar gemolizi ruy beradi.

5. Organizmdagi yoglarni kam mikdori plazmada yogda eruvchi preparatlarni konsentratsiyalarini oshishiga olib keladi. Suvda eruvchilarni (gidrofil) mikdorini kamaytiradi.

6. Buyraklar orkali eliminatsiyalanuvchi moddalar, sekinrok chikariladi va kam martda yuboriladi (yuborish intervallarini uzaytirilishi), asosan bola tugilgandan keyin birinchi 7-10 kun davomida.

7. Jigardagi kup ferment reaksiyalarini rivojlanmaganligi, jigarda metabolizlanuvchi DV ni tavsia etilganda extiyotkorlik bilan yondoshishni talab kiladi.

Ilk yoshdagi bolalarda DV ni biosinguvchanligi xakida aytish keyin va MII kasalliklari, utkir infeksiyalarida, gipertermiyalarda RN muxitni uzgarishlari, shillik kavatlarini kon bilan ta'minlashida keng uzgaradi. Bundan tashkari DV lariga ichak mikroflorasini ta'siri kam urganilgan. Kichik yoshdagi bolalarda ayrim moddalarni aktiv surilishini ferment sistemalari starli rivojlanmagan. Bolalarda DV larini rektal yuborish yuli ogiz orkali yuborgandan kura biouzlashtirishni ancha past. SHuning uchun kichik yoshdagi bolalarda DV larini parenteral yuborish yuli yaxshirok xisoblanadi. Kuprok m/i yoki v/i, gemodinamik buzilishlarda esa v/i sekin tomchilab.

Bolalarda DV larini taksimlanishida gistogematik barer va asosan gematoensefalik barerni katta utkazuvchanligi xisobga olish lozim.

Bu barerlar orkali xatto yogda yomon eruvchi moddalar xam utadi. DV larni taksimlanishiga katta yoshdagilar va bolalarda organizmni suv kameralarini xajmi ta'sir kiladi. YAngi tugilganlarda kattalarga nisbatan suyaklik mikdori kuprok, lekin yosh utish bilan asta-sekin pasayib boradi va pubertat boskichida kattalar darajasiga etadi. Asosan suyak muxitda taksimlanuvchi dori vositalari yangi tugilgan chakaloklarga va bolalarga katallar bilan solishtirilgana kuprok dozada 1kg/tana massasiga belgilash lozim.

DV larini kupchiligi va uning metabolitlari buyraklar orkali chikariladi. DV chikarilishi 3 ta jarayon bilan aniklanadi: filtratsiya, sekretsia va reabsorbatsiya. Kukrak yoshi va ilk yoshdagi

bolalarda buyrak faoliyatini xarakterli xossasi bu organizmdan xatto suv, natriy, kaliy, magniy va kalsiylardagidek kationlar sekin chikariladi. SHuning uchun kup mikdordagi suyuqlikni kiska vaktida yuborilganda utkir suvli intoksikatsiya, miya ishishi, talvasalar kuzatilishi mumkin. Gipertonik eritmalarini extiyotkorlik bilan yuborish lozim, aks xolda bu miyani suvsizlanishi, gipertermiya, talvasalarni sababi bulib kolishi mumkin.

Bola organizmida DV bilan bir katorda FD xam uzgarishi mumkin.

FD uzgarishlar sabablari:

DV FK xususiyatlari

gistogematik barerlarni utkazuvchanligi oshishi

DV effektini aniklovchi boshka maxsus omillar.

Bolalarda xar xil preparatlarga retseptorlarni sezgiriligini uzgarishi aniklangan. Farmakoretseptorlarni funksional xolati bir tipli bulmaydi (tugilganda) yangi tugulgan bolalarda DV yuborishga aniklanmagan reaksiyalar chastatasi kattalarga karaganda 3 marta yukori. DV ga reaksiyasi bola rivojlanishida kuchi buyicha, xam xakteri buyicha uzgaradi.

YAngi tugulganlarida DV nojuya ta'siri (NT) katar xollarda genitik buzilishlar bilan boglik buldi: glyukoza - 6 - fasfat degidrogenazani psevdoxolinestrozani variant shakllarini, metgemoglobin reduktazani, butiril xolinesterozani, glyukuronil transferazani va boshkalarni defitsiti (etishmovchiligi).

SHunday kilib, DV ga bola organizmini reaksiyasi butun organizm va uning aloxida funksional sistemalari gomeostazni ta'minlovchi kup xar xil vaktida rivojlanuvchi sistemalari bilan boglik.

BOLALARDA DV NT

NT kuprok jigar va buyrak rivojlanishi etishmovchiligi bulgan kukrak yoshdagi (emizlikli) bolalarda, shu organlarni patalogiyasi bulgan xar xil yoshdagi bolalarda aniklandi. DV NT paydo bulishi kamayib ketish darajasi buyicha joylashtirish mumkin: antibiotiklar, nonarkotik analgetiklar, trankvilizatorlar, GKS, VABL, talvasaga karashi vositalar yurak glikozidlari. YAngi tugulganlarda FT asoratlarini rivojlanish buyicha 3ta gurux ajratiladi:

1. YAngi tugulganlarga kursatilgan DV lar ampitsilin, metisillin, pensillin, oksatsillin, oleandollin, deporin, fuzmdmn, nistatin, kafein, fenobarbital, diazepam.

2. Extiyotkorlik bilan ishlatiluvchi - atropin, aminazin, butadion, vikalol, digoksin, strofantin, teofillin, eufillin, gentamitsin, linkomitsin.

3. YAngi tugilgan bolalar man etilgan vositalar - bornaya kislota, levvomitsin, tetratsiklin, kanamitsin, monamitsin, nalidiks kislatasi, novabiotsin, SA, salitsilatlar, morfin va uning guruxi. DVNT yangi tugulgan chakoloklarda va emizikli bolalarda emizuvchi onasi DV larni kabul kilish natijasida kelib chikishi mumkin. Lekin bu mavzu keyingi ma'ruzada aytilib utiladi.

DVlarni BOLALARDA DOZALASH

Ma'lumki bolalrni katta bulishi bilan birga DV ni terapevtik dozalari uzgaradi. Ayrim paytlarida, DV ni 1 KG vaznga xisoblashadi, ayrim paytlarda esa bolaning tana yuzasi birligiga, yoki yoshiga nisbatan.

Vaznga nisbatan dozani aniklash, kupgina karshiliklarga ega, chunki organizmda va suyuqlik xajmi muvozanatda bulmagan bola vazni yukori buladi - shu yoshdagi sog bolalarga nisbatan, shuning uchun bu doza samarasiz yoki shakli bulishi mumkin. Davlat faarmokopiyasi (Xchop etilishi) bolalarga DV ni dozalashni yoshiga nisbatan tavsiya etadi. Kattalarning dozasi <1>deb olinadi va shunga nisbatan bolalarning dozalarni xisoblanadi.

SHunday kilib, bir yoshgacha -1/24 - 1/12 kattalarni dozasi olinadi; bir yoshdagi bolalrga - 1/12 kismi, 2 yoshga - 1/8; 4 yoshga - 1/6; 6-yoshga - 1/4; 7 yoshga - 1/3; 14 yoshga - 1/2; 15-16 yoshga - 3/4 kismi.

Ortik massali yoki kam massali bolalarga dozani individual ravishda talanadi dozis - faktor asosida. Bizning uchun, kattalarning bir marotaba kabul kilinaigan dozasini 1 kg vazniga

xisoblanadi va dozis faktorga kupaytiriladi.

YOSHI	DOZIS-FAKTOR
0-1	1,8
1-6	1,6
8-10	1,4
10-12	1,2
KATTA	1

CHakoloklarda DVni plazma oksili bilan boglanishi

CHakaloklarda va bir yoshgacha bulgan bolalarda oksil bilan boglanish xususiyati kamaygan buladi. Bunga sabab - oksillarning metabolizmn jarayonini endagen xosilalari (bilirubin, erkin yog kislatalari) bilan boglanganligidir. Albuminlar mikdori kam buladi. Oksil tuzulishining urganganligi kuzatiladi.

Eshga nisbatan organizmning suv kameralaring xajmi

Eshi	Umumiy suyuqlik xajmi (%)	Xujayra tashkarisidagi xajmi %	Xujayra ichidagi xajmi %
Xomila (9 oy)	75	35-45	33
Bolalar			
4-6 oy	60	23	37
12 oy	60	26-30	37
Pubert period	60	20	40
Kattalar	50-60	20	40

KLINIK FARMAKOLOGIYANING YOSHGA BOGLIK XUSUSIYATLARI (KARIYALARDA)

Bu sovolni dolzarbligini sababi:

- 1.Keksa yoshdagi beemorlar 11-12%ni tashkil etadi, lekin 25 - 30% - DV ni iste'mol kiladi.
- 2.Bu yoshdagi bemorlarda NT namoyon bulishi 2-3 barobar kuprok, yosh va urta yoshdagi bemorga nisbatan.
- 3.Polifmariatsiya - keksa yoshdagi bemorlar bir kator kasalligi bor.
- 4.60 yoshdan katta bulgan bemorlar DV ni kabul kilganda (60% yakin) adashadi va 3 ta preparatdan ortik kabul kilsa, bu foiz oshadi.

Keksa yoshdagi bemorlarda farmokoterapiyani murakkablashtiruvchi omillar:

- organizmni sustlashishi
- kasallikni ogirligi
- ishtaxa yukligi va atrofiya xotirani pasayishi va ongni buzulishi
- uz-uziga xizmat kursata olmasligi
- tashkaridan yordamni kamligi

SHuning uchun, tibbiy xodimlarni nazorati oshishi lozim.

DV ni FD va FK kursatkichlari fiziologik karish, yondosh kasalliklar, organlar va sistemalar faoliyatini buzilishi natijalarida uzgaradi, natijada NT xavfi oshadi.

Keksa va kari yoshdagi bemorlarda barcha FK kursatkichlar uzgaradi, natijada DV ni konsentratsiyasi va farmokologik ta'siri xam uzgaradi.

ABSORBSIYA (SURULISH)

Keksa bemorlarda MIY motor va sekretor faoliyati kupincha buziladi. Me'da shirasi RN oshadi. Me'daning girokuneziya rivojlanishi natijasida ingichka ichakda DV lar sekin etib keladi va me'dada kislotali muxitga turgun bulmagan DV ni parchalanishi buziladi.(masalan,oral penitsillinlar). Ichak gipokineziyasi xam kuchayadi. MIY atrofiy jarayonlari, kon tomirlarini uzgarishi, kon aylanishini buzilishiga omil buladi.

Kon tomirlarni utkazuvchanligi buzilishi va kon aylanishini susayishi natijasida DV ni t/o va m/o yuborganda absarbsiya uzgaradi. SHuning uchun biosinguvchanlik kamayadi va FD ta'siri namayon bulishi kechikadi.YUrakdan kon xaydalishini kamayishi, kon tomirlarini skerozi va organ va tukimalarni kon bilan ta'minlanishini susayishi DV ni taksimlanish xajmini va tezligini kamaytiradi. Suv mikdorini kamayishi. Muskul massasini atrofi yoglarni mikdorini uzgarishi DV ni taksimlashishiga ta'sir kursatadi. 25 yoshdan 60 yoshgacha odam organizmida muskul massasi 20% kamayadi, yogni mikdori 10-20% oshadi. Suv mikdori 10-50% kamayadi, 75 yoshdan keyin - 18-20%. Bu omillar kumulyasiyaga va intoksikatsiyaga olib keladi. Keksa yoshdagi bemorlarda plazmadagi oksil mikdori 10-15% kamayadi, ayniksa albuminni mikdori kamayadi.Plazmada DV ni boglanmagan fraksiyasini aktivligi oshadi va DV ni toksik nojuya ta'siri ruyobga chikadi, standart doza kullanilganda xam.

Jigardagi MOS fermentlari aktivligi susayganligi tufayli DVni metabolizmi tezligi kamayadi va natijada DV bilan intoksikatsiya bulishi mumkin.

Keksa yoshdagi bemorlarda buyrak eliminsiyasi xam susayadi - sabab bu buyrakdagi kon aylanishini susayishi, buyrak massasini va funksonal nefronlarni kamayishi 70 yoshdan katta bulgan bemorlar buyrak kon aylanishi 2 barobar kam, urta yoshdagi bemorlarga nisbatan (arterioskleroz va buyrak kon tomirlarining aterioskleroz tufayli,) 65 yoshga kelib ularning soni - 25-30%ga kamayadi. DV ni siydik bilan yarim chikarilish davri kamayadi. SHu omilni DV ni terapevtik kengligi kichik bulganda nazorat tutish kerak (YUT meksitil, etatsizin, ritmilen, litiy preparatlari, a/b - aminoglikozidlar, seporin).

Kanalchadagi ekskretsiya sekinlashganligi, jigar metabolizmi tula bulmaganligi tufayli,DV ni kekse bemorlarda kullanganda dozani 30-50% kamaytirish lozim.

DV ni FD si kekse yoshdagi bemorlarda kam urganilgan. Ba'zan, salbiy yoki parodksal ta'sir ba'zi moddalarga sezuvchanlik oshishi bilan, xujayralar reaktiv xususiyati moslashuvchanlik imkoniyatlarining diapozonini kiskarishi tufayli pasayadi.

DV ni boshka alomatlari. Keksa yoshdagi bemorlarda xar xil sistemalarni kompensator reaksiyalari ancha susaygan, shuning uchun NT xavfi oshadi.

Nazoratda tutish kerak.

- giponteziv DV ni buyurganda ortastazda gipontenziv reaksiyalarni paydo bulishi kupayadi, baroretsentorlar sezuvchanligi va funksiyasi buzulganligi tufayli;

- psixotrop DV lar kullaganida gipotermik reaksiyalar paydo bulishi;

- MNS ga ta'sir etuvchi DVlar (antixoinergik,tritsiklik antidepressantlar) ongni buzilishiga olib keladi.SHunday kilib, kekse va kari yoshdagi bemorlariga DV ni extiyotkorlik bilan buyurish kerak.

- <Medekamendoz peregruzka> bemorning organlari va sistemalaridagi kuchli funksional uzgarishlar chikarishi mumkin, bu deyarli geriatrik farmakoterapiyani <doimiy vrachlik eksperementi> deb atash mumkin (V.G.Kukes).

Aloxida e'tiborni tayinlangan dori vositalarni kabul kilish muolajasiga karatilishi kerak, kachonki bemorlar navbatdagi preparat dozasini kabul kilishni unutib kuyishlari mumkin yoki uni kayta kabul kilib kuyishlarim mumkin.YOshi utganlarda kurishning pasayishi va kullarda titrok bulganligi uchun suyuk torilarni kabul kilishlari kiyin buladi. YUkoridagi fikirlarni xisobga olgan xolda yoshi utgan va kari bemorlarda farmakoterapiya utkazishda kuydagi xolatlarga e'tibor berish kerak.

1.Bemorlarning shikoyatlari xar doim xam kuchli ifodalangan organik uzgarishlar sababli bulmaydi.

2.Xar doim xam bu yoshda bir vakt uchraydigan surunkali kasalliklar farmakoterapiya talab kilmaydi. Polipragmaziya kochish uchun asosiy kasallikni anik ajratib olish kerak. SHu bilan birga yoshi utgan bemorlarda medikamentoz preparatlarni organizmga nojuya ta'sirlari xavfi oshib boradi.

3.Karilikda farmakalogik yuklamalarni kutara olish pasayadi, shuning uchun arzimagan intoksikasiyalari yoshi utkanlarda xayot xavfli bulishi mumkin.

4. Iloj boricha dori vositalarini yuborishni oddiy usullaridan foydalanishga xarakat kilish kerak, bu vaktida bemorning psixik statusi, ijtimoiy imkoniyatlari va xayot sharayotlari xamda tashkaridan parvarish bulishini xisobga olish kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar

- 1.Mavlyanov I.R., Kats P.S., Maxkamova R.K. Klinik farmakologiya. Toshkent. 2012
2. Mamatov YU. Klinik farmakologiya, Toshkent, 1995.
3. Belousov YU.B. Klinicheskaya farmakologiya i farmakoterapiya, M., 1997; 2000.
4. Kukes V.G Klinicheskaya farmakologiya, M., 1999, 2012

6-MAVZU. YUrak glikozidlarini klinik farmakologisini asosiy tushunchalari.

Reja:

- 1.YUrak glikozidlarning klassifikatsiyasi, FD va FKsi.
2. Ularning dozalash rejimi.
3. YUGni nojuya ta'sirlari, digitalis intoksikatsiyaga olib keluvchi omillar va digitalis intoksikatsiyasini davolash prinsiplari.
- 4.YUGlarining uzaro ta'sirlari.

Kalit so'zlar: YUrak glikozidi, digitalizatsiyalash, digitaliz intoksikasia, strofantin

YUrak etishmovchiligi yoki qon aylanish etishmovchiligi – bu yurak qon-tomir tizimi kasalliklari natijasida kelib chiqadigan sindrom bo'lib, yurak nasos faoliyatini pasayishi va neyrogormonal tizimning faollashishiga olib keladi.

Qon aylanish etishmovchiligi deyarli barcha yurak qon-tomir tizimi kasalliklari natijasida rivojlanishi mumkin, ammo ko'pincha, YUIK, arterial gipertoniya, turli etiologiyali kardiomiopatiya, yurak kopqoqchalari nuqsonlari, perikard kasalliklari, uzoq davom etayotgan taxiaritmiya va boshqalar uning sababi bo'ladi. Bu kasalliklarning barchasi miokardning qisqaruvchanlik xususiyatini pasayishiga olib keladi. YUrak zarb xajmining kamayishi simpatoadrenal (SAT) va renin-angiotenzin-aldosteron tizimlarining (RAAT) kompensator faollashuvi bilan kechadi. Bu neyrogormonlarning ko'p miqdori vaqt o'tgach miokard gipertrofiyasi, kardiomiotsitlar ishemiyasi va energetik zahirasini kamayishiga olib keladi. Natijada surunkali qon aylanishi etishmovchiligi bemorlarida yurak nasos faoliyatining pasayishi va miokard xujayralarining nobud bo'lishi kuchayadi. Natriyuretik gormon va RAAT faollashuvi organizmda natriy va suvning ko'p miqdorda ushlanib qolishiga olib keladi. Bunda suyuqlikning bir qismi tomirlarda ushlanib qolmasdan organizmda tarqaladi.

Qon aylanishi etishmovchiligining asosiy belgilari – nafas siqishi, yurak urib ketishi, tez charchash, jismoniy faollikni cheklanishi va organizmda ortiqcha miqdorda suvning ushlanib qolishidan iborat. Simptomlarning namoyon bo'lish darajasi kam darajadan (faqat jismoniy zo'riqishda paydo bo'ladigan), xatto tinch xolatda ham kuzatiladigan nafas siqishi va ko'p miqdordagi shishlar bilan kechuvchi yuqori darajagacha farqlanadi. Surunkali yurak etishmovchiligi zo'riquvchi kechuvga ega bo'lib, simptomlar sekin-asta ko'payib boradi, ammo zamonaviy davolash usullarini qo'llanishi qon aylanishi etishmovchiligining kuchayishi va bemor ahvolining ancha yaxshilanishiga olib keladi.

YUrak etishmovchiligining kechuviga ko'ra o'tkir va surunkali turlari farqlanadi, bu DV tanlash va yuborish yo'llarini belgilash uchun ahamiyatga ega. YUrak etishmovchiligi og'irlik

darajasining ikkita tasnifi mavjud: Strajesko-Vasilenko bo'yicha (I, IIA va IIB, III bosqich) va Nyu-York assotsiatsiyasiga muvofiq (I-IV FS).

YUrak etishmovchiligi farmakoterapiyasi quyidagilarni nazarda tutadi:

- Asosiy kasallikni davolash
- Miokardning pasaygan qisqaruvchanlik faoliyatini oshirish
- Miokardga bo'lgan oldingi va keyingi zo'riqishni kamaytirish
- Natriy va suv ushlanib qolishini bartaraf etish
- SAT faolligini sundirish

YUrak etishmovchiligini davolashda etakchi o'rinlardan birini miokardning qisqaruvchanligini oshiruvchi DV, ya'ni musbat inotrop ta'sirga ega dorilar egallaydi. Bularga kiradi:

- Simpatoadrenergik retseptorlarni rag'batlantiruvchilar
- Glyukagon
- Metilksantin unumlari (fosfodiesteraza ingibitorlari)
- YUrak glikozidlari

Simpatoadrenergik retseptorlarni rag'batlantiruvchilar "Tomirlar tonusini oshiruvchi DV klinik farmakologiyasi" bobida batafsil yoritilgan.

GLYUKAGON

Glyukagog – me'da osti bezi alfa xujayrasining gormoni. Miokardga maxsus glyukagonli retseptorlar orqali kardiorag'batlantiruvchi ta'sir ko'rsatadi, yurak va zarb indeksi, yurakning minutli xajmini oshirib, umumiy periferik qon tomirlar qarshiligini kamaytiradi. Bundan tashqari, glyukagon SAT faolligini so'ndiradi, qondagi adrenalin va noradrenalin miqdorini kamaytiradi, yurakning barcha bo'laklarida impuls o'tkazilishini yaxshilaydi, diurezni oshiradi. Glyukagon yurak glikozidlariga qaraganda kuchsiz, ammo birga qo'llaganda ularning nojo'ya ta'sirini bartaraf qila oladi. Glyukagon yurak glikozidlariga qarshi ko'rsatmalar bo'lgan yoki ta'siri kam bo'lgan quyidagi xolatlarda mustaqil ravishda qo'llanadi:

- Bradikardiya, ritm va o'tkazuvchanlikning buzilishi bilan kechuvchi QAE
- Kardiogen va septik shok
- To'liq AV-blokada va qorinchalar fibrillyasiyasida QAE bo'lganda

YURAK GLIKOZIDLARI

Qon aylanishi etishmovchiligini davolashda yurak glikozidlari asosan uchta – musbat inotrop, manfiy xronotrop va neyromodulyasiyalovchi farmakodinamik ta'sirlarga ega bo'lgani sababli qo'llanadi. Bu gurux preparatlari 200 yildan ziyod qo'llanib kelmoqda, ana shu davr mobaynida ularga bo'lgan qiziqish goh kuchaygan, goh pasaygan. Hozirgi vaqtgacha ularni qo'llanishining klinik tomonlari oxirigacha o'rganilmagan, biroq XXI asrni "renessans" yoki yurak glikozidlari qo'llanishining tiklanish davri deb atasa ham bo'ladi.

Tarixiy ma'lumotnoma

Turli to'qimalardan olinadigan, biologik faol modda xisoblangan yurak glikozidlarining davolovchi xususiyatlari qadimiy misrliklar davridayoq ma'lum edi. YUrak glikozidlari xususiyatlarini 1875 yildayoq Uaytering yoritib berib, shishlarda buyurishni tavsiya qilgan. Ammo glikozidlarni buyurishga ko'rsatma va qarshi ko'rsatmalarni 1875 yili angliyalik shifokor Vilyam Vizering tizimlashtirgan. Biroq, yurak glikozidlarini yurak ishi etishmovchiligida keng qo'llanishi faqatgina XX asrning o'rtalaridan boshlangan.

YUrak glikozidlari tasnifi

YUG turlicha tasniflanadi. UASH amaliyoti uchun YUG eruvchanligi (dorilarning farmakokinetikasiga ta'sir ko'rsatadi) va ta'sir davomiyligi bo'yicha tasniflash ahamiyatga ega. Eruvchanligi bo'yicha quyidagi guruxlarga bo'linadi: qutbli (gidrofil), qutbsiz (lipofil) va aralash (gidrolipofil). Ta'sir davomiyligi bo'yicha qisqa ta'sir etuvchi (strofantin va korglyukon – 1-3 kun),

oʻrtacha davomiylikda taʼsir etuvchi (digoksin, selanid – 5-8 kun) va uzoq taʼsir etuvchi (digitoksin, atsetildigitoksin – 14-21 kun) guruxlarga boʻlinadi.

Taʼsir mexanizmi va farmakodinamik taʼsirlari

YUG kardiomiotsitlarning Na^+ , K^+ , ATFazasini (natriy nasosi) soʻndiradi. Natijada sitoplazmada natriy ionlari yigʻiladi, bu esa oʻz oʻrnida kalsiy ionlari miqdorini ortishi va kardiomiotsitlarning sarkoplazmatik retikulumida aktin va miozin iplarining oʻzaro taʼsirini ragʻbatlantiradi. SHu sababli kalsiy ionlarining koʻp miqdori troponin S bilan oʻzaro taʼsirlashadi. Bu esa oʻz oʻrnida kardiomiotsitlar qisqaruvchanligini kuchayishiga olib keluvchi aktin va miozinning oʻzaro taʼsirini faollashtiradi.

YUG asosiy farmakodinamik taʼsirlari:

- *Musbat inotrop taʼsir* – bu miokard qisqaruvchanligi kuchi va tezligining ortishidir, natijada yurakning minutli va zarb xajmi ortadi. Miokardning qisqaruvchanligini ortishi yurakning oxirgi-sistolik va oxirgi-diastolik xajmini kamayishiga va miokardning kislorodga boʻlgan talabini kamayishiga olib keladi.

- *Manfiy xronotrop taʼsir* – yurak qisqarishlar sonining kamayishi. Aorta yoyi baroretseptorlari va karotid sinusi ragʻbatlanishi natijasida qaysar nerv tonusi ortadi. Natijada sinus tuguni avtomatizmi pasayadi va YUQS kamayadi.

- *Manfiy dromotrop taʼsir* – AV-tugundagi refrakterlikning uzayishi va undan impuls oʻtkazilish tezligini sekinlashishidir. YUG refrakterlik davrni oshiradi va AV-tugundan impuls oʻtkazilishini minutiga 60-80 gacha kamaytiradi. SHu taʼsirga asosan YUG xilpillovchi aritmiyalarda qoʻllanadi. YUG qabul qilinganda diastola uzayadi va qorinchalarning toʻlishi yaxshilanadi va tabiiy, yurak zarb xajmi ortadi.

- *Musbat batmotrop taʼsir* – miokard qoʻzgʻaluvchanligining va oʻtkazuvchan tizimdagi avtomatizmning ortishidir. YUG katta dozada yuborilganda xujayrada kalsiy ionlari miqdori ortib ketadi, kaliy esa kamayadi va bu taʼsir amalga oshadi. Umuman olganda bu taʼsir salbiy rol oʻynaydi, chunki miokard qoʻzgʻaluvchanligini ortishi natijasida aritmiyalarga (ekstrasistoliya koʻrinishida – digitalis zaharlanishning birinchi belgilaridan) olib kelishi mumkin.

Oxirgi yillarda YUG *neyromodulyasiyalovchi taʼsiriga* xam ahamiyat berilmoqda. YUG kichik dozada qabul qilinganda xam simpatik nerv tizimi faolligi soʻnadi, qon plazmasida noradrenalin miqdori kamayadi. Buyrak kanalchalari epiteliyi xujayralarida Na^+ , K^+ -bogʻliq ATF-azani ingibirlanishi natijasida natriy ioni reabsorbsiyasi pasayadi va distal kanalchalarda ularning miqdori ortadi, bu esa renin sekretsiasini kamaytiradi. YUG bu mexanizmi diurez ortishiga olib keladi. Umumiy va buyrak gemodinamikasining yaxshilanishi ham ahamiyatga ega.

Farmakokinetika

Barcha YUG kardiotonik taʼsir mexanizmi boʻyicha bir xil boʻlib, farmakokinetik koʻrsatkichlari boʻyicha bir biridan farqlanadi.

Gidrofil (qutbli) yurak glikozidlari MIY yomon soʻriladi, jigarda deyarli metabolizmga uchramaydi, organizmdan asosan oʻzgarmagan holda buyraklar orqali chiqib ketadi. YArim chiqarilish davri 23-26 soat; qon plazmasi oqsillari bilan kam bogʻlanadi. Taʼsiri vena ichiga yuborilgandan soʻng 2-10min boshlanib, 15-90min choʻqqisiga etadi. Toʻyintiruvchi doza 0,6mg, eliminatsiya kvotasi 40%.

Lipofil (qutbsiz) yurak glikozidlari MIY yaxshi soʻriladi, 90-100% jigarda faol boʻlmagan metabolitlar hosil qilib metabolizmga uchraydi, hosil boʻlgan metabolitlar oʻt, axlat va buyraklar orqali chiqib ketadi. Qon plazmasi oqsillari bilan 95-97% bogʻlanadi. YArim chiqarilish davri 6-8 sutka. Ichishga buyuriladi, taʼsiri 2-5 soatdan keyin boshlanib, maksimal taʼsiri 7-12 soatda rivojlanadi va 2-3 hafta davom etadi. Toʻyintiruvchi doza 1,5-2mg, eliminatsiya kvotasi 7%.

Gidrolipofil (aralash) yurak glikozidlari MIY toʻliq soʻrilmaydi: digoksin 60-85%, izolanid – 15-45%. Bir qismi (20-25%) jigarda metabolizmga uchraydi, qolgan qismi organizmdan oʻzgarmagan holda chiqib ketadi. Qon plazmasi oqsillari bilan 20-25% bogʻlanadi, yarim chiqarilish davri 36 soat. Vena ichiga yuborilganda taʼsiri 5-30 min boshlanib, 45-60min

choʻqqisiga etadi va 5-8 kun davom etadi. Ichishga buyurilganda taʼsiri 2-3 soatda boshlanib, 4-6 soatda choʻqqisiga etadi. Vena ichiga yuborilganda toʻyintiruvchi doza 2mg, ichishga berilganda – 3mg tashkil etadi. Eliminatsiya koeffitsienti – 20%.

Bemorlarning jigar va buyrak funksional xolati, qon plazmasidagi oqsil miqdori, yoshi va boshqa omillarni nazarda tutib, ularning farmakokinetik xususiyatlaridan kelib chiqqan holda YUG tanlab buyurish lozim.

Koʻrsatmalar

- QAE va xilpillovchi aritmiya/boʻlmachalar titrashi
- Xilpillovchi aritmiyaning taxisistolik shakli
- Qorincha usti paroksizmal taxikardiyasi

Dozalash tartibi

QAE bemorlarini YUG bilan davolashda 2 bosqich mavjud:

1-bosqich – *digitalizatsiyalash*, yaʼni aniq terapevtik samara olmaguncha organizmni (miokardni) glikozidlar bilan toʻyintirish.

2-bosqich – ushlab turuvchi dozalarni yuborish yoʻli bilan preparatning *qondagi miqdorini ushlab turish*.

QAE darajasi va bosqichi, bemor yoshi, yurak ritmi va klinik vaziyatning boshqa xolatlaridan kelib chiqqan xolda digitalizatsiyalash turli tezlikda oʻtkaziladi. Digitalizatsiyalashning 3 xil usuli mavjud:

1. *Tezkor usul*, bunda YUG bilan toʻyintirish 1 kun davomida oʻtkaziladi.
2. *Oʻrtacha usul*, bunda YUG bilan toʻyintirish 3 kun davomida oʻtkaziladi.
3. *Sust usuli* – toʻyintirish 7 kun davomida oʻtkaziladi.

Digitalizatsiyalashning tezkor usuli juda kam xollarda qoʻllanadi: yangi YUG sinovi oʻtkazilganida yoki preparat dozasi ortib ketish xavfi boʻlmagan shoshilinch xolatlarda. Avval toʻyintiruvchi dozaning ½ qismi, soʻng xar 8 soatda ikki marta dozaning ¼ qismi yuboriladi.

Taxikardiya, qorincha usti aritmiyasi bilan kechuvchi surunkali yurak etishmovchiliklarida digitalizatsiyalashning oʻrtacha usuli qoʻllanadi. Birinchi kuni toʻyintiruvchi dozaning ½ qismi, ikkinchi va uchinchi kunlari esa dozaning ¼ qismi yuboriladi.

YUQS normal boʻlgan yoki bradikardiya bilan kechuvchi surunkali yurak etishmovchiliklarida digitalizatsiyalashning sust usuli qoʻllanadi. Davolashni ushlab turuvchi dozaga teng boʻlgan aniq dozada boshlab, to terapevtik samaraga erishguncha yuboriladi.

Davolashning 2-bosqichida terapevtik samaraga erishib boʻlgach, YUG ushlab turuvchi dozasi buyuriladi. Bu doza quyidagi formula orqali aniqlanadi:

$$UTD = \frac{TTD \times \text{eliminatsiya koeffitsienti}}{100}$$

bunda UTD –ushlab turuvchi doza; TTD – toʻliq terapevtik doza.

Buyrak etishmovchiligi boʻlgan bemorlarda strofantin va digoksin yuborish zaruriyati boʻlganda, preparatning zoʻriqtiruvchi, xamda ushlab turuvchi dozalari kreatinin klirensini nazarda tutgan xolda korreksiyalanadi.

Klinik farmakologiya tamoyillariga asosan digitalizatsiya oʻtkazish QAE davolashining zaruriy bosqichi xisoblanar edi. Biroq, xozirgi vaqtda digitalizatsiyalashni kamdan-kam xollarda oʻtkazilmoqda, chunki bemorni preparatga nisbatan shaxsiy sezgirligini aniqlash mumkin emas va nojoʻya taʼsiri rivojlanish xavfi yuqoridir. Bundan tashqari, QAE davolashda yangi yondoshuvlar (APF ingibitori, angiotenzin II retseptori antagonistlari, beta-adrenoblokatorlar, nitratlar qoʻllanishi) mavjudligi, bemor ahvolini YUG bilan toʻyintirish oʻtkazmasdan ham turgʻunlashtirish imkonini bermoqda.

Xozirgi vaqtda boshqa preparatlarga nisbatan digoksin koʻproq qoʻllanmoqda. Digoksin bilan davolash ushlab turuvchi dozalarni berish yoʻli bilan boshlanadi.

Nojo'ya ta'sirlar

YUG ta'sir doirasi tor bo'lgani sababli 10-20% bemorlarda *digitalis zaharlanish* rivojlanadi.

Digitalis zaharlanishga olib keluvchi omillar: kekxa yoki juda yosh bolalik davri, SYUE og'ir darajalari, yurak bo'laklarining keskin dilatatsiyasi, o'tkir miokard infarkti, miokard ishemiyasi va uning yallig'lanuvchi kasalliklari, turli etiologiyadagi gipoksiya, elektrolitlar buzilishi (gipokaliemiya, gipomagnemiya, giperkalsiemiya), qalqonsimon bez faoliyatining buzilishi, simatik adrenal tizimning keskin faollashuvi, nafas etishmovchiligi, jigar va buyrak etishmovchiliklari, KIM buzilishlari, gipoproteinemiya va h.

Digitalis zaharlanish belgilarini quyidagi guruxlar bo'yicha ajratish mumkin:

1. Kardial belgilar:

- Ekstrasistoliya, asosan qorinchali. Ekstrasistoliya alloritmia-bigemeniya turiga o'tishi mumkin; politop qorinchali ekstrasistoliya xam rivojlanishi mumkin.
- Sinusli bradikardiya.
- Sinoaurikulyar, atrioventrikulyar blokadalar. Bo'lmachalar titrashi va hilpillashi turidagi ritm buzilishlari xam kuzatilishi mumkin.

2. Me'da-ichak yo'li buzilishlari:

- Anoreksiya
- Qusish
- Qorinda og'riqlar
- Diareya

3. Nevrologik buzilishlar:

- Uyquning buzilishi
- Bosh og'rishi
- Bosh aylanishi
- Gipodinamiya
- Nevrit, radikulit, paresteziyalar

4. Ko'rish organlari buzilishlari:

- Rangli ko'rishni buzilishi (narsalarni sariq-yashil rangda ko'rinishi – ksantopsiya)
- Ko'rish o'tkirligini pasayishi

5. Boshqa simptomlar:

- Qon tizimi tomonidan o'zgarishlar kuzatilishi mumkin (trombotsitopeniya, burundan qon ketish, petexiya)
- Ginekomastiya

6. Allergik reaksiyalar – kam xollarda.

Digitalis zaharlanish gumoni bo'lganda YUG berish to'xtatiladi, EKG nazorati, qonda kaliy ionlari va glikozidlar miqdori aniqlanadi.

Antidotlar sifatida avval EDTA, unitiol preparatlari keng qo'llanar edi. Ularni qo'llanishi bo'yicha tekshiruvlar etarli bo'lmagani uchun (tasdiqli tibbiyot) xozirda ularni qo'llash cheklangan. Agar YUG ichishga berilgan bo'lsa, bo'shashtiruvchi dorilar (masalan, vazelin moyi) buyuriladi. Vazelin moyi YUG yuborilish yo'lidan qat'iy nazar, ichakdan so'rilishini kamaytiradi. YUG so'rilishini xolestiramin, faollashtirilgan ko'mir preparatlari ham kamaytiradi.

Ritm buzilishlari rivojlanganda (ekstrasistoliya) IV gurux antiaritmik DV buyuriladi, chunki ular bo'lmacha va AV-tugunlarda o'tkazuvchanlikka ta'sir ko'rsatmaydi. Dozani tez korreksiyalash mumkin bo'lgani uchun ularni vena ichiga yuborish maqsadga muvofiq.

Qorincha usti aritmiyalarida beta-adrenoblokatorlar yoki sust kalsiy kanallari blokatorlari (verapamil) EKG nazoratida buyuriladi. Davolashdan samara bo'lmasa, elektrokardiostimulyasiya ko'rsatilgan.

Agar, ritm buzilishlari gipokaliemiya fonida rivojlansa, vena ichiga kaliy preparatlari (panangin, kaliy xlor) qutbli eritma tarkibida yuboriladi. Kaliy preparatlari I darajali AV-blokadasi bo'lmagan bemorlarga qondagi kaliy miqdori meyorida bo'lganda ham buyuriladi.

Kuchli bradikardiya va AV-blokadada M-xolinolitiklar (platifillin, atropin sulfat) buyuriladi. Morgani-Adams-Stoks xuruji bilan kechuvchi to'liq AV-blokadada vaqtinchalik elektrokardiostimulyasiya o'tkazish zaruriyati tug'ilishi mumkin.

Qarshi ko'rsatmalar

Absolyut qarshi ko'rsatma – digitalis zaharlanish

Nisbiy qarshi ko'rsatmalar:

- YUQS minutiga 50dan kam bo'lgan bradikardiya
- Sinus tuguni bo'shashishi sindromi
- I darajadan yuqori AV-blokada
- Qorinchali paroksizmal taxikardiya
- WPW sindromi
- CHap qorinchaning sistolik faoliyati buzilmagan xollardagi QAE, arterial gipertoniya
- Qon oqimiga mexanik to'siqlik mavjudligi – sinus ritmli aortal va mitral stenozlar
- Gipertrofik kardiomiopatiya
- Konstriktiv perikardit

Davolash samaradorligi va xavfsizligini nazorat qilish usullari

- Bemorning klinik ahvoli (sub'ektiv va ob'ektiv)
- YUQS, puls nazorati
- EKG nazorati
- Nafas olish sonini aniqlash
- Diurez miqdorini aniqlash (qabul qilingan suyuqlikka nisbatan)
- Tana vaznini o'lchash
- ExoKS
- Ko'krak qafasi rentgenoskopiyasi
- Qon va siydikda elektrolitlar miqdorini aniqlash
- Buyrak funksional xolatini aniklash – Reberg sinamasi
- Jigarning farmakometabolizatsiyalovchi faoliyatini aniqlash – antipirinli yoki amidopirinli sinamasi
- KIM aniqlash
- Qonning biokimyoviy tahlili (kreatinin, mochevina, ALT, AsT, bilirubin)
- Qondagi digoksin miqdorini aniqlash

YUrak glikozidlarini boshqa dori vositalar bilan o'zaro ta'sirlari

Fizikaviy-kimyoviy nomutanosiblik:

• YUG + natriy gidrokarbonat, askorbin kislotasi → bir shpritsda yuborish mumkin emas, YUG faolsizlanadi.

• YUG + glyukozaning gipertonik eritmasi → bir shpritsda yuborish mumkin emas, YUG qisman faolsizlanadi va oksidlanadi.

• YUG + eufillin → turi rN muxitga ega, YUG faolsizlanadi.

Ijoby natijaga olib keluvchi o'zaro ta'sirlar:

• YUG + kaliy preparatlari, V, E guruxi vitaminlari, anabolik steroidli gormonlar, riboksin, karnitin → terapevtik samara ortadi.

• YUG + kaliysaqlovchi diuretiklar → gipokaliemiya xavfi kamayadi.

• YUG + verapamil → kardiotonik ta'sir ortadi.

• YUG + APF ingibitori → terapevtik ta'sir ortadi.

• YUG + EDTA, unitiol, sitrat natriy, trilon B → toksik ta'sir kamayadi.

Salbiy natijaga olib keluvchi o'zaro ta'sirlar:

- YUG + tiazidli va kovuzlog‘li diuretiklar → gipokaliemiya, giperkalsiemiya, gipomagnemiya xavfi ortadi.
- YUG + adrenomimetiklar (adrenalin, noradrenalin), metilksantinlar → miokardni YUG nisbatan sezgirliги va digitalis zaharlanish xavfi ortadi.
- YUG + YAQNDV, IA guruh antiaritmiklari, antikoagulyantlar, sulfanilamidlar → qon plazmasi oqsillari bilan bog‘lanish uchun raqobat xisobiga YUG qondagi miqdori ortadi va digitalis zaharlanish xavfi ortadi.
- YUG + MOS induktorlari → YUG jigardagi biotransformatsiyasi kuchayib ketishi sababli terapevtik samara kamayadi.

Nazorat savollari:

1. YUrak glikozidlarining Farmakodinamik effekti.
2. YUrak glikozidlaring klassifikatsiyasi polyarligi va ta’sir davomiyligi buyicha.
3. YUrak glikozidlari nima. Ularni kullashga karshi kursatma.
4. YUGlari bilan urtacha va individual tuyintirish va ushlab turish dozalari?

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mavlyanov I.R., Kats P.S., Maxkamova R.K. Klinik farmakologiya. Toshkent. 2012
2. Mamatov YU. Klinik farmakologiya, Toshkent, 1995.
3. Belousov YU.B. Klinicheskaya farmakologiya i farmakoterapiya, M., 1997; 2000.
4. Kukes V.G Klinicheskaya farmakologiya, M., 1999, 2012

7-MAVZU. Antiaritmik dori vositalarini klinik farmakologiyasi.


Reja:

1. Antiaritmik dori vositalarining farmakodinamikasi va farmakokinetik kursatkichlari.
2. Antiaritmik dori vositalarining dozalash rejimi, antiaritmik terapiyani samaradorligi va xavssizligini nazorat kilish bilan birga nojuya ta’sirlarini erta aniklash va davolash.
3. Antiaritmik dori vositalarining Uzaro ta’sirlari.

Kalit so‘zlar: aritmiya, antiaritmik, repolyarizatsiya, polyarizatsiya

Ritm buzilishlari (aritmialar) har bir yurak kasalligini asoratlantirishi va/yoki yurak kaslliklari bilan birga kelishi mumkin. Aritmialar yurak patologiyasi bo‘lgan bemorlarda paydo bo‘lib, kasallikni keyingi kechuvi, sifati va eng asosiysi, hayot davomiyligiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Aritmialar, ayniqsa, qorinchalar fibrillyasiyasi va qorinchalar taxikardiyasi to‘satdan o‘lim rivojlanishining sabablaridan biri bo‘lishi mumkin. SHuning uchun keskin aritmialar, xamda yurak ritmi buzilishlarini oldini olish uchun davolash o‘tkazish zarur. Ana shu maqsadda etiotrop davodan tashqari, antiaritmik preparatlar ham qo‘llanadi.

Barcha antiaritmik preparatlarning ta’sir mexanizmi ularni yurak xujayralarining elektrofiziologik xusuiyatlariga ko‘rsatadigan ta’siriga bog‘liq.




A - mushpk xujyrasining ta'sir potentsiali; B – EKG;

V – peysmekexujayralarining ta'sir potentsiali

Ritm boshqaruvchisi – peysmekerlarning spontan diastolik depolyarizatsiyasi

YUrak xujayralarining elektrofiziologik xususiyatlarini qisqacha ko'rib o'tamiz. YUrak xujayrasiga uchta asosiy elektrofiziologik xolat xos: tinch xolat (diastola yoki polyarizatsiya), faollashish (depolyarizatsiya) va tinch xolatga qaytish (repolyarizatsiya). Diastolada (4 faza) yurak xujayrasi manfiy zaryad (-90mV) – tinch potentsialga ega bo'ladi, bu kaliy ionlarining xujayra ichi va tashqarisidagi miqdorining nisbati bilan belgilanadi. Bunda xujayra ichidagi kaliy miqdori tashqaridagi kaliydan 30 marta ko'p bo'ladi. Tinch xolatda xujayra qobig'i natriy ionlarini o'tkazmaydi. Faollashish davrida (0 faza) tinch ta'sir potentsiali eng past ko'rsatkichgacha pasayib, so'ng xujayra ichiga natriy ionlarini tez tushishi xisobiga tezda musbat zaryadga ($+30\text{mV}$) aylanadi. SHundan keyin xujayra tinch xolatga qaytadi. Barvaqt kuzatiladigan tez repolyarizatsiya davrida (1 faza) xujayraga xlor ionlari; sust repolyarizatsiya davrida (2 faza) – natriy ionlari tusha boshlaydi; kechki repolyarizatsiya davrida (3 faza) esa kaliy ionlari xujayradan tez chiqib keta boshlaydi.




Transmembran ta'sir potentsiali

EKGda 0-3 fazalarga QRST (sistola) kompleksi, 4 fazaga esa – TQ (diastola) bo'lak to'g'ri keladi.

Refrakterlik davrida yurak xujayralarining qo'zg'aluvchanligi keskin pasaygan bo'ladi. EKGda bunga QRST (qorinchalar sistolasi) intervali to'g'ri keladi. Umumiy refrakterlik davri samarali va nisbiy refrakterlik davrlarning yig'indisidan iborat. Samarali refrakterlik davrida xoxlagan elektr signali ta'sir potentsialini chaqira olmaydi, nisbiy davrda esa – kuchli ta'sir signallari ta'sir potentsialini chaqira oladi.

YUrak qo'zg'aluvchanligi yuqori bo'lgan yana ikkita qisqa davrlar mavjud. EKGda ularga T tishchani oxirgi qismi va U tishcha to'g'ri keladi. Bu davrlarda ta'sir potentsialini sust signallar ham chaqira oladi.



Qo'zg'atuvchini yurakda tarqalishi.

Yurakning turli bo'laklaridagi ta'sir potentsiali ko'rsatilgan. Depolyarizatsiyalangan to'qima kul rang, yurakning qo'zg'algan bo'lagiga to'g'ri kelgan EKG qismi qora rang bilan ko'rsatilgan. .
Izox: rasm «Klinicheskaya farmakologiya po Gudmanu i Gilmanu, M, 2006, kitobidan nusxalangan.

Yurak xujayrasining elektrofiziologik xususiyatlariga ko'rsatiladigan ta'siri, xamda *E.Vaughan-Williams* tomonidan tavsiya etilib, qabul qilingan umumiy **tasnifga** asosan antiaritmik dori vositalarining quyidagi sinflari mavjud:

- **I-sinf** – nisbatan natriy kanallariga ta'sir etuvchi DV (membrana turg'unlashtiruvchi DV):

IA – bu sinf preparatlari asosan natriy kanallarini bloklab, depolyarizatsiya (0 faza) tezligini sekinlashtiradi, xamda kaliy kanallarini biroz bloklash xususiyatiga ega, shuning uchun repolyarizatsiya uzayadi (xinidin, prokainamid, dizopiramid).

IV – bu preparatlar depolyarizatsiya tezligiga deyarli ta'sir ko'rsatmaydi va repolyarizatsiyani qisqartiradi (lidokain, meksilitin, tokainid).

IS – bu preparatlar depolyarizatsiya tezligini sekinlashtiradi va repolyarizatsiyani deyarli o'zgartirmaydi (propafenon, flekainid, enkainid, moratsizin, etatsizin).

- **II-sinf** – beta-adrenoblokatorlar (propranolol, atenolol, bisoprolol, metaprolol, nadolol, atsebutolol, karvedilol).

- **III-sinf** – asosan kaliy kanallariga ta'sir etuvchi va repolyarizatsiyani uzaytiruvchi preparatlar (amiodaron, sotalol, bretiliya tozilat i butilid).

- **IV** – sust kalsiy kanallari blokatorlari (verapamil, diltiazem).

Ba'zi DV ko'rsatilgan tasnifga kirmaydi, ammo antiaritmik xususiyatga ega:

- Yurak glikozidlari (digoksin, strofantin) YUQS kamaytirish uchun, ayniqsa, bo'lmachalar xilpillashida qo'llanadi.

- Elektrolitlar (parenteral qo'llanadigan kaliy, magniy preparatlari)
- M-xolinoblokatorlar (atropin, belladonna preparatlari) bradikardiya, ayniqsa, sinus tugunining vegetativ disfunktsiyasi bilan bog'liq bo'lgan xollarda YUQS oshirish uchun qo'llanadi.
- Trifosfadinin, adenozin.
- APF ingibitorlari qorinchali ritm buzilishlarida samarali.
- Angiotenzina II retseptori antagonistlari (bo'lmachalar xilpillashida)

I - SINIF – MEMBRANA TURG'UNLASHTIRUVCHI DORI VOSITALAR

